5. Pour AM BE, Hashim MA. Hydrothermal alteration mapping using Landsat-8 data, Sar Cheshmeh copper mining district, SE Iran Journal of Taibah University for Science. 2014; 9. doi: 10.1016/j.jtusci.2014.11.008

6. Guha AR, Vinod Kumar KU. New ASTER derived thermal indices to delineate mineralogy of different granitoids of an Archaean Craton and analysis of their potentials with reference to Ninomiya 's indices for delineating quartz and mafic minerals of granitoids – An analysis in Dharwar Cr Ore Geology Reviews. 2016; 74: 76-87. doi: 10.1016/j.oregeorev.2015.10.033

7. Cengiz OY, Sener ER. Investigation of the Applicability of ASTER Satellite Images for Exploration of Barite Mineralization in the Bitlis Region. International Journal of Multidisciplinary Studies and Innovative Technologies. 2019; 3: 211-218.

8. Ali, I., Greifeneder, F., Stamenkovic, J., Neumann, M., Notarnicola, C. Review of machine learning approaches for biomass and soil moisture retrievals from remote sensing data. Remote Sensing. 2015; 7: 16398–16421. doi:10.3390/rs71215841.

9. Shirmard, H., Farahbakhsh, E., Beiranvand Pour, A., Muslim, A.M., Muller, R.D., Chandra, R. Integration of selective dimensionality reduction techniques for mineral exploration using ASTER satellite data. Remote Sensing. 2020; 12: 1261. doi:10.3390/rs12081261.

10. Asokan, A., Anitha, J., Ciobanu, M., Gabor, A., Naaji, A., Hemanth, D.J. Image processing techniques for analysis of satellite images for historical maps classification—an overview. Applied Sciences. 2020; 10: 4207. doi:10.3390/app10124207.

11. Babbar, J., Rathee, N. Satellite image analysis: A review, in: IEEE

International Conference on Electrical, Computer and Communication Technologies. 2019; 1–6. doi:10.1109/ICECCT.2019.8869481.

12. Gonzalez-Alvarez, I., Goncalves, M., Carranza, E. Introduction to the special issue challenges for mineral exploration in the 21st century: Targeting mineral deposits under cover. Ore Geology Reviews, 2020; 126: 103785. doi:10.1016/j.oregeorev.2020.103785.

13. Jiang, K., Wang, Z., Yi, P., Wang, G., Lu, T., Jiang, J. Edge-enhanced gan for remote sensing image superresolution. IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. 2019; 57: 5799–5812. doi:10.1109/TGRS.2019.2902431.

14. Saadi NM, Aboud E, Saibi H, Watanabe K. Integrating data from remote sensing, geology and gravity for geological investigation in the Tarhunah area, Northwest Libya. International Journal of Digital Earth. 2008;1(4):347-366

15. Saadi NM, Watanabe K, Imai A, Saibi H. Integrating potential fields with remote sensing data for geological investigations in the Eljufra area of Libya. Earth, Planets and Space. 2008;60:539-547

16. Thurmond AK, Abdelsalam MG, Thurmond JB. Optical-radar-DEM remote sensing data integration for geological mapping in the afar depression, Ethiopia. Journal of African Earth Sciences. 2006;44:119-134

17. Saibi H, Azizi M, Mogren S. Structural investigations of Afghanistan deduced from remote sensing and potential field data. Acta Geophysica. 2016;64(4):978-1003

18. Mogren S, Saibi H, Mukhopadhyay M, Gottsmann J, Ibrahim EH. Analyze the spatial distribution of lava flows in Al-Ays Volcanic Area, Saudi Arabia, using remote sensing. Arabian Journal of Geosciences.

2017;10:133. DOI: 10.1007/s12517-017-2889-0

19. Gloaguen R, Marpu PR, Niemeyer I. Automatic extraction of faults and fractal analysis from remote sensing

data. Nonlinear Processes in Geophysics. 2007;14(2):131-138.

20. Sabins FF. Remote sensing for mineral exploration. Ore Geology Reviews. 1999;14(3):157-183.

UO‘K: 528.8 : 528.236.4 : 004.725.5

GNSS USKUNLARIDA SYOMKA ISHLARI UCHUN QO‘LLANILAYOTGAN LOKAL KOORDINATA SISTEMASIGA O‘TISH PARAMETRLARINI ISHLAB CHIQISH VA QO‘LLASH

Komilov Otabek Anvar o‘g‘li - Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti Gematika muhandisligi kafedrası assistenti

Xalilov Doniyor Baxtiyor o‘g‘li - Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti Gematika muhandisligi kafedrası assistenti

Annatatsiya: Hozirgi kunda GNSS uskunalari deyarli barcha topografik va qurilish ishlarga kirib bordi. Ma’lumki ko‘p qurilish obyektlari davlat tasarrufidagi bo‘lish bo‘lmashligidan qat’iy nazar lokal koordinata tizimida ishlarni olib boradi. Bunga sabab qilib loyihani qurilish maydoniga ko‘chirishning aniqligini oshirish, davlat strategik ahamiyatga ega obyektlarida maxfiy koordinata joriy qilish va absolyut koordinatalardagi uzun sonlarni uskunaga kiritish va o‘qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish keltirilishi mumkin. Bunday lokal avval parametrlari aniqlanmagan koordinata tizimlari esa har doim GNSS uskunalari uchun avval bajarilishi lozim bo‘lgan koordinata tizimini kalibrovka qilish ishini taqoza etadi.

Kalit so‘zlar: GNSS qabul uskunası, baza, rover, RTK, koordinata tizimi, lokal taxeometrik koordinatalar, GNSS koordinalar, kalibrovka, lokalizatsiya, planli kalibrovka parametrlari, aylanish matritsasi, balandlik kalibrovka parametrlari, geoid model, og‘ish, loc fayl.

Аннотация: Сегодня оборудование ГНСС проникло практически во все топографические и строительные работы. Известно, что

многие объекты строительства работают в местной системе координат независимо от того, принадлежат они государству или нет. Это можно объяснить повышением точности перемещения проекта на строительную площадку, введением секретной координаты в государственные стратегически важные объекты, а также устранением трудностей ввода в оборудование и считывания длинных чисел в абсолютных координатах. Такие локальные системы координат, параметры которых ранее не были определены, всегда требуют калибровки системы координат, которую необходимо выполнить в первую очередь для ГНСС-оборудования.

Ключевые слова: Приемник GNSS, база, вездеход, RTK, система координат, местные тахеометрические координаты, координаты GNSS, калибровка, локализация, параметры плановой калибровки, матрица вращения, параметры калибровки высоты, модель геоида, отклонение, файл локации.

Abstract: *Today, GNSS equipment has penetrated almost all surveying and construction work. It is known that many construction projects operate in a local coordinate system, regardless of whether they belong to the state or not. This can be attributed to the increased accuracy of project movement to the construction site, the introduction of secret coordinates into government strategically important sites, and the elimination of the difficulty of entering and reading long numbers in absolute coordinates into equipment. Such local coordinate systems, the parameters of which have not previously been determined, always require calibration of the coordinate system, which must be performed first for GNSS equipment.*

Keywords: *GNSS receiver, base, rover, RTK, coordinate system, local total station coordinates, GNSS coordinates, calibration, localization, scheduled calibration parameters, rotation matrix, altitude calibration parameters, geoid model, deviation, location file.*

Introduction

Avvalo koordinata tizimini kalibrovka qilish nima degan savolga bir oz javob berib o'tsak. Koordinata tizimini kalibrovka qilish - bu WGS84 koordinatalarini lokal tarmoq koordinatalariga aylantiradigan bir qator matematik hisob-kitoblardir. GNSS qabul uskunasi u baza bo'lsin yoki rover farqsiz ravishda o'z joylashuvini aniqlash uchun umumiy yer ellipsoidiga asoslangan WGS-84 tizimida geodezik kenglik (B), uzoqlik (L) va ellipsoidal balandlik (H) koordinatalarini o'lchaydi. Biroq ko'pchilik geodezistlar odatda lokal koordinata tizimidan foydalanadilar. Zamonaviy RTK (Real Time Kinematic) GNSS texnologiyasidan bu vaziyatda foydalana olish, yuqori aniqligidagi natijalarga erisha olish uchun WGS84 koordinatalarini mahalliy tarmoq koordinatalariga o'tkazish qilish kerak.

Bunga oldindan aniqlangan koordinatalar tizimida ishlash yoki GNSS joylashuvini kalibrovka qilish orqali erishish mumkin. Aslida, GNSS joylashuvini kalibrovka qilish WGS-84 kenglik (B), uzunlik (L) va ellipsoidal balandlik (H) o'rtasidagi bog'liqlikni, mahalliy (N) shimolga, (E) sharqqa va (H) balandlikka almashtiradi. [1]

GNSS joylashuvini kalibrovka qilish odatda gorizontal va vertikal kalibrovkadan iborat. Gorizontal kalibrovka - GNSSdan olingan koordinata sistemasini koordinatalarini lokal tizimdagi koordinatalariga iloji boricha yaqinroq moslashtirish uchun N-shimoliy E-sharqiy koordinatalar uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holatda parametrlar ishlab chiqiladi. (Bu mavzu haqida keying maqolada beramiz.). Bundan kelib chiqadigan GNSS koordinatalarining parametrlari bu: N va E o'qlar bo'yicha siljish masofasi, H o'qi atrofida aylanish burchagi va masofa mos tushmasligi bo'yicha umumiy masshtab koeffitsienti qiymatlaridir.

Vertikal kalibrovka bu GNSS dagi absolyut koordinatalar va mahalliy lokal koordinata tizimi orasidagi balandlik bo'yicha siljish masofasi va ellipsoid sirtiga yoki elektron geoid model sirtiga urinma shaklida joylashgan sathiy yuza va lokal geoidga urinma shaklidagi sathiy yuza orasidagi N va E o'qlarining og'ish koeffitsientidir. Sathiy yuzani og'ishi burchakda berilmaydi.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'lyaptiki balandlik bo'yicha kalibrovka qilish ikki xil bo'lishi mumkin:

1) ellipsoidal balandlik qiymatlari va lokal ortometrik balandlik qiymatlari orasida kalibrovka

2) elektron geoid modeldan hisoblangan ortometrik balandlik qiymat bilan lokal balandlik qiymatlari orasida kalibrovka. Agar sizda geoid modelingiz bo'lmasa, bitta nuqta sifatida oddiy vertikal siljish qo'llanilishi mumkin yoki

lokal geodezik punktning ortometrik balandliklari yordamida og'ishli tekislikni hisoblash mumkin.

Bunda geoid va elektron geoid model nima va ularning qanday farqi bo'lishi mumkin degan savol bo'lishi mumkin. Geoid bu yerning gravitatsion modeli bo'lib, u yer tortish kuchining yer yuzi bo'ylab turli ekanidan kelib chiquvchi shakl. Bunga sabab zichligi katta va gravitatsion ta'sirga ega yer jinslarining bir xil joylashmaganidir. Ko'pincha unga dengiz-okeanlarning tinch turgan holati misol keltiriladi.[13] Elektron geoid modeli esa (EGM) - bu o'rtacha dengiz sathi (MSL) bilan mos keladigan global potentsial sirtini yaratish uchun sferik harmonik ko'tarilishda ishlatiladigan geopotentsial koeffitsientlar to'plami hisoblanadi. Bunday modellar ".ggf" kengaytmali fayl shaklda 5'x5', 2.5'x2.5', 1'x1' lik aniqlikda ishlab chiqiladi va shu oxirgi keltirilgani geodezik ishlar uchun tavsiya etiladi.

Agar GNSS kontroller uskunangiz xotirasida (EGM96.ggf EGM2008.ggf) geoid modellaridan foydalansangiz, mahalliy geodezik punktlarning ortometrik balandliklari bilan aniqlangan geoid va qo'llanilgan geoid modeli orasidagi farqlar asosida og'ish tuzatmasiga ega tekislik yaratiladi.

Aslida har qanday vaziyatda ham kalibrovka zarurmi degan savol bo'lishi mumkin. Bu savolga "ha" yoki "yo'q" deb aniq javob bera olmaymiz. Har bir loyiha va ish reja o'ziga xosdir, shuning uchun javob oxir-oqibat vaziyatga bog'liq bo'ladi. Biroq, hozir to'rtta umumiy ish rejasini va nima qilish mumkinligi haqida takliflarni ko'rib chiqamiz. Bu ish rejalar, albatta, sohadagi barcha misollarni aks ettirmaydi, lekin sizga shunga o'xshash vaziyatlarda nima qilish kerakligi haqida yaxshi fikr berishi mumkin.

A) Geodezist GNSS kontroller uskunasiga ma'lum koordinatalar tizimida (masalan SK-42)

ishlashi kerak va unda shu tizimda o'lchangan kamida 2 ta tayanch punktlar mavjud va GNSS baza stantsiyasini shu punkt ustiga o'rnatish va ish davomida foydalanishi mumkin. Bu vaziyatda kalibrovka qilish kerak emas. Chunki parametrlari avvaldan aniq bo'lgan koordinata tizimlarini kontrollerdan bimalol tanlab olishimiz mumkin. Bu holatga yana kalibrovka qilinib lokal koordinata tizimiga o'tish parametrlari aniqlangandan keyin, kelasi safar shu parametrlar bilan hosil qilingan biror punktga bazani o'rnatib ishlab ketaverish ham kiradi.

B) Geodezist GNSS kontroller uskunasiga ma'lum koordinatalar tizimida (masalan SK-42) ishlashi kerak va unda shu tizimda o'lchangan kamida 4 ta tayanch punktlar mavjud, lekin GNSS baza stantsiyasini shu punkt ustiga o'rnatish va ish davomida foydalanishga imkon yo'q. Bunga sabab juda uzoq masofa punktga o'rnatish noqulayligi yoki baza uskunani havfsizligini nazorat qilib turuvchi hodimning yo'qligi. Bu vaziyatda kalibrovka qilish kerak. Agar bu punktlar SSSR davrida qurilgan geodezik to'r punktlari va ularning biriga baza uskunasini o'rnatishni imkoniyati bor deb olsak ham kalibrovka qilish kerak. Chunki SSSR davrida qurilgan SK-42 tizimidagi geodezik punktlar koordinatasi bilan zamonaviy GNSS o'lchaydigan SK-42 tizimidagi koordinatalar cheklidan ancha katta farq bilan chiqadi.

C) Geodezist lokal koordinatalar tizimida ishlashi kerak bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib N=8000m E=5000m H=350 m koordinata tizimini keltirishiz mumkin. Mana shu holat eng ko'p tarqalgan holatdir ayniqsa O'zbekiston hududidagi qurilishlarda. Bunday holatda kalibrovka qilish zarur, kalibrovka parametrlarisiz GNSS da ishlashning umuman iloji yo'q.

D) VRS (Virtual Reference Station) baza stansiyalariga ro'yni ulagan holda geodezik punkt yasash, syomka yoki loyihani joyga ko'chirish ishlarini bajarmoqchi o'tkazmoqchi bo'lsa, kalibrovka qilishim kerakmi? Bu holatda ham javob ikki xil agar VRS bazalar mamlakat uchun absolyut regional tizimda kalibrovka qilingan va loyiha ham shu tizimda loyihalangan bo'lsa, u holda faqat vertikal ya'ni balandlik qiymatlarinigina kalibrovka qilish kerak. Chunki VRS stansiyalar masofasi uzoq bo'lib ular orasidagi geoid yer tortish kuchining o'zgarishi noma'lum yoki noaniqdir. Agar VRS stansiyalari koordinata tizimi va sizning loyihangizning koordinata tizimi har xil bo'lsa unda siz B yoki C holatlar singari kalibrovka qilishingiz zarur.

E)



1-rasm. Doimiy baza sifatida ishlab turuvchi VRS bazasi.

Kalibrovka ko'pincha lokalizatsiya deb ham ataladi shuning uchun keying ma'lumotlarimizda kalibrovkani lokalizatsiya so'zi bilan ham ifodalab ketishimiz mumkin.

Umuman olganda lokalizatsiya qilish uchun geodesist uchun tayanch sifatida foydalansa bo'ladigan taxeometr bilan N va E koordinatalari topilgan, nivelir bilan H koordinatlari topilgan eng kamida 4 ta geodezik punkt zarur bo'ladi. Chunki taxeometrik to'g'ri

koordinatalardan olingan masofa qurilishdagi haqiqiy masofaga mos tushadi.

Hozirgi misolimizda GNSS uskunasi o'lgangan ma'lum bir absolyut proyeksion koordinatalar va mahalliy lokal koordinatalar orasidagi jarayonni ko'rib chiqamiz xalos. Buning uchun bizga yuqorida keltirilgan punktlarning taxeometrik koordinatalar va ayni usha punktlarning GNSS da o'lgangan koordinatalari kerak bo'ladi.

1-jadval

Punkt nomi	Koordinatalar		
	N	E	H
GNSS_T5	4580669.652	525571.913	478.375
GNSS_T6	4580687.567	525612.034	478.285
GNSS_T10	4580705.889	525635.018	478.119
GNSS_T7	4580713.112	525606.076	477.993

Punktlarning GNSS uskunasi o'lgangan koordinatalari

2-jadval

Punkt nomi	Koordinatalar		
	N	E	H
T5	4580625.523	525559.870	482.566
T6	4580643.618	525599.918	482.450
T10	4580662.048	525622.828	482.287
T7	4580669.136	525593.849	482.157

Punktlarning taxeometr va nivelir uskunalarida o'lgangan koordinatalari.

Biz bu punktlarda farqni ko'rishimiz mumkin. Shu farqni qanday topish va qolgan barcha ishlarni shu farq bilan GNSS dan lokalga, lokaldan GNSS ga o'tkazishni o'rganib chiqsak.

Buning uchun tartib bilan aniqlanishi zarur bo'lgan parametrlar topiladi:

1. GNSS da o'lgangan koordinatalarning markaziy nuqtasi (uskunalarda ingliz tilde "origin" deb yuritiladi)ning koordinatasi topiladi. Buning uchun olingan koordinatalarning koordinatalarining o'rta arifmetik qiymati topiladi.

$$\overline{N}_{GNSS} = \frac{\sum N_{GNSSi}}{n}; \quad \overline{E}_{GNSS} = \frac{\sum E_{GNSSi}}{n}$$

bu yerda N_{GNSS}, E_{GNSS} - kalibrovkaga kiritilgan asos punktlarni GNSS da

o'lgan koordinalar; n -kalibrovkaga kiritilgan asos punktlar soni.

2. Taxeometr va nivelirda o'lgan punktlar koordinatalarining markaziy nuqtasi (origin) koordinasini ayni shaklda topiladi.

$$\bar{N}_T = \frac{\sum N_{Ti}}{n}; \quad \bar{E}_T = \frac{\sum E_{Ti}}{n}$$

bu yerda N_T, E_T - kalibrovkaga kiritilgan asos punktlarni taxeometr va nivelirda o'lgan koordinalar; n -kalibrovkaga kiritilgan asos punktlar soni.

3. Punktlarning ikki tizimdagi koordinatalari markazlari bir-biridan ayrilib taxeometrik N, E o'qi bo'yicha dN va dE surilish topiladi va shu surilish orqali GNSS uskunasi koordinata tizimini qancha surish kerakligi aniqlaydi boshqa nuqtlarga ham.

$$dN = \bar{N}_T - \bar{N}_{GNSS}; \quad dE = \bar{E}_T - \bar{E}_{GNSS}$$

4. Burilish burchagi topiladi. Buning uchun markaziy origin nuqtadan barcha kalibrovka uchun kiritilgan punktlarga qarab yo'nalish burchaklari (rumblar) topib chiqiladi. Buning uchun markaziy nuqta har bir punkt orasida teskari geodezik masala yechiladi.

3-jadval

№	Koordinatalar		koordinata ortiymalari		d (gorizontal masofa) (metr)	rumb
	N (m)	E (m)	ΔN	ΔE		rumb
0	4580694.055	525606.26025				
1	4580669.652	525571.913	-24.403	-34.34725	42.13359695	54.60700551790120
2	4580687.567	525612.034	-6.488	5.77375	8.68506379	-41.66627367448370
3	4580705.889	525635.018	11.834	28.75775	31.09745554	67.63251728579380
4	4580713.112	525606.076	19.057	-0.18425	19.05789068	-0.55393915366037
Σ					100.974	

GNSS o'lgashlar uchun

4-jadval

№	Koordinatalar		koordinata ortiymalari		d (gorizontal masofa) (metr)	rumb
	N (m)	E (m)	ΔN	ΔE		rumb
0	4580650.08125	525594.11625				
1	4580625.523	525559.87	-24.55825	-34.24625	42.14158614	54.3554009778317
2	4580643.618	525599.918	-6.46325	5.80175	8.68526935	41.9128029117843
3	4580662.048	525622.828	11.96675	28.71175	31.10575017	67.3741486567019
4	4580669.136	525593.849	19.05475	-0.26725	19.05662405	-0.8035420646011
Σ					100.989	

Taxeometrik o'lgashlar uchun

Hisoblangan taxeometrik rumb burchaklaridan GNSS rumb burchaklari ayriladi va natijalarning o'rta arifmetik qiymati topiladi. Murakkab va aniq usulda kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi o'rta arifmetik qiymat o'rniga.

$$\theta_i = \rho_T - \rho_{GNSS} \quad \theta = \frac{\sum \theta_i}{n}$$

bu yerda ρ_T - punktning lokal tizimdagi rumbi ρ_{GNSS} - punktning GNSS koordinata tizimidagi rumbi, bitta punktning rumblaridan topilgan koordinata aylanish burchagi,

Koordinata tizimining umumiy aylanish burchagi.

5-jadval

-0.2516045400695	0°	-15'	-5.77634425"
-0.2465292373006	0°	-14'	-47.50525428"
-0.2583686290919	0°	-15'	-30.12706473"
-0.2496029109407	0°	-14'	-58.57047939"
-0.2515263293507	0°	-15'	-5.494785662"

Yana bir usulda esa quyidagi formuladan foydalaniladi bu formula bizga aniqroq qiymatni beradi:

$$\theta = \arctan \frac{\sum_{i=1}^n (E_{Ti} - \bar{E}_T)(N_{GNSSi} - \bar{N}_{GNSS}) - (E_{GNSSi} - \bar{E}_{GNSS})(N_{Ti} - \bar{N}_T)}{\sum_{i=1}^n (N_{GNSSi} - \bar{N}_{GNSS})(N_{Ti} - \bar{N}_T) + (E_{GNSSi} - \bar{E}_{GNSS})(E_{Ti} - \bar{E}_T)}$$

5. Masshtab koefitsientini hisoblash. Bunda ham teskari geodezik masala orqali markaziy nuqtadan barcha punktlargacha taxeometrik masofalari d_T va GNSS koordinatalaridan masofalar d_{GNSS} hisoblanadi (3-4-jadval). Topilgan taxeometrik masofalarning GNSS masofalarga nisbati topiladi va barchasidan o'rtachasi yoki kichik kvadratlar usulini qo'llab eng maqbul qiymati topiladi

$$M_i = \frac{d_T}{d_{GNSS}} \quad M_{ort} = \frac{\sum M_i}{n}$$

bu yerda M_i - markazdan punktga bo'lgan masofa uchun masshtab koefitsienti M_{ort} - lokal tizimga o'tish uchun o'rtacha masshtab koefitsienti g'

Yana bir usulda esa quyidagi formuladan foydalaniladi bu formula bizga aniqroq qiymatni beradi:

$$M_{ort} = \frac{\sum_{i=1}^n d_{Ti}}{\sum_{i=1}^n d_{GNSSi}}$$

ya'ni bu formulada yig'indilar nisbati olinadi

6) Balandlik bo'yicha kalibrovkada surilish parametrini topish uchun punktlarning nivelirlangan va GNSS o'lchovida topilgan otmetkalari ayriladi va o'rtachasi olinadi. Murakkab va aniq usulda kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi o'rta arifmetik qiymat o'rniga. Bundan tashqari lokal N o'qining og'ishi $\alpha_N = -317.500377813501$ mm/km, lokal E o'qining o'g'ishi $\alpha_E = -218.96078628221017$ mm/km. Bu elektron geoid va haqiqiy joydagi geoid ga urinma sathiy yuzalarning biriga mos emasligidan kelib chiquvchi parameter bo'lib uni keying maqolalarda batafsil yoritamiz.

6-jadval

1	4.1909800
2	4.1648800
3	4.1678900
4	4.1643200
Σ	4.1720175

Endi topilgan barcha parametrlar bilan GNSS koordinatalarni lokal koordinata tizimiga, lokal koordinatalarni GNSS koordinata tizimiga o'tkazishni ko'rib chiqishimiz mumkin. Bu GNSS bilan qurilish maydonida amalga oshiriladigan Syomka va loyihani joyga ko'chirishning mohiyatini tashkil etadigan quyidagi formula bilan ifodalanadi. [12]

$$\begin{pmatrix} N_{Ti} \\ E_{Ti} \end{pmatrix} = M_{ort} \times R \times \begin{pmatrix} N_{GNSS_i} \\ E_{GNSS_i} \end{pmatrix}$$

bu yerda R- aylanish matritsasi bo'lib, u aylanish burchagi bilan barcha nuqtalarning koordinatasi boshqa koordinata tizimida qanday qiymatga ega bo'lishini aniqlaydi. [12]

$$R = \begin{bmatrix} \cos \theta & -\sin \theta \\ \sin \theta & \cos \theta \end{bmatrix}$$

(7) ifodani (6) ifodaga joylab matritsalarini ko'paytiramiz va oxirgi formulamizni hosil qilamiz.

$$\begin{pmatrix} N_{Ti} \\ E_{Ti} \end{pmatrix} = M_{ort} \times \begin{bmatrix} \cos \theta & -\sin \theta \\ \sin \theta & \cos \theta \end{bmatrix} \times \begin{pmatrix} N_{GNSS_i} \\ E_{GNSS_i} \end{pmatrix}$$

(8) matritsali ifodani oddiy tenglama shakliga keltiramiz.

$$N_{Ti} = M_{ort} \times (N_{GNSS_i} \times \cos \theta - E_{GNSS_i} \times \sin \theta)$$

$$E_{Ti} = M_{ort} \times (N_{GNSS_i} \times \sin \theta + E_{GNSS_i} \times \cos \theta)$$

Aylanish matritsasi va masshtab koeffitsienti qo'llanilishida punktlardan yasalgan shaklning markaziy nuqtasi qo'zg'almas deb olingani sababidan istalgan syomka nuqtasining N_{GNSS_i} va E_{GNSS_i} GNSS uskunasi bilan olingan koordinatalariga surilish qiymati ($dN; dE$)ni musbat va taxseometrik koordinatalardan yasalgan shaklning markaziy koordinatalari $\bar{N}_T; \bar{E}_T$ ni manfiy ishora bilan qo'shish kerak. Bunga sabab aylanish matritsasi faqat (0;0) deb qabul koordinata boshi atrofida aylanish bilan koordinata o'zgarishini hisoblaydi. Bunda formulamiz quyidagi holatga keladi.

$$N_{Ti} = M_{ort} \times ((N_{GNSS_i} + dN - \bar{N}_T) \times \cos \theta - (E_{GNSS_i} + dE - \bar{E}_T) \times \sin \theta)$$

$$E_{Ti} = M_{ort} \times ((N_{GNSS_i} + dN - \bar{N}_T) \times \sin \theta + (E_{GNSS_i} + dE - \bar{E}_T) \times \cos \theta)$$

Aylanish matritsasi va masshtab koeffitsienti bilan hisoblangan qiymatlarga koordinata boshini asl holatga qaytarish uchun yana $\bar{N}_T$ va $\bar{E}_T$ qaytib qo'shiladi va formulamiz yakuniy quyidagi shaklga keladi.

$$N_{Ti} = M_{ort} \times ((N_{GNSS_i} + dN - \bar{N}_T) \times \cos \theta - (E_{GNSS_i} + dE - \bar{E}_T) \times \sin \theta) + \bar{N}_T$$

$$E_{Ti} = M_{ort} \times ((N_{GNSS_i} + dN - \bar{N}_T) \times \sin \theta + (E_{GNSS_i} + dE - \bar{E}_T) \times \cos \theta) + \bar{E}_T$$



2-rasm. Geodezik tayanch punktlarning lokal koordinatalaro (qizil) va GNSS koordinatalari (havorang) orasidagi farq va lokalizatsiyadan so'ng bir biriga bog'lanishi. [3]

Lokalizatsiya parametrlarini bir GNSS qabul apparatidan boshqa biriga o'tkazish qo'lda koordinata sistemasiga o'zgartirish kiritish usuli bilan yoki ".loc" faylni yuklab olish bilan amalga oshiriladi. Bu fayl kontrollerdagi kalibrovka bo'limidan natijani export hosil qilinadi va boshqa qurilmalarga yuboriladi.

Datum trans		Horz. adjustment		Vert. adjustment	
Type	Plane				
Origin N	4580694.055 m	Datum trans	Horz. adjustment	Vert. adjustment	
Origin E	525606.260 m	Type	Inclined plane		
Translation N	-43.974 m	Origin N	4580650.081 m		
Translation E	-12.144 m	Origin E	525594.116 m		
Rotation	-000:15:10.8787293376	Slope N (ppm)	-317.500377813501		
Scale Factor	1.000184707929741	Slope E (ppm)	-218.96078628221017		
Interpolation method	Bi-linear	Constant adjustment	4.172 m		
North grid file	None	Geoid file	EGM08-K1.GGF		
East grid file	None	Interpolation method	Bi-linear		

3-rasm. Kontrollerdagi koordinata tizimi bo'limi gorizontal va vertikal kalibrovka oynalari. [3]

XULOSA

Xulosa qilsak lokalizatsiya bu yer ellipsoid al koordinatalarini lokal tekislik koordinataga va teskarisiga konvertatsiya qilish ishlaridir. Bu usul bilan istalgan GNSSda syomka qilingan absolyut koordinatani lokal koordinataga o'girish ishi amalga ishirladi. Bunda biz lokalizatsiya parametrlari va koordinta tizimdan tizimga o'tish formulasini ayniqsa aylanish matritsasini qanday qo'llashni bilishimiz kerak. Lekin e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihati shuki syomka nuqtalari lokalizatsiya uchun olingan tayanch punktlari hosil qilgan poligondan tashqariga ko'p miqdorda chiqib ketmasligi kerak. Chunki lokalizatsiya hududidan uzoqlashgan sari lokalizatsiya parametrlarida ikkitasi burilish burchagi va masshtab koeffitsienti o'zgarib boradi. Bunga sabab yer ellipsoidi va tekislik oradagi bog'liqlik faqat aniqlangan hudud uchungina chekli xato bilan ishlashidir. Lokalizatsiya faqat joydagi punktlarning koordinatalari va koordinata tizimi GNSS uskunaga ma'lum va bu punktlarning biriga bazani o'rnatish

imkoniyati bo'lgan holatdagina kerak bo'lmaydi. Qolgan barcha vaziyatlarda mahalliy koordinata tizimi bilan ishlash uchun lokalizatsiya muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Artikov G'.A. Kosmik geodeziya va global navigatsiya sun'iy yo'ldoshlar tizimi. Darslik -T "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2021,412 bet.
2. E.R. Mirmaxmudov, T.M.Abdullayev, D.SH.Fazilova "KOSMIK GEODEZIYA" O'quv qo'llanma. Toshkent. «Universitet» 2016.
3. LandStar GNSS kontroller programmasi qo'llanmasi.
4. Sickie, J.V. GPS for Land Surveyors.—New York, London:Taylor & Francis.—2015.—330p.
5. В. Л. Клепко А. В. Александров "СИСТЕМЫ КООРДИНАТ В ГЕОДЕЗИИ" Научная монография Екатеринбург. 2011. 166 стр.
6. Вахрамеева Л. А., Бугаевский Л. М., Казакова Э. Л. Математическая картография. М.: Недра, 1986. 286 с
7. Генике А.А., Побединский Г.Г. Глобальные спутниковые системы определения местоположения и их применение в геодезии. М.: Картгеоцентр, 2004.
8. 335 с.
9. Герасимов А. П., Назаров В. Г. Местные системы координат. М.: ООО «Издательство «Проспект», 2010. 64 с.
10. Демьянов Г. В. Геодезические системы координат, современное состояние и основные направления развития // Геодезия и картография. 2008. №9. С.17-20.
11. Демьянов Г. В. Геодезические системы координат, современное состояние и основные направления развития // Геодезия и картография. 2008. №9. С.17-20.

12. Ильин В. А., Позняк Э. Г. Аналитическая геометрия. М.: Физматлит, 2009. 224 с.

13. Н.А. Телеганов, Г.Н. Тетерин. Метод и системы координат в геодезии: учеб. пособие /– Новосибирск : СГГА. – 2008. – 143 с.

14. Юркина, М.И. Общеземная

система высот и морская поверхность. Науч.-техн. сб. по геодезии, аэрокосмич съемкам и картографии. – Москва.: ЦНИИГАиК, 1996 б.– С. 46 – 65.

15. Яковлев, Н. В. Высшая геодезия: Учеб.для вузов.–Москва: Недра, 1989.– 445 с.

UUK: 528:633.8(575.1)(043)

КАРТОГРАФИК МЕТОДЛАР АСОСИДА ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАРНИ ТАҲЛИЛИ ҲАҚИДА БАЎЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Абдурахмонов Сарвар Нарзуллаевич - доцент “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети

Иномова Наргиза Рустамовна - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Кадастр агентлиги “Геоинновация маркази” ДУК стажёр тадқиқотчиси

Аннотация. Табиий шароитда ўсимликлар компонентларини таҳлил қилиш, ўрганиш каби ишларни бажариш мақсадида ўсимликлар дунёси карталарини тузиш ишлари олиб борилади. Бундай карталар асосида ҳудудларда табиий шароитини ўрганиш, доривор ўсимликлар дунёсини ўрганиш, экин ерлари каби бошқа табиий муҳит компонентларини баҳолашда жуда зарурий восита сифатида намоён бўлади. Мазкур мақолада ҳудудларда мавжуд доривор ўсимликлар ва уларни тарқалишини миқдори ва сифат жиҳатидан таҳлил қилиш ва янги қатламларни аниқлашда картографик маълумотлардан фойдаланишга асосланади.

Калит сўзлар. Доривор ўсимликлар, картографик маълумотлардан фойдаланиш, географик иқлим, ўсимлик карталари, картографик методлар.

Аннотация. С целью анализа и изучения компонентов растений в природных условиях проводится

работа по составлению карт мира растений. На основе таких карт она показана как весьма необходимый инструмент при изучении природных условий регионов, изучении мира лекарственных растений, оценке других компонентов природной среды, таких как обрабатываемые земли. Статья основана на количественном и качественном анализе существующих лекарственных растений и их распространении в регионах, а также использовании картографических данных при выявлении новых пластов.

Ключевые слова. Лекарственные растения, использование картографических данных, географический климат, карты растений, картографические методы.

Abstract. In order to analyze and study the components of plants in natural conditions, work is being carried out to compile maps of the plant world. Based on such maps, it is shown as a very necessary tool in studying the natural conditions of regions, studying the world of medicinal

plants, and assessing other components of the natural environment, such as cultivated lands. The article is based on a quantitative and qualitative analysis of existing medicinal plants and their distribution in the regions, as well as the use of cartographic data in identifying new layers.

Key words. *Medicinal plants, use of cartographic data, geographic climate, plant maps, cartographic methods.*

Кириш.

Худудларда мавжуд доривор ўсимликларнинг ривожланиши ва тарқалишини тадқиқ қилишдан кўзланган вазифалар фармоцевтика соҳаси учун даволовчи ва фармокологик хусусиятларга эга бўлган доривор ўсимликларни аниқлашдан иборат. Бунда айнан, доривор ўсимликларни тарқалишини миқдори ёки сифат жиҳатидан аниқлаш ва бундай маълумотларни визуаллаштириш мақсадида картографик маълумотлардан фойдаланиш бугунги куннинг долзар масалаларидан биридир десак муболаға бўлмайди.

Ўсимликлар карталари ернинг энг муҳим таркибий қисмларини ўрганишда бошланғич маълумотлар манбааси сифатида катта аҳамиятга эга бўлиб, инсон ҳаёти учун зарур бўлган ўсимликлар билан таъминлаш ва уларни табиий муҳит билан муносабатларини яхшилашда муҳим асос сифатида фойдаланилади. Ўрганилаётган картографик маълумотлар орқали худудларда доривор ўсимликларнинг тарқалиши, уларнинг заҳираларини аниқлаш ва оқилона йиғиб олиш имконини яратиб беради.

Асосий қисм.

Ҳозирги пайтда экологик муаммоларнинг кескин ортиб

борётганлиги, унинг атроф муҳитга, ўсимликлар дунёсига таъсирини кузатишда ўсимликлар карталарини ўрганиш зарурати ортиб бормоқда. Тиббиёт ва фармакологиянинг фаолиятида доривор ўсимликларнинг ўрни жуда катта. Ўсимликлар икки хил яъни биологик ва географик қонуниятларга асосан ривожланади. Ўсимликларни карталашда уларни ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, географик муҳитнинг хусусиятлари билан боғлаган ҳолатда амалга оширилади.

Доривор ўсимликларни ўсишини, тарқалишини, уларни муаммоларга учраганлигини аниқлаш учун ўрта ва йирик масштабли топографик ва тупроқ карталаридан фойдаланилади. Ўсимликлар картографиясида доривор ўсимликлар карталари муҳм ва катта гуруҳни ташкил қилади. Унда ўсимликларнинг хилма хиллиги, уларнинг тарқалиш ёки камайиш даражасини кўтарилганлиги ёки пасайганлиги кўрсаткичлари кўрсатиб ўтилганлиги сабабли ўсимликлар динамикаси карталари дейилади.

Табиий ўсимлик объектлари жумладан, доривор ўсимликлар, донли ўсимликлар ва шунга ўхшаш ресурслар карталарини табиат тармоқлари, ишлаб чиқариш ва фойдаланиш соҳаларига қараб бўлиш принципи қабул қилинган. Ресурслар карталарининг мазмунини қуйидагилар ташкил этади: мавжуд ресурсларнинг турлари, ресурсларнинг миқдор ва сифат кўрсаткичлари, ресурсларнинг худудий жойлашиши, ресурсларнинг келиб чиқиши ва заҳираси кабилар. Табиий бойликларни ўзлаштириш ва улардан фойдаланиш бўйича иқтисодий баҳолаш ишлари олиб борилади, унга қараб тегишли карталар тузилади. Баҳолаш жараёнининг асосий элементлари сифатида: а) баҳолаш объекти; б) унинг

субъекти; в) баҳолаш мезонларини келтириш мумкин.

Ўсимликлар карталарнинг турлари мақсадига қараб универсал ва ихтисослаштирилган бўлади. Универсал карталар асосий ахборот манбаълари ҳисобланиб, ўсимликлар ҳақида кўп қиррали маълумотларни ўз ичига олади. Ўсимлик карталари мазмунига кўра икки гуруҳга бўлинади. Улардан бири маҳаллий ва қайта тикланган ўсимликларни кўрсатадиган карталардан иборат. Ўсимликлар картаси картография пайдо бўлмасидан, инсон омили таъсири бўлмасидан олдин пайдо бўлган.

Ўсимлик карталарида ернинг турли табиий зоналарида иссиқлик ва намлик ўртасидаги табиат билан чамбарчас боғлиқ бўлаган муносабатларида ўсимликлар қопламнинг табиий кенглиги ҳисобга олинади. Ер юзасида тоғ тизмалари ва бошқа йирик паст баландликларнинг мавжудлиги сабабли ўсимликларнинг вертикал томонга қараб кенгайиб бориши, ўсимликлар тарқалишини маҳаллий географик ҳолатидан келиб чиқиб, уларнинг ҳудудий хусусиятларини таҳлил қилишда ўсимлик карталарини ўрни алоҳида аҳамият касб этади.

Тадқиқотлар давомида шуни айтиш мумкинки, ўсимлик карталари тарқалаётган ва тикланган ўсимликлар қопламини географик муҳит билан узвий боғлиқ ҳолатда асл кўринишида ўрганиш учун илмий ёрдамчи ҳисобланади.

Ўсимликлар карталарининг ўсиши ва ривожланишига таъсир килувчи антропоген омилларни ҳисобга олган ҳолда илмий техник жиҳатдан катта ўзгаришлар қилинмоқда. Бундай карталарни яратиш орқали табиий муҳит сабабли юзага келиши мумкин

бўлган зарарларни олдини олиш ва ўз навбатида ўсимликларнинг ривожланишида, уларни тарқалишида сезиларли даражада ўзгаришига олиб келадиган сабабларни ўраганиш учун ўсимликлар карталарни яратиш жуда муҳимдир.

Ўсимликлар карталари орасида доривор ўсимликлар картаси алоҳида ўрин эгаллайди. Доривор ўсимликлар карталари ўсимликларнинг алоҳида бўлимларини тақсимланиши орқали акс эттирилади. Улар катта (1:5000 - 1:25000) ва ўрта (1:300 000 - 1: 1 000 000) масштабларда тасвирланиши билан гуруҳларга бўлинади.

Доривор ўсимликлар ўсадиган ҳудудларни баҳолашда доривор ўсимликларнинг мавжудлиги, уларнинг тарқалиш даражаси шунингдек турларининг хилма хиллиги ва ноёблиги табиий ҳудуднинг қийматини белгиловчи омиллар ҳисобланади. Доривор ўсимликларнинг хилма хиллик даражаси кўриб чиқиладиганда ҳудудда ўсадиган ўсимликларнинг турларини сонига қараб, уларнинг маълум бир ҳудудда учрайдиганларини турлари ва сонини ҳисобга олган ҳолда аниқланади. Доривор ўсимликларни картага олиш усулларида ўсимликларни ёввойи турларини тарқалиши ва доривор ўсимликларнинг захирасини аниқлаш алоҳида ўрин тутди. Картографик маълумотлар ва олиб борилган амалий тадқиқот натижалари билан бирга доривор ўсимликлар ресурсларидан оқилона фойдаланиш йўлга қўйилади. Доривор ўсимликлар карталарини тузиш аҳамиятига кўра дастлабки маълумотлар асосий, қўшимча ва ўрдамчи маълумотларга бўлинади.

Асосий картографик маълумотларда ҳудудда мавжуд ўсимликлар тўғрисида маълумот берилади. Улар турли масштабдаги

доривор ўсимликлар қопламининг ишчи карталари, ўрмон ва уларни кўпайтириш режалари, тавсифномалар, ихтисослаштирилган геоботаник карталар ва аэрокосмик суратлар орқали олинган топографик карталардир.

Қўшимча картографик маълумотларда табиат карталари яъни геологик, тупроқ, геоморфологик, иқлим ва бошқа ландшафт карталари киради. Бундай қўшимча карталар орқали ўсимликлар билан боғлиқ бўлган табиий комплекс ва энг муҳим хусусиятларни ўзида жамлайди. Уларни билиш орқали ўсимликларнинг геоботаник ва географик иқлим шароитини аниқлашда фойдаланилади.

Ёрдамчи маълумотлар нашр этилган манбаалар, тўпланган дала кузатув ишлари натижалари ва ўсимликлар тўғрисидаги маълумотлар баъзасини ўз ичига олади.

Доривор ўсимликлар картасини ишлаб чиқиш учун маъмурий туманлар, вилоятлар, ҳудудлар ва республика доирасида кенг масштабда амалга оширилган ишлар натижасида умумлаштирилади, бир қатор услубий ёндашувлар, дастлабки олинган маълумотларни қайта ишлаш, таҳлил қилиш, изоҳлаш ва деталлаштиришни ўз ичига олади.

Умумлаштириш карталарни яратилишнинг бутун жараёнини картани таснифидан унгача тўпланган маълумотларни таҳлил қилишдан, картани контурларини чизишдан тортиб ранг дизайнгача бўлган қисмини ўз ичига олади. Барча табиий карталарда бўлгани каби ўсимликлар карталарида ҳам географик ва геометрик умумлаштириш амалга оширилади.

Ўсимликларни карталарда кўрсатишда серияли карталар янада

аниқ ва кенг қамровли маълумотларни беради. Демак, бунда карталарни мувофиқлаш талаб қилинади. Карталарни бир-бири билан мувофиқлаш ва улардан биргаликда фойдаланиш тасвирдан умумий хулоса чиқариш имконини беради.




1-расм. Ўсимлик карталарини легендасини мувофиқлашни амалга ошириш усули

Ундан ташқари карталар сериясини ҳам мазмунан мувофиқлаш усуллариغا ҳам алоҳида эътибор қаратиш талаб қилинади.

- ўсимлик арталарини тузишда ҳар бир муаллиф картага олиш объектини тўлиқ ўрганиши;

- картани тузишда ёки съёмкани бажаришда шу объектнинг бошқа табиий компонентлар билан алоқасини ўрганиб чиқилиши;

- ўсимлик картасида яна қайси табиий объектлар тасвирланиши ҳамда бошқа табиий карталари билан боғлиқлигини тавсифловчи кўрсаткичлар мувофиқланиши зарурлигини аниқлаш усулларида фойдаланилади.



2-расм. Тупроқ ва ўсимликлар карталарини мувофиқлаш

Мувофиқланиши лозим бўлган элементлар сифатида кўп қайтариладиган объектлар ва ҳодисаларнинг картографик тасвирлари, турли тасвирлаш усуллари билан кўрсатилган ўзаро боғлиқ ҳодисалар, легендалар матни ва карталарни жиҳозлаш усуллари қабул қилинади.

Ўсимликлар карталарини яратиш жараёнида сифат ва миқдорий маълумотларни умумлаштириш ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Катта майдонларни эгаллаган ўсимликларнинг асосий тоифаларини танлаб олиш ва картада кўрсатилаган ўсимликларни кўринишни тушиниш учун ҳар хил турдаги ўсимликларни кўринишидан фарқлай олиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Ишлаб чиқарилаётган карталарнинг дизайни, матнли тушунтиришлар, белгилар ва ранглар шкаласини жойлаштириш алоҳида билим ва кўникмаларни талаб этади.

Ўсимликларнинг таркибий хусусиятларини, кўринишини, экологик имкониятларини ва уларнинг тарқалишини географик тасвирлашда ранглар шкаласининг ўрни муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса.

Карталарни яратишда нафақат ранглар шкаласидан балки чизиқли фондан фойдаланиш ҳам картанинг ранглар ёрқинлигини таъминлаб беради. Доривор ўсимликларнинг

захираларини карталаштиришда худудни ўрганилганлиги тўғрисидаги тўлиқ маълумотларни яъни ўсимликлар картасининг мавжудлиги муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қурбонов Ш.Б. Ўзбекистон қишлоқ туманлари ижтимоий-иқтисодий географияси: монография. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2019. – 218 б.
2. Мирзалиев Т., Мусаев И., Сафаров Э. Ижтимоий – иқтисодий картография. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 147 б.
3. Ижтимоий-иқтисодий развитие и уровень жизни в Узбекистане (2014-2017 гг.). Статистический сборник. – Т.: Госкомстат, 2018. – 216 с.
4. Турдымамбетов И.Р. Қорақалпоғистон Республикаси нозогеографик вазиятини яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари. Геогр. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 2016. – 82 б.
5. Ўзбекистон географик атласи. – Т., 1999. – 56 б.
6. Abdurakhmonov S, Abdurahmanov I, Murodova D, Pardaboyev A, Mirjalolov N, Djurayev A. Development of demographic mapping method based on gis technologies. InterCarto, InterGIS. 2020;26:319-328. doi:10.35595/2414-9179-2020-1-26-319-328
7. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография. - М.: Географик 1960. -452 б.
8. Абдурахмонов С.Н. “Геоахборот технологиялари ва картографик методлар асосида минтақавий демографик жараёнларни тадқиқ қилиш (Ўзбекистон Республикаси жанубий минтақаси

мисолида)”. Диссертация., Тошкент-2020й.

9. Боголюбова С.А. Эколого-экономическая оценка рекреационных ресурсов: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2009. - 256 б.

10. Геоботаническая картография. URL: Географическое картографирование: карты природы: учебное пособие / Под ред.

11. Е.А. Божи. Библиофонд Географическое картографирование: карты природы: учебное пособие/ Под ред. Е.А. Божилиной. - М.: КДУ, 2010. - 316 с.

12. Зайко Л.Н. Картографические методы изучения ресурсов лекарственных растений // Результаты научных исследований в области лекарственного растениеводства. URL: <http://lekarstvennye-rasteniya.net>

UUK: 633/635 : 347.2 : 528.8

МАСОФАДАН ЗОНДЛАШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА ЎСИМЛИК ДУНЁСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Алланазаров Олимжон Рахмонович - Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети “Маркшейдерлик иши ва геодезия” кафедраси доценти (PhD).

Худайкулов Нуриддин Джанизакович - Жиззах политехника институти мустақил изланувчиси,

Дусмухамедова Ирода Дилмурод қизи - Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети магистранти,

Бўриева Мафтуна Баротовна - Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети магистранти

Аннотация. Ушбу мақолада замонавий техника ва технологияларни қўллаш орқали масофадан зондлаш материаллари NDVI тадқиқ этиши масалалари ёритилган. Ушбу олинган масофадан зондлаш материаллари икки йиллик май ва июн ойларига ўсимлик дунёсининг ҳолати мақсадли тадқиқ этилди. Жиззах вилояти Фориш тумани ўсимликларни меёрлаштирилган фарқ индекси билан ўзаро боғлиқлиги ўрганилди.

Калит сўзлар: интеграция, спектрал каналлар, географик ахборот тизимлари, фотограмметрия, аэрофотосъёмка, геодезия, картография.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы дистанционного

зондирования с использованием современных методов и технологий как NDVI. Полученные материалы дистанционного зондирования использовались в течение двух лет (май и июнь) для целенаправленного изучения флоры. Изучена связь между растениями Форишского района Джизакской области с нормированным показателем разницы.

Ключевые слова: интеграция, спектральные каналы, геоинформационные системы, фотограмметрия, аэрофотосъёмка, геодезия, картография.

Annotation. This article covers issues of remote sensing using modern methods and technologies such as NDVI. The obtained remote sensing materials

were used for two years (May and June) for a targeted study of the flora. The relationship between plants of the Forish district of the Jizzakh region with a normalized difference indicator was studied.

Key words: integration, spectral channels, geographic information systems, photogrammetry, aerial photography, geodesy, cartography.

Кириш.

Республикамизда кейинги йилларда ўсимликлар сони камайиш кузатилмоқда, бунга асосий сабаб ерларнинг турли даражада деградацияга учраш оқибатида содир бўлмоқда. Республикамизда геобатик ҳолатни аниқлаш деградация жараёнларини олдини олиш, маҳсулдорлигини ошириш ва улардан самарали фойдаланиш бўйича кенг қамровли илмий-тадқиқот ишлари олиб борилиб, муайян натижаларга эришилмоқда. Давлат кадастрини юритувчи органлари томонидан ўсимлик дунёсидан фойдаланувчилар республиканинг бутун ҳудудида Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ўсимлик дунёси объектларининг давлат кадастри субъектлари ҳисобланадилар. Кейинги йилларда ўсимлик дунёси объектларини масофадан зондаш материаллари асосида тадқиқ этиш бўйича қатор илмий ва амалий ишлар амалга оширилмоқда. Бунгунги кунда Республикамизда беш минг гектарга яқин яйлов ерлари ҳамда уларнинг геобатаник ҳолати масофадан зондаш материаллари асосида тадқиқ этилиб, ижобий ҳулосалар олинмоқда. Ушбу тадқиқотда Жиззах вилояти Фориш тумани массивларининг 2022-2023 йил май ва июн ойларида олинган масофадан зондаш материаллари тажриба сифатида олинди ва NDVI тадқиқот маълумотлари акс эттирилди.

Замонавий техника ва технологияларни қўллаш орқали олинган масофадан зондаш материаллари икки йиллик май ва июн ойларилдаги ўсимлик дунёсининг ҳолатини сунъий йўлдош сенсори ёрдамида космик сурашлари олинди ва мақсадли тадқиқ этилди. Жиззах вилояти Фориш тумани ўсимликларни меёрлаштирилган фарқ индекси билан ўзаро боғлиқлиги ўрганилди.

Ўсимликларни NDVI таҳлил қилишда гуруҳлаштирилган индекс фарқи электромагнит спектрининг яқин инфрақизил ва кўринадиган қизил спектрларида олинган сурашлардан фойдаланилди. Ушбу Жиззах вилояти Фориш тумани ҳудудининг тадқиқот учун зарур бўлган геотасвирлари www.usgs.uz сайтида эълон қилинган сурашлар юклаб олинди, улар асосида таҳлилий ишлар олиб борилди. NDVI таҳлилни амалга ошириш учун 2022-2023 йил май/июн ойларидаги космик сурашлар олинди.

Бунинг учун ArcMapни очиб ► Catalog ► Add Data га ўтиб очмоқчи бўлган ва мос келадиган тасвирларни TIF форматида очиб оламиз. Тасвирнинг устига сичқонча билан икки мартаба босиш билан уни ArcMap да очиб оламиз. Ушбу тадқиқотда сурашлар 4 ва 5- банд тасвирлари акс эттириш формуллари келтирилган 1-расм.

	$NDVI = \frac{(NIR-RED)}{(NIR+RED)}$
Landsat 8	$NDVI = \frac{(Band5-Band4)}{(Band5+Band4)}$
Landsat 4-7	$NDVI = \frac{(Band4-Band3)}{(Band4+Band3)}$


1-расм. Ландсат 8 ва Ландсат 4-7 космик кемадан олинган материалларнинг ҳисобланиши

NDVI таҳлил одатда -1 дан 1 гача бўлган диапазонда амалга оширилади. Агар ушбу қийматлар -1 дан 0 гача бўлган салбий бўлса, унда танланган объект бу сув ҳавзасига тўғри келади.


Аксинча, NDVI қийматлари ижобий 1 га яқин бўлса, зич ўсимликлар пайдо бўлиши эҳтимоли юқори. Агар қиймат 0 га яқин бўлса, бу яшил барглار ўсимликлар йўқлигини англатади ва бунда чўл ёки шаҳар худуди эканлигини билдиради.

Фориш тумани массивларида ўртача тупроқ қатлами ҳароратининг ва иқлимнинг ўзгариши ўсимлик қопламига салбий таъсир кўрсатиши тизимли ўрганишлар натижасида аниқланди. Тадқиқот давомида ўртача NDVI қиймати Landsat 8 маълумотларига кўра 0,63 эканлиги аниқланди. Мақсадли изланишлар давомида бутун давр мобайнида кучли, салбий NDVI корреляцияси кузатилди. Корреляция коэффиценти ўртача (LST) -Land surface temperetature) тупроқ қоплами температурасидан юқори бўлган ҳудудда юқорироқ ва ўртача (LST) дан паст бўлган қисмда пастроқ.

Корреляция коэффицентининг қиймати вақт ўтиши билан камаяди. Ўргнаилаётган ҳудуднинг (LST) -NDVI муносабатлари ўсимлик дунёсига антропоген таъсирлар ҳам асосий омил бўлмоқда. Қуйида тадқиқот олиб борилган объектдан олинган масофадан зондлаш маълумотлари келтириган 2 ва 3-расмлар.



2-расм. Landsat 8 космик кемасидан 2022 йил май-июнь ойлари учун олинган тасвир




3-расм. Landsat 8 космик кемасидан 2023йил май-июнь ойлари учун олинган тасвир

Олинган натижалар бўйича 0 дан 0,15 гача бўлган қийматлар ҳайдалма бўш ерларга мос келади. 0,15 дан 0,3 гача бўлган қийматлар буталарга, 0,3 дан 1 гача бўлган қийматлар соғлом ўсимликларга мос келади (1-жадвал).


1-жадвал

NDVI қатлам хусусиятлари		
№	Қиймат диапазонлари	Синфлар
1	-1 - 0	Сув
2	0 - 0.15	Ҳайдалма бўш ер
3	0.15 - 0.3	Бута
4	0.3 - 1	Соғлом ўсимликлар

NDVI ни ҳисоблаш учун Arc Map дастурининг ўнг ойнасидаги ► Arc Toolbox ► Spatial Analysis Tools ► Map Algebra ► Rast Calculator очилади. Rast Calculator бу растри ишлов беришнинг кенг доирадаги вазифаларини бажаришга имкон беради. У бизга Landsat тасвирларини NDVI вегетатсия индексини яратиш га ёрдам беради. Rast Calculatorга формулани киритамиз ва ҳосил бўлган раст файлимизни сақлаб оламиз. ArcМарнинг чап ойнасида янги ҳисобланган тасвиримиз кўринади 4-расм.




4-расм. Қатламлар қийматини аңқилаш (2022 йил).



5-расм. Қатламлар қийматини анқилаш (2023 йил).


Чап ойнадаги ► Rast Calculator (ҳисобланган тасвир) ► Properties ► Classification ► Break Values кўрсаткичларини тўғирлаб оламиз. ► Symbol даги катакчаларни синфларга мос келадиган ранг бн бўйаймиз. ► Label га ўтиб синфларнинг номларини ёзиб чиқамиз 6-расм.




6-расм. Қатламларнинг номлари ва кўрсаткичларини аниқлаш.

Чап ойнадаги ► Rast Calculator формула ёрдамида ҳисоблаган NDVI тасвирини хусусиятларини тўғирлаб чиқамиз. Бунинг учун биз раст нинг устига сичқонча билан босиб ► Properties ► Color ramp га ўтиб NDVI тасвирига мос келадиган рангларни танлаб оламиз. Сўнгра ► Properties ► Classes га ўтиб 4 ни белгилаймиз. Чунки бизнинг мисолимизда 4 синфга ажратилган (сув, ҳайдалма бўш ер, буталар, соғлом ўсимликлар) NDVI тасвирларини таҳлил қилинди. NDVI уни турли соҳаларда қимматли воситага айлантирадиган бир қатор афзалликларга эгадир. NDVI қиммат ва кўп вақт талаб қиладиган дала


тадқиқотларисиз катта майдонлардаги ўсимликлар ҳолатини баҳолаш имконини беради. Ушбу бажарилган ишнинг асосий мақсади давомий кетма-кетлик таҳлили орқали вақт ўтиши билан ўсимликлардаги ўзгаришларни мониторинг қилишдир. Олинган натижалардан маълум бўлдики 2022 йилги маълумотларда яхши ривожланган ўсимликлар майдони 2023 йилга нисбатан сезиларли даражада юқори эканлиги аниқланди (6-7-расмлар).




7-расм. Қатламларга мос ранг танлаш.




8-расм. NDVI ёрдамида 2022 йил учун олинган маълумотлар(май-июнь).



9-расм. 2022 йил учун нормаллаштирилган ўсимлик индексининг кўрсаткичлари (май-июнь).



10-расм. NDVI ёрдамида 2023 йил учун олинган маълумотлар(май-июнь).



11-расм. 2023 йил учун нормаллаштирилган ўсимлик индексининг кўрсаткичлари (май-июнь).

Юқорида кўрсатилган икки даврдаги тасвирларда ҳам май ойида ўсимликларнинг ривожланиши июнь ойига нисбатан ижобий эканлиги маълум бўлди. Бунга сабаб биз ўрганаётган ҳудуднинг географик жойлашуви ва иқлимнинг тасири эканлиги аниқланди.

Ўсимлик дунёси кадастр объектлари кўрсаткичларини модуллаштириш ва маълумотларни интеграциялаш орқали маълумотлар таҳлил қилнди. Бугунги кунда аввал ишлаб чиқилган дастурларнинг техник формулалари такомиллаштирилиб борилмоқда ва дунёнинг ривожланган мамлакатлари қаторида бизнинг мамлакатимизда ҳам замонавий дастурлар асосида ишлашга босқичма - босқич ўтиб борилмоқда. Масофадан зондлаш маълумотлари асосида ишланган ўсимлик дунёси кадастр карталари ArcGIS дастурий таъминотида қайта ҳисобланган космик суратлар дунё стандартларга мувофиқ бу эса улардан кўпгина амалий соҳаларда ва кишлоқ хўжалиги соҳасидаги мониторинг ишларини ташкил этишда фойдаланиш имкониятини беради.

Хулоса

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки ўрганилаётган ҳудудда ўсимлик

оламининг сезиларли даражада пасайиши экотизимга зарар етказиши мумкин. Ушбу натижа унинг мувозанатини сақлашга ва ҳар хил табиий хавфларни олдини олишга ёрдам беради. NDVI ўсимликлар сифатини баҳолаш учун самарали ва кўп қиррали восита бўлиб, турли соҳаларда қарор қабул қилиш учун қимматли маълумотларни тақдим этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

Сегодня в нашей стране осуществляется широкомасштабная работа по развитию дехканского хозяйства, поиску решений, накопившихся за многие годы проблем, а также совершенствованию и закреплению на законодательном уровне соответствующих право-вых отношений. В качестве примера реализуемых мер по развитию сферы можно привести постановление Президента Республики Узбекистан "О дополнительных мерах по по-вышению эффективности пользования приусадебными землями населения" от 30 июня 2020 года, в соответствии с которым определен ряд задач, предусматривающих дальней-шее развитие сельского, дехканского и приусадебного хозяйства. Кроме того, в Послании Президента Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года отмечено, что в целях социальной поддержки сельского населения выделено 300 миллиардов сумев льготных кредитов и субсидий на развитие дехканских хозяйств и приусадебных участ-ков, семьям, занимающимся сельским хозяйством, будет выделено от 10 соток до 1 гектара земли в зависимости от возможностей и специализации каждого района, при этом необходимо повысить заинтересованность дехкан в земле, значит, настало время рассмотреть вопрос о гарантировании прав землепользования и превращении его в рыноч-ный актив.

24 февраля 2021 года под председательством Президента

Республики Узбекистан состоялось видео селекторное совещание, посвященное обсуждению приоритетных задач сельского и водного хозяйства на текущий год, в ходе которого были досконально обсуждены вопросы развития сельского хозяйства.

В целях реализации мер по целенаправленному развитию дехканского хозяйства, а также закреплению на законодательном уровне сформировавшихся за последние годы новых правовых отношений в сфере с учетом современных условий на тринадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса сенаторы одобрили Закон Республики Узбекистан "О дехканском хозяйстве", который 1 апреля 2021 года подписал Президент.

При этом может возникнуть вполне закономерный вопрос: законы о дехканском хозяйстве были приняты в 1992, 1998 и 2021 годах, так чем они отличаются и в чем необходимость принятия новых документов?

Какое-то время законодательство в рассматриваемой сфере обновлялось, что можно объяснить развитием сельского хозяйства Узбекистана, формированием новых правовых отношений, возникновением необходимости их эффективного правового регулирования с учетом совершенствования социально-экономических отношений. Главное отличие нового, принятого 1 апреля 2021 года Закона Республики Узбекистан "О дехканском хозяйстве" от старого, принятого 30 апреля 1998 года, заключается в том, что в новом законе более широко охвачены правовые отношения в области дехканского хозяйства.

Следует отдельно отметить, что предусмотренные в этом законе нормы соответствуют законодательному

опыту зарубежных стран. В частности, согласно законодательству Республики Казахстан, Чешской Республики, США, Российской Федерации и других стран государственные органы содействуют развитию деятельности и инфраструктуры местных фермерских хозяйств, ведут постоянный мониторинг социально-экономических, экологических условий сельского населения, дают разрешение на строительство сооружений и конструкций, способствующих ведению на выделенных для фермерского хозяйства землях соответствующей деятельности. Так, в соответствии со статьей 2-а Закона Чешской Республики "О сельском хозяйстве" от 1997 года государство содействует развитию деятельности предпринимателей, занятых в сфере сельского хозяйства, и формирует общий сельскохозяйственный рынок, а в статье 4-а данного документа установлено, что государство осуществляет постоянный контроль за законным занятием дехканским хозяйством предпринимателями, ведущими деятельность в сфере сельского хозяйства.

Кроме того, одобрение на тринадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса Закона Республики Узбекистан "О дехканском хозяйстве", который Президент страны подписал 1 апреля текущего года, соответствует целям и задачам в области устойчивого развития на период до 2030 года.

В результате официального вступления в силу данного закона в ближайшей и долгосрочной перспективе в сфере землепользования и правового регулирования деятельности дехканских хозяйств будут достигнуты:

во-первых, недопущение оптимизации земельных участков,

находящихся в распоряжении дехканских хозяйств;

во-вторых, оказание государственными органами содействия развитию и укреплению деятельности дехканских хозяйств;

в-третьих, самостоятельное определение дехканскими хозяйствами своей специализации, в том числе видов и объемов сель хозяйственных культур, методов их выращивания и проведения агротехнических мероприятий;

в-четвертых, получение дехканскими хозяйствами равных прав наряду с другими сельхозпроизводителями при закупке семян, минеральных удобрений и горюче-смазочных материалов, необходимых для выращивания и производства сель хозяйственных культур, а также в доступе к другим материальным ресурсам и услугам;

в-пятых, возможность заключения руководителем дехканского хозяйства прямых договоров с соответствующими организациями в установленном порядке или его участия в биржевых торгах.

Более того, принятие закона будет способствовать улучшению позиций Узбекистана в рейтинге Всемирного банка по глобальному индексу эффективности логистики, в индексе Всемирного банка "Содействие развитию бизнеса в сельском хозяйстве", которые указаны в списке основных показателей и индикаторов, достигаемых по результатам реализации Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы в разрезе стратегических приоритетов.

Одним словом, благодаря внедрению в жизнь нового закона земельные участки будут предоставляться дехканским

хозяйствам на праве аренды, будут предотвращены незаконные постройки на этих землях и незаконное изъятие у дехканских хозяйств выделенных для них земель, усилены гарантии прав на землю, достигнуты Цели и задачи в области устойчивого развития на период до 2030 года.

Таблица № 2

Прогноз состояния площади приусадебных земель по республике на 2022-2032 годы (га)

ПП	Год	Общая площадь	Земли предприятий и организаций	Орошаемые земли
1	2022	750,2	586,8	555,9
2	2023	755,6	591,1	559,8
3	2024	760,4	595,5	563,7
4	2025	763,6	599,8	567,6
5	2026	769,7	604,1	571,5
6	2027	774,5	608,4	575,4
7	2028	781,9	612,8	579,3
8	2029	787,3	617,1	583,3
9	2030	790,2	621,4	587,2
10	2031	793,4	625,7	591,1
11	2032	801,6	630,1	595,0

В Узбекистане Президентом Республики Узбекистан Ш. Мирзиёвым от 10.09.2022 года принята постановление «О дополнительных мерах по увеличению доходов населения путем поддержки создания дехканских хозяйств», в нём предусматривается в целях обеспечения продовольственной безопасности и стабильности цен на внутренних рынках, увеличения доходов населения путем поддержки его инициатив в аграрном секторе, а также расширения выращивания сельскохозяйственной продукции по принципу «Один район – одна продукция» и наращивания экспортного потенциала:

В соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан от 23 ноября 2021 года № ПП–20 «О мерах по развитию семейного предпринимательства в плод овощеводстве и виноградарстве,

увеличению доли дехканских хозяйств в сельскохозяйственно-производстве» определена передача населению в аренду на близлежащей к населенным пунктам территории:

в 2022 году – 80 тысяч гектаров посевной площади;

в 2023–2025 годах – 120 тысяч гектаров посевной площади за счет низкорентабельных земель, высвобожденных из-под хлопка и зерна, находящихся в пользовании фермерских хозяйств и кластеров, посредством открытого электронного конкурса.

В Республике Каракалпакстан и областях на территориях с хорошим водоснабжением, близлежащих к населенным пунктам, высвобожденных из-под хлопка и зерна, находящихся в пользовании фермерских хозяйств и кластеров, передаются населению в аренду посредством открытого электронного конкурса до конца 2022 года – дополнительно 20 тысяч гектаров, в общей сложности 100 тысяч гектаров посевной площади, в 2023 году – 95 169 гектаров посевной площади.

Посевные площади передаются гражданам в аренду сроком на 30 лет, в частности:

на землях с хорошим водоснабжением в Андижанской, Наманганской и Ферганской областях – от 0,15 гектара до 1 гектара, в других областях – от 0,30 гектара до 1 гектара, в Республике Каракалпакстан – от 0,30 гектара до 2 гектаров;

на маловодных землях в областях – от 0,50 гектара до 1 гектара, в Республике Каракалпакстан – от 0,50 гектара до 2 гектаров;

б) если в открытом электронном конкурсе по передаче населению посевных площадей для ведения дехканского хозяйства в 2022–2023 годах участвовал один претендент,

такой конкурс в порядке исключения считается состоявшимся;

в) разрешается сооружение теплиц из легких конструкций без установки систем отопления на земельных площадях, выделенных для ведения дехканских хозяйств, в районах с широко развитой сетью теплиц.

выбор дополнительных 20 тысяч гектаров посевной площади, передаваемой в аренду населению посредством открытого электронного конкурса в 2022 году, – в месячный срок, 95 169 гектаров посевной площади, передаваемой в аренду населению посредством открытого электронного конкурса в 2023 году, – в срок до 1 января 2023 года на землях, близлежащих к населенным пунктам и имеющих хорошее водоснабжение, а также их возврат в запас хокимиятов районов (городов) и государственную регистрацию в качестве государственной собственности;

при этом право владения или право постоянного либо срочного пользования земельным участком прекращается в случаях, определенных статьей 36 Земельного кодекса, при нерациональном использовании земельного участка, выражающегося для земель сельскохозяйственного назначения в уровне урожайности ниже нормативного в течение трех лет (по кадастровой оценке), использовании земельного участка способами, приводящими к снижению плодородия почв, их химическому и радиоактивному загрязнению, ухудшению экологической обстановки;

б) осуществление работ по государственной регистрации земельных участков, переведенных в запас, в качестве государственной собственности по заявкам хокимиятов районов (городов), финансирование этих работ – за счет средств бюджета

Республики Каракалпакстан и местных бюджетов областей;

в) разделение по лотам и выставление на открытый электронный конкурс в месячный срок земель с хорошим водоснабжением на земельных площадях, прошедших государственную регистрацию в качестве государственной собственности, в Андижанской, Наманганской и Ферганской областях – минимум по 0,15 гектара, в других регионах – минимум по 0,30 гектара, на маловодных землях – минимум по 0,50 гектара;

г) участие и принятие во внимание мнения помощников хокимов районов (городов) по вопросам развития предпринимательства, обеспечения занятости населения и сокращения бедности в махаллях в работе по выбору и разделению на лоты земельных площадей;

д) ведение разъяснительной работы среди членов дехканских хозяйств об отмене права на землю на основании Земельного кодекса и Закона «О дехканском хозяйстве» при невыполнении требований земельного законодательства и договора аренды, включая нерациональное использование предоставленного в аренду земельного участка, а также неисполнении претендентом дополнительных обязательств, взятых им для приобретения права на аренду земли посредством открытого электронного конкурса.

В целях обеспечения занятости трудоспособного населения республики сельчанам переданы 94 тысячи гектаров пахотных земель. В результате создано 424 тысячи новых дехканских хозяйств, посредством которых была обеспечена постоянная и сезонная занятость 1,2 млн. человек. С этих площадей дополнительно выращено 1,5 млн. тонн продовольствия.

В целом в аграрном секторе создано свыше 826 тысяч постоянных рабочих мест для сельского населения, особенно для женщин, молодежи и вернувшихся трудовых мигрантов.

Важнейшие задачи, вытекающие из Послания Президента парламенту и народу Узбекистана, были поставлены перед сферой сельского хозяйства в 2023 году.

- Послание главы государства стало документом большой мобилизующей и вдохновляющей силы. Президентом подчеркнуто, что «...в 2023 году мы выделим населению еще 100 тысяч гектаров орошаемых посевных площадей. За счет этого будет создано около 350 тысяч новых дехканских хозяйств», обеспечена занятость около 1,5 млн жителей сельской местности.

Ставится задача: превратить 750 тысяч новых дехканских хозяйств в субъекты предпринимательства, в настоящих собственников земли. И тогда будут решены многие социальные проблемы на селе, в первую очередь безработица и бедность. Хокимы областей и районов несут ответственность за эффективную организацию данной работы и должны регулярно отчитываться перед населением.

Не менее важны активная поддержка кооперации, развитие инфраструктуры малой и средней мощности для хранения, сортировки и переработки сельхозпродукции.

Всего в 2023 году на проекты по созданию в аграрном секторе цепочки высокой добавленной стоимости будет выделен миллиард долларов. Акцент сделан на внедрении совершенно новых механизмов финансирования, кредитования, страхования и субсидирования в аграрной сфере, разрабатываемых на основе предложений фермерских и дех-

канских хозяйств, передового международного опыта.

Будет продолжена работа по созданию законодательной базы по налаживанию ко-операции и сотрудничества в отраслях хранения, переработки и продажи сельскохозяйственной продукции. Кроме того, в каждой области в нескольких районах намечено организовать центры Агро услуг.

Кроме этого Президент Республики Узбекистан подписал Закон от 09.11.2023 г. № ЗРУ-876 «О внесении изменений и дополнения в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан, направленных на увеличение размера земельных участков, выделяемых для ведения дехканского хозяйства». В документе отмечается, что наличие широких возможностей для выращивания кормовых культур для скота в отдельных регионах страны вызывает необходимость пересмотра и увеличения установленных законодательством размеров земельных участков, выделяемых для дехканского хозяйства.

Законом вносятся изменения и дополнение в Земельный кодекс и Закон «О дехканском хозяйстве», предусматривающие увеличение максимального размера земельных участков, выделяемых для ведения дехканского хозяйства, до 5 гектаров с целью выращивания кормовых культур для скота в отдельных регионах страны.

Литература

1. «КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН» Настоящая новая редакция Конституции Республики Узбекистан принята путем всенародного голосования на референдуме Республики Узбекистан, проведенном 30 апреля 2023 года.

Закон Республики Узбекистан «О фермерском хозяйстве». Ташкент, 1998 (с дополнениями и изменениями).

2. Статистический Сборник Гос Ком Стата Республтки Узбекистан «Сельское, лесное и рыбное хозяйство за январь-декабрь 2022 года»

3. Сельское хозяйство Узбекистана. Статистический сборник. Ташкент, 2022.- 290 с.

3. . Сельское хозяйство Узбекистана Материал из Википедии — свободной энциклопедии

4. Статистический сборник «Сельское хозяйство Узбекистана. 2016-2019 гг.»

5. Закон Республики Узбекистан «О подсобном хозяйстве». Ташкент, 2021.

6. Земельный фонд Республики Узбекистан. Министерство экономики и финан-сов. Агентство кадастра. Ташкент, 2023.

7. Постановление Президента республики Узбекистан 16.12.2021 г. № ПП-54

“О дополнительных мерах по повышению эффективности использования приусадебных земель и финансовой поддержке предпринимательских инициатив населения”

8. Информационный портал Кадастрового агентства «Qishloq xo'jaligi yerlarini "E-IJARA" axborot tizimiga kiritilishi va "E-AUKSION" ga chiqarilishi to'g'risida MA'LUMOT»

9. Закон Республики Узбекистан о дехканском хозяйстве от 1 апреля 2021 г., № ЗРУ-680

10. Ашуров А.Ф. Диссертация «Совершенствование организационно-технических механизмов использования приусадебных земель (На материалах Сурхандарьинской области)», Ташкент 2023 год.

UO'K: 712.2 (575.1)

LANDSHAFTLAR BARQARORLIGINI O'RGANISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

Poyanov Javlonbek Shodmon o'g'li - Qarshi DU geografiya kafedrası tayanch doktoranti, Qarshi. O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi landshaftshunoslikda barqarorlik tushunchasi, uning landshaftlar taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlash, va barqarorlik tushunchasining ilmiy va amaliy asoslari o'rganishdan iborat. Ushbu maqolada landshaftlar barqarorligining nazariy-uslubiy masalalari yoritilgan bo'lib, barqarorlik tushunchasini o'rgangan mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, har bir olib boriladigan ishda amalga oshiriladigan tadqiqotning maqsad va vazifalari ko'rib chiqilib, ular tabiiy va antropogen landshaftlarni barqarorligini o'zaro aloqadorlikda yagona bilish tizimini hosil qiladi. Landshaftlar barqarorligining amaliy ahamiyati, barqarorlikni tashkil etuvchi komponentlarning o'rne, barqaror yoki barqaror bo'lmagan komponentlarning roli hamda uning darajasi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: landshaft barqarorligi, landshaft strukturasi, barqarorlik salohiyati, barqarorlashtiruvchi komponent, o'zini-o'zi tozalash.

Аннотация. Основная цель данной статьи состоит в изучении понятия устойчивости в ландшафтоведении, определения ее места в развитии ландшафтов, а также научных и практических основ понятия устойчивости. В данной статье освещаются теоретико-методологические вопросы устойчивости ландшафтов, анализируются мнения отечественных

и зарубежных ученых, изучавших понятие устойчивости. При этом в каждой проводимой работе рассматриваются цели и задачи проводимого исследования, которые формируют единую систему познания устойчивости природных и антропогенных ландшафтов во взаимосвязи. Широко освещается практическое значение устойчивости ландшафтов, роль компонентных сетей, составляющих устойчивость, роль стабильных или нестабильных компонентных сетей, а также ее степень.

Ключевые слова: устойчивость ландшафта, структура ландшафта, потенциал устойчивости, стабилизирующий компонент, самоочистка.

Abstract. The main purpose of this article is to study the concept of sustainability in landscape science, its place in the development of landscapes, and the scientific and practical foundations of the concept of sustainability. This article covers theoretical and methodological issues of landscape sustainability, analyzing the opinions of domestic and foreign scientists who studied the concept of sustainability. At the same time, the goals and objectives of the research carried out in each work carried out are considered, which form a single system of knowledge of the stability of natural and anthropogenic landscapes

in their interaction. The practical importance of landscape stability, the role of the component that make up the stability, the role of stable or unsustainable components as well as its level are widely covered.

Keywords: *landscape stability, landscape structure, stability potential, self-cleaning.*

Kirish

Dunyoning ko'p sonli mamlakatlarida qishloq xo'jaligi yerlari tabiiy sharoitning keskin ta'monga o'zgarishi natijasida ya'ni (antropogen omil) tufayli yer resurslarining salmog'i tashvishlanarli holda qisqarib bormoqda. Bu esa global miqyosda oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning ortishi, atrof-muhit sharoitlarining o'zgarishi va ekologik jihatdan toza qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimlariga bo'lgan talabning ortishiga olib kelayotganligi yerlardan foydalanish darajasining ortishi va landshaftlarning barqarorlik salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Ammo, ushbu yer resurslari salohiyati global iqlim isishi, yerlar degradatsiyasi, ichimlik suvlarining minerallashuv darajasining ortib borishi, bioxilma-xillikning kamayishi, kasalliklar sonining ko'payishi kabi bir qator salbiy oqibatlar natijasida kamayib bormoqda. Mazkur muammolarning yechimini sifatida Global miqyosda BMT tomonida 2015-yil 27-sentabrda qabul qilingan "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish (BR) dasturi" o'z aksini ko'rsatgan. Mazkur dasturning 15-maqsadi aynan "... ekozimlarni muhofaza qilish va tiklash, cho'llashishga qarshi kurashish, ekologik vaziyatni yaxshilash"ga oid vazifalar yechimini topishga qaratilgan.

Global miqyosda turli xil darajadagi ekotizmlarda vujudga kelgan geoekologik vaziyatni barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ilmiy asosda baholash, tavsiflash, barqaror rivojlanish umumiy parametrlarini ishlab chiqish, barqarorlik

buzilgan sharoitda vujudga kelgan salbiy oqibatlarini bartaraf etish, ularni optimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish lozimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mazkur barqarorlik tushunchasi landshaftshunoslikda ko'plab tadqiqotlar singari juda ham chuqur ma'noga egadir. Shu sababli bu soha bilan ko'plab olimlar shug'ullanishgandir. Barqaror rivojlanish, uning indikatorlari va ularning turli hududlar kesimidagi tahlili bo'yicha D.Harvey, J.Picson, E.Neef, B.Kennedi, G.Xaaze, Y.Demek, T.Nakano, G.Uayt kabi xorijlik tadqiqotchilar barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlikning inson resurslariga ta'siri I.V.May, N.V. Zaytseva, barqaror rivojlanishning nazariy masalalari, indikatorlari va geotizimlar barqarorligi N.A.Solnetsev (1949, 1960, 1973), K.N.Dyankov (1974), S.A.Rakita (1980), M.A.Glazovskaya, A.A.Krauklis, V.S.Probrajenskiy (1983, 1986), Z.V.Dashkevich (1984), T.V.Zvankova (1987), D.L.Armand(1989), N.F.Reymers (1990), I.S.Zonn, A.G.Iasachenko (2003), S.G.Pokrovskiy (2001), kabi MDH olimlari, respublikamizda esa Sh.S.Zokirov (1999), A.A.Rafiqov(2000), A.N.Nigmatov, A.Raxmatullaev, hamda uning tabiiy georafik jihatlari bilan A.A.Abulqosimov, L.A.Alibekov, P.Baratov, N.I.Sabitova, S.B.Abbasov, I.Q.Nazarov, A.Nazarov. (1994), A.N.Xodjimato (2016, 2023), V.A.Rafiqov (2006), Z.A.Amanbayeva (2019), S.I.Abdullayev, M.G.Nazarov (2020), Sh.M.Sharipov (2022), R.X.Allayarov (2023)kabi olimlar bo'lsa uning itimoiy-iqtisodiy jihatlari A.S.Soliev, N.Q.Komilova va respublikamizning boshqa olimlari tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mazkur maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil. manbalar bilan ishlash, geografik taqqolash geografik qiyoslash, geografik ekstrapolyatsiya, geografik

umumlashtirish, geografik baholash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Ishning oldiga quyilgan vazifalari. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi landshaftshunoslikda barqarorlik tushunchasi, uning landshaftlar taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlash, va barqarorlik tushunchasining ilmiy va amaliy asoslarini takomillashtirishdan iborat bo'lsa uning asosiy vaziflari esa quyidagilardan iborat:

1) barqaror tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish;

2) landshaftlarning barqaror rivojlanishida landshaftni tashkil qiluvchi komponentlarning rolini aniqlash va ularni tizimli tahlil qilish ;

3) landshaft komponentlari bo'yicha geotizimlarda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi optimal chora-tadbirlarni belgilash kabi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi

Barqarorlik termini landshaftshunoslikning asosiy tushunchalaridan biridir. Barqarorlik muammosi landshaftshunoslikda amaliy ahamiyatga ega egadir. Bu tushuncha landshaftlar inson faoliyati natijasida qishloq xo'jalik yerlari uchun foydali bo'lgan ba'zi xususiyatlarini yo'qotishi bilan bog'liq bo'lib qoldi.

Landshaftlarning barqarorligi va ularning o'zini tozalash va tiklash qobiliyati tabiatdan foydalanishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Barqaror landshaft resurslaridan foydalanish chog'ida o'z tarkibini o'zgartirmay, bunga uning o'z-o'zini tozalash qobiliyatlari asosida tarkib topadi.

Landshaftlar barqarorligiga (Охрана ландшафтов, 1982) nomli izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berib o'tilgan. Landshaftning barqarorligi-bu geosistemaning o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy sharoitida uning tuzilishi va ishlash xususiyatini saqlab qolish xususiyatidir (Охрана ландшафтов,

1982) . Landshaftlar barqarorligi haqida ko'plab olimlar [10; 6-7 b.,7.,18;77-b.,2; 24-b.]turlicha fikrlar bildirishgan (1-chizma).

“Landshaft barqarorligi” tushunchasi ko'p omilli bo'lib, unda ko'plab jihatlarni hisobga olishni talab qiladi, jumladan: landshaft komponentlarining holati va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik; antropogen ta'sir natijasida shakllangan landshaftlarning xilma xilligi va sifati; landshaftning shakllanishi vaqti va ularda yuzaga kelayotgan o'zgarish jarayonlari va boshqalar [1; 26-b.].

S.A.Rakitaning (1980) ta'kidlashicha ... barqarorlik deb landshaftlarning bevosita o'lchanadigan xususiyati yoki tomonlarini tushunmaslik kerak. Barqarorlik murakkab sifat kategoriyasidir. Uning ko'p qirrali ekanligi landshaftlardagi o'zaro aloqalar va jarayonlarning murakkabligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun barqarorlikni o'rganish va baholashda turlicha yondoshish mumkinligi tabiiydir.

Geotizimlar yoki landshaftlarning barqarorligi haqida adabiyotda berilgan izohlarning taxlili yana shuni ko'rsatadiki, landshaftlar barqarorligi deganda, ularning ikki xil xususiyatlari, ya'ni:1) landshaftlarning tashqi omillar ta'siriga qaramay o'z funktsiyasini bajarish qobiliyatini saqlab turishi va 2) tashqi omillar ta'siri tugagach landshaftlarning yana avvalgi strukturasi qaytish xususiyatlari chalkashtirib yoki qo'shib yuborilayapti. Shu ma'noda landshaftlarning geokimyoviy barqarorligi haqida so'z yuritgan N.P.Solntsevaning (1982) fikrlari e'tiborga loyiqdir. Uning fikricha, tabiiy tizimlarning barqarorligi bir xil barqarorlik hisoblansa, tizimlarning o'z normal funktsiyasini bajarish qobiliyati ikkinchi xil barqarorlikka kiradi. Ushbu muallif barqarorlikni tabiiy tizimlarning zamonda o'z funktsiyalari tavsifini belgilovchi o'ziga xos xususiyatlari deb

qaraydi. N.P.Solntsevaning yozishicha landshaftlarning morfologik, geokimyoviy, geofizikaviy xususiyatlarini hisoblash mumkin bo'lgan holda, landshaftlarning barqarorligini bevosita o'lchash imkoniyati bo'lmas ekan. Chunki landshaftlarning barqarorlik xususiyati, odatda faqat ularga biror tashqi omil ta'sir etgandan keyin namoyon bo'ladi [18;77-b.].

Barqarorlikni uch tarkibiy munosabatlar orqali aniqlash mumkin, ya'ni me'yoriy faoliyat, buzilishdan keyingi tiklanish va qaytarilmas o'zgarish holati hisoblanadi [10; 10-232 c.].

Geotizimlarning barqarorligi, bu tashqi ta'sirdan buzilishlarsiz foydalanish, ya'ni oddiydan boshqa holatga o'tish emas, balki unda tizim o'zga bir tizimga aylanadi [12; 5-47 c.].

Barqarorlik geotizimlarning har qanday holatda ham turli ta'sirlar natijasida tuzilmasini saqlash qobiliyatiga ega. Tuzilma buzilgandan so'ng avvalgi yoki unga yaqin holatga qaytishi, ya'ni geotizimlarning "o'z-o'zini tiklashi"dir [6; 211-218 c.].

Tabiiy komplekslarning barqarorlik salohiyati ularning ichki tabiiy xususiyatlari bilan (morfogenetik harxilligi, o'zini-o'zi tozalash imkoniyati va boshqalar) tashqi omillar bog'liqligini (stixiyali va favqulodda tabiiy jarayonlar) aniqlaydi [19; 3-192 c.].

Barqarorlikni barcha mexanizimlarini to'rt guruhga ajratish mumkin: 1) tizim holatini saqlovchi (muvofiqlashtirish); 2) faoliyat (funktsiya) turlarini saqlovchi; 3) tizim (struktura) ni saqlovchi; 4) tizim harakati yo'nalishi (traektoriya)ni saqlovchi [4; 81-93 c.].

Landshaftlarning barqarorlik darajasi landshaftlarning morfologik tuzilish darajasiga mutanosibdir. Fatsiyalar tashqi ta'sirlarga eng kam chidamli va eng kam bardoshlilik xususiyatiga ega bo'lgan morfologik birlikdir. Landshaftlar faoliyatiga har qanday ta'sir jumladan

antropogen bosimga bardosh bera oladigan tizim sifatida qabul qilish lozim.

Biroq tabiiy majmualarning tuzilmaviy – tadrijiy (dinamik) holati, ularning o'zgarish tendensiyasi, landshaftlarning morfologik tuzilmasi, o'zlashtirish darajasi va boshqa omillar e'tiborga olinmog'i lozim. Landshaftlarning barqarorligi komponentlar tuzilmasining o'zaro aloqalari, o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'siri xarakteri bilan belgilanadi.

Landshaftlarning barqarorligi ko'pincha uning tuzilmasining murakkabligi bilan bog'liq: tuzilma qancha murakkab bo'lsa, landshaftlar barqarorligi shuncha yuqori va aksincha. Landshaftlar barqarorligi ko'p hollarda tuproq va gruntning fizik-kimyoviy xossalriga bog'liq bo'ladi, bu jihat joylarda hal qiluvchi omil hisoblanadi [17; 29-b.].

Landshaftlarning barqarorigini o'rganishda komponentlarning o'zidagi barqarorlikni, landshaft tashkil etuvchi omillarning barqarorligini bilishning ahamiyati kattadir. Komponentlardan birortasining barqarorligi kuchsiz bo'lsa landshaft ham shunchalik beqaror va tashqi kuchlar ta'siriga beriluvchan bo'ladi yoki landshaftlarning barqarorligi uning komponentlarining hamda komponentlar orasidagi aloqadorliklarning barqarorligi bilan belgilanadi deb aytish mumkin. Ammo turli komponentlarning turlicha barqarorlikka ega bo'lishi tabiiydir [18; 79-b.].

tiklanadi. Relyef va tog' jinslari eng barqaror tarkibiy qismlardan biridir, ammo buzilish holatida u tiklana olmaydi va shuning uchun uning buzilishi (asosan denudatsiya natijasida) landshaftda qaytarilmas o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun relyef va tog' jinslarining barqarorligi landshaft barqarorligining muhim shartidir, ammo tizimdagi tortishish muvozanatini saqlaydigan va denudatsiyani oldini oladigan asosiy barqarorlashtiruvchi omil o'simlik qoplamidir [5; 75-80 c.].

I.S.Zonning keltirishicha ... biogen komponentlarni tez o'zgaruvchan va barqarorligi kuchsizdir. Gidroiqlimiy komponentlarni o'rtacha barqarorlikka ega va tog' jinslari bilan rel'ef esa eng barqaror deb xisoblaydi. Tog' jinslari va rel'efning ayrim komponentlarga nisbatan kam o'zgaruvchan va eng barqaror ekanligi haqidagi fikrlarni boshqa ko'pgina landshaftshunoslarning ishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

V.S.Preobrajenskiy (1986) barqarorlikni o'rganish uchun: 1) u yoki bu tashqi omil (ayniqsa, texnogen omil) ta'siri jadalligining o'zgarishi asosida landshaftlar holatini miqdori va sifat o'zgarishlarini aniqlab va ta'riflab berish; 2) landshaftning (yoki tizimning) bir holatdan boshqa bir holatga o'tishini farq qila bilish; 3) tashqi ta'sir jadalligini o'lchay bilish; 4) landshaftlar holatining o'zgarishini landshaftlarga tushadigan ta'sir yuki bilan nisbatlay bilish kerakligini yozadi [18; 83-b.].

Tabiiy landshaftlarning barqarorligi, S.G.Pokrovskiyning (2001) fikriga ko'ra, antropogen ta'sirning har xil turlariga nisbatan uch xil bo'lishi mumkin: fizik, kimyoviy va biologik. Fizik barqarorlik dinamik muvozanatning asosi sifatida, birinchi navbatda, landshaftga kiradigan tashqi energiya oqimi bilan belgilanadi hamda vaqt o'tishi bilan uning xususiyatlari tebranishlarining barqarorligi landshaft barqarorligini hosil qiladi.


Tebranishlar amplitudasining oshishi landshaftlarning alohida tarkibiy qismlari ichidagi mavjud muvozanatni va ular orasidagi tashqi munosabatlarni buzadi. Shuning uchun barqaror fizik "holat" doimiy energiya oqimi bilan emas, balki vaqt o'tishi bilan ushbu oqimning tebranishlari doimiy bo'lgan tabiiy landshaftlarga nisbatan saqlanadi. Kimyoviy barqarorlik moddiy dunyoni tashkil etuvchi moddalarning yo'nalishi, darajasi va konversiya tezligiga bog'liq. Landshaftlardagi bunday jarayonlar ularning tarkibi va tuzilishidagi o'zgarishlar bilan birga bo'lishi mumkin (yoki bo'lmasligi mumkin). Bu yana havo, suv, tirik organizmlar, tuproqlarning kimyoviy parametrlari vaqtidagi tebranishlarning barqarorligi, shuningdek landshaft tarkibiy qismlari o'rtasidagi "kimyoviy almashinuv" ning barqarorligi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Biologik barqarorlik ham landshaftlarga xosdir. Shuni ta'kidlash kerakki, bu alohida komponentlarga emas, balki populyatsiyaga tegishli va uning ahamiyati fizik va kimyoviy jihatdan kam emas [11].

Sh.S. Zokirov (1999) ko'plab olimlarning landshaftlar barqarorligi haqidagi fikrlarni tahlil qilgan holda quyidagi fikrni ham bildirib o'tgan. Landshaftlarning barqarorligini o'rganishda ular qaysi muhitda (masalan, qaysi tabiat zonasida) shakllanganligi ham albatta e'tiborda bo'lishi kerak. Bunda o'sha muhitdagi hal qiluvchi omillardan issiqlik va namlikning optimal nisbatda bo'lishi, ya'ni me'yorida bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Issiqlik yoki namlikning yetarli darajada bo'lmasligi landshaft barqarorligini izdan chiqarishi yoki kuchsizlantirishi mumkin. Hatto, landshaftlardagi barqarorlikni ta'minlab turuvchi komponent-o'simlik hamda unga bog'liq holda hayvonot barqarorligi ham aynan shu omil-issiqlik va namlik omili bilan belgilanadi [18].

Barqarorlik mutlaq barqarorlikni, ya'ni landshaftlardagi harakatsizlikni anglatmaydi. Aksincha, u ma'lum bir o'rtacha holat atrofida tebranishlarni o'z ichiga oladi, ya'ni doimiy muvozanatda bo'ladi. Agar landshaft ko'lam qanchalik katta bo'lsa, kuchli tashqi ta'sirlar natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qaytarilmas transformatsiyaga duchor bo'lish xavfi shunchalik kam bo'ladi deb hisoblash mumkin.

K. N. Dyakonovning (1991) fikricha, barqarorlik muammosini mukammal o'rganish uchun beshta vazifani izchil o'rganish orqali erishish mumkin (2-chizma).

Har bir landshaft ma'lum bir tabiiy muhitga moslashgan bo'lib, shu muhit doirasida u barqarorlik xususiyatiga ega. Landshaftlarning texnogen bosimlarga chidamliligi mexanizmida alohida komponentlar, jarayonlar yoki xususiyatlarning roli noaniq va hatto qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, texnogen kimyoviy ifloslanishga qarshi turish nuqtai nazaridan intensiv oqim va shamolning yuqori tezligini qulay ichki omillar deb hisoblash kerak. Ammo xuddi shu omillar eroziya va deflyatsiyani shakllantiradi. Kimyoviy va mexanik bosimga chidamlilik mezonlari asosan bir-birini istisno qiladi. Hatto o'simlik qoplam kabi umume'tirof etilgan barqarorlik omili ham kimyoviy ifloslanish paytida salbiy rol o'ynashi mumkin, chunki u zararli birikmalar va elementlarni to'plashini unitmaslik kerak. Landshaftlarning texnogen ta'sirlarga barqarorligini o'rganishda landshaft-geografik qonuniyatlarga, landshaftlarning guruhlari va tasnifga ajratish lozim.



2-rasm. K.N.Dyankov taklif etgan barqarorlik muammosini o'rganishning bosqichlari

Tabiiy majmualarining o'z-o'zini tozalash va qayta tiklash qobiliyati relyef shakli, eroziya bazisining chuqurligi va nishablik, tog' jinslarining suv o'tkazuvchanligi, tuproqlar mexanik tarkibida qum zarrachalarining miqdori, atmosfera yog'inlari miqdori va ularning yil bo'yicha taqsimlanganligi, o'simlik olamining xilma-xilligi va o'rmonlar bilan qoplaganligiga to'g'ri proporsionaldir [3; 106-b.].

N.F.Reymersning (1990) ta'kidlashicha ekologik barqarorlik tushunchasiga ekotizimning ichki abiotik va biotik atrof-muhit omillariga, shu jumladan antropogen ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati deb, ta'rif berilgan [15; 495-c.].

A.A.Nazarov fikricha ekologik muvozanat barqarorligi ko'pincha hududning hududning katta-kichikligiga bog'liq, Fatsiya va oddiy urachishda muvozanat nisbatan tez muddatlarda buzilishi aniqlangan, landshaft hududida bu hodisa nisbatan sekin, tabiiy geografik rayonda esa uzoq vaqt mobaynida astalik bilan kuzatiladi. Uning fikricha biologik xilma-xillik ekotizimlarning barqarorligini oshirishdagi asosiy omillardan biridir. Chunki, o'simliklarning turlicha bo'lishi ichki va tashqi ta'sirlarga tegishli javob berish, umumiy biologik taraqqiyotni ta'minlash, ekologik vaziyatni mustahkamlash, ekotizimlarni o'z-o'zini

tozalash hamda boshqarishni yo'lga solishga imkon beradi [10; 7-b.].

Ekologik barqarorlik deganda, ekotizimlarning tashqi omillar ta'sirida o'z strukturasini va funktsional xususiyatini saqlay olish qobiliyati tushiniladi.

Avvalo ekologik rivojlanishni barqarorlashtirish lozim, so'ngra uning negizida iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish maqsadga muvofiq. Agarda tog' va tog'oldi majmualarida ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishilsa, u holda tekislikda shu jihatdagi taraqqiyot barqarorligida ustunlikka yetishish oson kechadi [14; 96 – 98 b.].

Sh.M.Sharipov (2022) ham o'z ilmiy ishlarida landshaftlarlar barqarorligini baholagan. Bunda landshaftlarning barqarorligini tavsiflovchi sifat va miqdor ko'rsatkichlariga asosan barqaror, nisbatan barqaror, o'rtacha barqaror, kam barqaror, yetarli barqaror emas deb ta'kidlagan holda Toshkent viloyati landshaftlarining 50 ta landshaft xillarini jami 8 xil me'zon bo'yicha barqarorligini aniqlagan [16; 146-147 b.].

Cho'l landshaftlarida kuchli quyosh energiyasi organik ifloslangan moddalardan uzini tezda o'z – o'zini tozalashga yordam beradi, ammo namlik yetishmasligi tufayli texnogen chiqindilarning chiqib ketishi sekinlashadi va bu mahsulotlar osongina to'planadi. Cho'l o'simliklari og'ir metallarga chidamli va ularni to'plashga qodir, shu bilan ularning shu joydagi landshaftlarda to'planishiga yordam beradi. O'simliklarning tashqi ta'sirlarga nisbatan ancha zaifligi shu joydagi landshaftlarda chorva mollarni o'tlatish yoki transport vositalarining harakatlanishi va boshqa antropogen jarayonlar natijasida hosil bo'lgan mexanik yuklarga nisbatan beqarorligini keltirib chiqaradi. Tuproq va yer osti suvlarining mineralizatsiyasining esa meyoriy ko'rsatkichlardan keskin ortib ketisa, sug'orildigan yerlarda sug'orishda

beqarorlik omilini keltirib chiqarishi tabiiy holdir.

Landshaftlar barqarorligi unga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirida tuzilishini saqlab qolish yoki buzilishdan keyin avvalgi holatiga qaytish qobiliyatini anglatadi. Landshaft barqarorligi muammosi ortib borayotgan texnogen "bosim" tufayli muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Landshaft, har qanday geosistema singari, shubhasiz ma'lum chegaralar ichida barqarorlikka ega. Biroq, bu chegaralar hali aniqlanmagan va barqarorlik mexanizmi o'rganilmagan. Landshaft barqarorligi uning faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar ta'sirida tuzilishini saqlab qolish yoki buzilishdan keyin avvalgi holatiga qaytish qobiliyatini anglatadi [5; 75-80 c.].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Demak tabiiy va antropogen landshaftlarning barqarorligini farqlash maqsadga muvofiqdir. Tabiiy landshaftlarning barqarorligi deganda ularning tashqi (tabiiy va antropogen) ta'sirlar ta'siri ostida o'z tuzilishini saqlab qolish qobiliyati tushuniladi. Bunday holda, antropogen yukni olib tashlash, o'z-o'zini tartibga solish tufayli landshaftning deyarli avvalgi holatiga qaytishiga olib keladi. Tabiiy-antropogen landshaftlarning barqarorligi ko'pincha ularning tashqi ta'sirlarni boshdan kechirish, belgilangan chegaralarda ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarni (resurslarni ko'paytirish, qayta ishlab chiqarish va boshqalar) bajarishni davom ettirish qobiliyati deb ataladi. Bunday tizimlarning barqarorligi boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish jarayonlarining kombinatsiyasi bilan ta'minlanadi.

Sug'oriladigan hududlardagi landshaftlarda o'zgarishini tartibga solish, sug'oriladigan yerlarda kimyoviy o'g'itlar, pestitsidlar va gerbitsidlardan ortiqcha foydalanish ko'pincha suvning ifloslanishiga olib keladi, shuningdek bu jarayonlar kulamini ortib borayotganligi

sugʻoriladigan yerlardagi landshaftlarning barqarorligiga salbiy koʻrsatayotganligi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev.S.I., Nazarov.M.G., Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geoeologik holati. Monografiya. Q., 2020.-144 b.

2. Allayorov R.X. Janubi-gʻarbiy Hisor togʻ va togʻoldi landshaftlaridan foydalanish va geoeologik vaziyatni optimallashtirish// G.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss.. –T., 2023. – 177 b.

3. Amanbayeva Z.A. Togʻ tabiatidan foydalanish va ekologik muvozanat // Orol havzasi geoeologik muammolari: ilmiy gʻoyalar, tadqiqotlar, innovatsiyalar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami. – T., 2019. – B. 104 – 107.

4. Арманд Д.Л. Механизмы устойчивости геосистем // Факторы и механизмы устойчивости геосистем. – М., 1989. -С. 81-93.

5. Бакарасов В.А. Экология ландшафтов. Минск: БГУ, 2010.-100 с.

6. Дашкевич З.В. К проблеме устойчивости геосистем //Известия Всесоюз. геогр. об-ва. т.116, -вып.3. – М., 1984. -С. 211-218.

7. Дьяконов К.Н. Геотехническая система – методологическая база географического прогноза. Проблемы взаимодействия общества и природы. М., 1974.

8. Исаченко А.Г. Введение в экологическую географию.-СПб.:Изд-во С-Петербур. Ун-та,2003.-192 с.

9. Крауклис А.А. Проблемы экспериментального

ландшафтоведения. –Новосибирск: Наука, 1979. -232 с.

10. Nazarov.A.A. Tabiatdan foydalanishning ekologik-geografik asoslari (Namangan viloyati misolida)// G.f.d. ilm. dar. olish uchun taqdim et. avtoreferat diss.. –T., 2024. –38 B.

11. Покровский С.Г. Состояние геосистем и устойчивость регионального развития // Вестник МГУ, вып. 5, Т-1. Сер. геогр. –М., 2001.

12. Преображенский В.С. Проблемы изучения устойчивости геосистем. -М.: Наука, 1983. -47 с.; 5-47 с.

13. Rafiqov A.A. Geoeologiya asoslari.-T.: Universitet, 2000.-86 b.

14. Rafiqov V.A. Togʻ va togʻoldi hududlarining ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishi: muammolar, yechimlar va takliflar // OʻzGJ VII sezdi materiallari. – T., 2006. – B. 96 – 98.

15. Реймерс Н.Ф. Природопользование.Словарь-справочник. – М.: Мысль, 1990. – 637 с.

16. Sharipov.Sh.M.. Toshkent viloyatining landshaft xilma-xilligini saqlash va geoeologik vaziyatini yaxshilash masalalari // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss.. –T., 2022. –315 B.

17. Xodjimatrov A.N. Vohalar landshaftlari. Monografiya. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 116 b.

18. Zokirov Sh.S. Kichik hududlar tabiiy geografiyasi –T.: Universitet, 1999.- 120 b.

19. Звонкова Т.В. Географическое прогнозирование (учебные пособие для студентов ВУЗов). – М.: Высшая школа, 1987. - 192 с.

GEOAXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA ELEKTR TA’MINOTI INFRATUZILMASI BOSHQARUVINI OPTIMALLASHTIRISH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Aziz Inamov – “TIQXMMI” MTU dotsenti

Kamola Rakhmatullayeva – “TIQXMMI” MTU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Elektr infratuzilmasini boshqarish energiya taqsimlash tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada biz ArcGIS Online yordamida boshqaruv panelini ishlab chiqish va joriy etish orqali Samarqand viloyatida elektr energiyasi infratuzilmasini boshqarishga kompleks yondashuvni taqdim etamiz. Boshqaruv paneli manfaatdor tomonlar uchun elektr tarmog'ining turli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va kuzatish uchun markazlashtirilgan platforma bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv panelining asosiy xususiyatlari tuman va tumanlar bo'yicha filtrlarni, shuningdek, nomi va kuchlanish darajasi bo'yicha muayyan elektr liniyalarini tanlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Bu foydalanuvchilarga o'z tahlillarini mintaqadagi muayyan qiziqish sohalariga yo'naltirish imkonini beradi, taqdim etilgan ma'lumotlarning aniqligi va dolzarbligini oshiradi. Ushbu boshqaruv panelining joriy etilishi Samarqand viloyatida elektr energiyasi infratuzilmasini boshqarish amaliyotini modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim qadamdir. GIS texnologiyasi va ArcGIS Online quvvatidan foydalangan holda manfaatdor tomonlar elektr infratuzilmasi ma'lumotlariga kirish, tahlil qilish va talqin qilish uchun qulay va intuitiv vositaga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: ArcGIS Online, jihozlar paneli, elektr infratuzilmasini boshqarish, Samarqand viloyati, GAT texnologiyalari, energiya taqsimlash tizimlari.

Аннотация: Управление энергетической инфраструктурой играет решающую роль в обеспечении надежности и эффективности систем распределения электроэнергии. В этой статье мы представляем комплексный подход к управлению электроэнергетической инфраструктурой Самаркандской области путем разработки и внедрения панели управления с использованием ArcGIS Online. Панель мониторинга служит централизованной платформой для заинтересованных сторон для просмотра, анализа и мониторинга различных аспектов энергосистемы. К основным возможностям панели управления относятся фильтры по районам и районам, а также возможность выбора конкретных линий электропередачи по названию и уровню напряжения. Это позволяет пользователям сосредоточить свой анализ на конкретных областях, представляющих интерес в регионе, повышая точность и актуальность предоставляемой информации. Внедрение данного пульта управления является важным шагом на пути модернизации практики управления электроэнергетической инфраструктурой Самаркандской области. Используя технологию, ГИС и возможности ArcGIS Online, заинтересованные стороны получают удобный и интуитивно понятный инструмент для доступа, анализа и

интерпретации данных электрической инфраструктуры.

Ключевые слова: ArcGIS Online, панель оборудования, управление электроинфраструктурой, Самаркандская область, технологии ГИС, системы распределения энергии.

Abstract: Power infrastructure management plays a crucial role in ensuring the reliability and efficiency of power distribution systems. In this article, we present a comprehensive approach to electricity infrastructure management in Samarkand region by developing and implementing a control panel using ArcGIS Online. The dashboard serves as a centralized platform for stakeholders to view, analyze and monitor various aspects of the power grid. The main features of the control panel include filters by district and district, as well as the ability to select specific power lines by name and voltage level. This allows users to focus their analysis on specific areas of interest in the region, increasing the accuracy and relevance of the information provided. The introduction of this control panel is an important step towards the modernization of electricity infrastructure management practices in Samarkand region. By leveraging GIS technology and the power of ArcGIS Online, stakeholders will have a convenient and intuitive tool to access, analyze and interpret electrical infrastructure data.

Keywords: ArcGIS Online, equipment panel, electric infrastructure management, Samarkand region, GIS technologies, energy distribution systems.

Kirish. Elektr infratuzilmasini samarali boshqarish energiya taqsimlash tizimlarining ishonchliligi, samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda, xususan, Samarqand kabi elektr energiyasi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda, muhim xizmatlarni ko'rsatishda va umumiy hayot sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan mintaqalarda juda muhimdir

[1]. Biroq, uning ahamiyatiga qaramay, elektr infratuzilmasini boshqarishning an'anaviy yondashuvlari ko'pincha zamonaviy elektr taqsimlash tarmoqlariga xos bo'lgan rivojlanayotgan muammolar va murakkabliklarni hal qilish uchun zarur bo'lgan murakkablik va noziklikka ega emas [2]. Samarqand viloyatining o'ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashtirilgan keng qamrovli boshqaruv tizimi mavjud emasligi infratuzilma faoliyatini optimallashtirish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish uchun innovatsion yechimlarga bo'lgan dolzarb ehtiyojni ko'rsatadi. Ushbu talabga javoban, ushbu maqola ArcGIS Online yordamida boshqaruv panelini ishlab chiqish va joriy etish orqali Samarqand viloyatida elektr energiyasi infratuzilmasini boshqarishga yangicha yondashuvni taqdim etadi [3]. ArcGIS Online fazoviy ma'lumotlar va xaritalarni yaratish, tahlil qilish va almashish qobiliyati bilan mashhur bo'lgan veb-ga asoslangan geografik axborot tizimi (GIS) platformasi hisoblanadi [4].

ArcGIS Online-ning ko'p qirrali funktsiyalaridan foydalangan holda, bizning yondashuvimiz manfaatdor tomonlarga elektr tarmog'ining turli jihatlarini vizualizatsiya qilish, tahlil qilish va monitoring qilish uchun murakkab, ammo foydalanuvchilarga qulay vositani taqdim etish orqali an'anaviy boshqaruv amaliyotlari cheklovlarini engib o'tishga qaratilgan [5], [6]. Bizning asboblarni panelimizning o'ziga xos xususiyati uning sozlanishi filtrlar va dinamik vizualizatsiya vositalari bilan ta'minlangan interaktivligi va moslashuvchanligidadir. Ta'kidlash joizki, filtrlarni tuman, tuman va kuchlanish darajasi bo'yicha amalga oshirish foydalanuvchilarga o'z tahlillarini muayyan geografik hududlar va infratuzilma xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi va shu bilan olingan tushunchalarning dolzarbligini va nozikligini oshiradi. Ko'pincha statik,

oldindan belgilangan parametrlarga tayanadigan an'anaviy boshqaruv yondashuvlaridan farqli o'laroq, bizning asboblar paneli manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va ustuvorliklari bilan rivojlanadigan dinamik va moslashuvchan interfeysni taklif qiladi [7], [8].

Bundan tashqari, boshqaruv panelining dinamik chiziqli diagrammalarni birlashtirishi vizualizatsiya tajribasini yanada boyitib, manfaatdor tomonlarga mintaqadagi elektr infratuzilmasining fazoviy taqsimoti va xususiyatlari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Tanlangan elektr liniyalarining uzunligini tasavvur qilish, texnik xizmat ko'rsatish ustuvorligini aniqlash, xavflarni baholash va tarmoqni optimallashtirish bo'yicha qaror qabul qilishni osonlashtirishi ayniqsa diqqatga sazovordir [9], [10], [11].

Ushbu boshqaruv panelining ishlab chiqilishi va joriy etilishi Samarqand viloyatida elektr energetikasi infratuzilmasini boshqarish sohasida sezilarli yutuqlarga erishilganidan dalolat beradi. GIS texnologiyasi va ArcGIS Online kuchidan foydalangan holda, bizning yondashuvimiz an'anaviy boshqaruv paradigmalardan ustun bo'lib, manfaatdor tomonlarga elektr infratuzilmasi ma'lumotlariga kirish, tahlil qilish va sharhlash uchun murakkab, ammo intuitiv platformani taklif etadi. Bundan tashqari, boshqaruv panelining interaktiv xususiyatlari manfaatdor tomonlarning ishtiroki va hamkorligiga yordam beradi, shaffoflik, hisobdorlik va mintaqaning elektr energiyasi sohasida muammolarni jamoaviy hal qilishga yordam beradi [12].

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish, infratuzilma samaradorligini optimallashtirish va elektr energiyasini taqsimlash kabi muhim infratuzilma tarmoqlarida manfaatdor tomonlarning ishtirokini rag'batlantirishda


Mazkur maqolaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ilmiy adabiyotlarni tahlil etish, dala tadqiqoti, taqqoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, olingan statistik ma'lumotlarni

umumlashtirish orqali bir qator usullardan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Barcha landshaftlar turli xil dinamik fizik-kimyoviy xossalari asosiy omillari deb hisoblash mumkin, shu nuqtai nazardan olib qaraganda ular barqarorlik holatda bo'lishi bilan bir qatorda landshaftlarning dinamik muvozanati ham boshqa energiya oqimlarining kirib borishi bilan doimiy ravishda o'zgarib boradi. Shu sababli landshaftlarda tashqi va ichki muhit o'rtasidagi modda va energiyaning doimiy aloqalar mavjuddir.

V.Sochavaningning (1974) fikricha dinamika – bu moddiy jismlarning unga ta'sir etiladigan kuchlar natijasidagi harakatdir. Landshaftlarni tashkil etuvchi geotizimlarda muttasil harakatlar sodir bo'ladi, bular: geotizimlarning faoliyati jarayonida (mavsumlar va yildan-yilga bo'ladigan o'zgaruvchi) yoki qandaydir boshqa ta'sir etuvchi omillar (suv toshqinlari va boshqalar) bo'lishi mumkin. Favqulotdagi o'zgarishlar komponentlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida ro'y beradi. "Dinamika" tushunchasiga (va bu juda muhim) landshaftlarda insonning ta'sirida kelib chiqadigan o'zgarishlar ham kiradi [3; 7-8 b.].

"Охрана ландшафтов" nomli izohli lug'atda dinamika so'zi yunonchada "dynamis" so'zidan olingan bo'lib kuch degan ma'noni anglatgan holda va shu bilan birgalikda landshaft dinamikasi deganda bir invariantga bo'ysungan o'zgaruvchan holatdagi harakati tushuniladi. Landshaftning dinamikasiga landshaftning ma'lum strukturasi mavjud bo'lib turgan vaqt mobaynidagina ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarnigina kiritish mumkin. Agar ichki va tashqi jarayonlar ta'sirida landshaftning ichki tuzilishiga putur etsa va u o'zgarsa bunday o'zgarishlarni V.B.Sochava evolutsion o'zgarish deb ataydi. Boshqacharoq qilib aytganda landshaftdagi dinamik o'zgarish

bir invariant doirasida bo'lganligi uchun landshaftning tubdan sifat jihatdan o'zgarishiga olib kelmaydi [3;103-b.].

S.V.Kalesnik landshaftlar dinamikasi landshaftning strukturaviy xususiyatining fasliy ritmikasi deb ta'riflagan. Ammo, uning strukturasi tashkil etuvchi morfologik birliklarning rivojlanish suratlari bir-biridan farqlanadi. Misol uchun, fatsiyalarning o'zgarishi sekinroq, joy tiplari esa undan ham sekinroq o'zgaradi. Xuddi shunday komponentlar ham har xil tezlikda o'zgaradi. Landshaft komplekslarning o'simlik qoplami tez o'zgaruvchanlik xarakterga ega bo'lsa, relyefi bilan tuproq qoplami ancha sekin o'zgaradigan komponentlardir [2].

Sug'oriladigan hududlardagi landshaftlarga ta'sirining xilma-xilligi ularning issiqlik, suv, geokimyoviy rejimlarining o'zgarishi va moddalarning harakatlanishida namoyon bo'ladi. Ushbu ta'sir sababli, tuproq qoplami o'zgaradi, unda o'ziga xos dinamik ritm bilan oldingi muvozanat buziladi. Bu tizim ichidagi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Sug'oriladigan hududlardagi landshaftlarida quyidagi davriy dinamikalar ajratish mumkin.

1. Sutkalik dinamika. Kecha va kunduzning o'zgarishi kun davomida harorat, namlik va havo harakatining o'zgarishiga olib keladi. Yorug'lik va ob-havo sharoitlarining o'zgarishi landshaft biotasining kunlik dinamikasini belgilaydi. Kundalik ritmik landshaftlarda sodir bo'ladigan geomorfologik jarayonlarga ham xosdir.

Mavsumiy dinamika

Bu yilning o'zgaruvchan va bir-biriga ta'sir qiladigan, quyosh energiya balansining yillik yo'nalishini kuzatib boradigan ma'lum mavsumiy bosqichlarga bo'lishda ifodalanadi. Geosistemalar faoliyatining mavsumiy ritmining mohiyati shundan iboratki, radiatsiya

rejimining o'zgarishi bilan suv va havo sharoitlari, biotaning hayotiy faoliyati, moddaning o'zgarishi intensivligi va tabiati va kimyoviy elementlarning ko'chishi fasllarga qarab o'zgaradi. Sug'oriladigan hududlardagi geokomplekslarning mavsumiy o'zgarishlari asosan ularning suv-issiqlik rejimi bilan belgilanadi, bu nafaqat issiqlik va namlik oqimi bilan, balki landshaftning ichki xususiyatlari, tashqi tomondan keladigan modda va energiyani qayta taqsimlash va o'zgartirish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan yerlarida tabiiy imkoniyatlardan maqsadsiz foydalanish landshaftlarning tubdan o'zgarishiga va tabiatda mujassamlashgan muvozanatni buzilishiga olib keldi. Sug'orish bilan aloqador bo'lgan meliorativ tadbirlar majmuasi iqtisodiy jihatdan ijobiy samaralar berishi bilan birgalikda ekologik nuqtai nazardan salbiy darajadagi sho'rlanish, zaxlash, tuproq tuzilmasining buzilishi va eroziyasi, chirindi miqdorining kamayishi, biologik va kimyoviy xususiyatlarning o'zgarishi kabi jarayonlarning tarqalishiga ham sabab bo'ldi.

Sug'oriladigan yerlarda sug'orish eroziyasi ham tuproqlarning suv-fizikaviy va agrokimyoviy xossalari o'zgarishi (yomonlashuvi)ga olib kelmoqda. Bu jarayonlar tufayli tuproqlardagi chirindi, azot kabi oziqlantiruvchi moddalarning miqdori tuproq tarkibida ulushi pasayib bormoqda. Yana shuningdek, ayni paytda kimyoviy moddalardan (mineral o'g'itlar, pestisidlar, defoliantlar va boshq.) qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda katta miqdorda foydalanish natijasida atrof-muhit ifloslanmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, azot o'g'itlarning 8-15 foizi, fosforli organik pestisidlarning 2-5 foizigacha, defoliantlarning 4,8 foizigacha bo'lgan qismi yuza suvlariga tushadi.

E.Ulug'murodovning qayd etishicha rejasiz sug'orish dalalar va tuproqni ortiqcha suv bilan to'yinishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga quyidagi oqibatlarni keltirib chiqaradi, tuproqdan oziq moddalar va mayda zarrachali yotqiziqlarni oqizib chiqib ketadi; kam o'tkazuvchan zich loyqa gorizontni hosil qiladi; dalalarni sug'orish davomida suv isrof bo'ladi; yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga va tuproqlarning sho'rlanishi yoki botqoqlanishi, bu hududlarga tutash yerlarni suv bosishi hamda kollektor-drenaj tarmog'iga bo'lgan ehtiyoj ortadi; mashina yordamida suv chiqarish uchun juda katta hajmda energiya harajatlari vujudga keladi; sug'orish tizimini ishlatish xarajatlari oshadi; suvdan takror-takror foydalanish natijasida meliorativ holat yomonlashadi; dalalarga beriladigan ortiqcha suv odatda ekinlar hosildorligini kamaytiradi; ekinlarni o'z vaqtida yoki yetarli darajada suv bilan ta'minlamaslik ham hosildorlikni kamaytiradi va suv isrofchilikligiga sabab bo'ladi [4; 11-b.].

Sug'oriladigan yerlar mahsuldorligining kamayib ketishiga sabab bo'layotgan omillarning tobora rivojlanib borishi bu turdagi yerlardan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanishni ilmiy asosda o'rganish va yer resurslarini muhofaza qilish uchun ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan samarador bo'lgan tadbirlar majmuasini belgilashni talab etadi. Sug'oriladigan yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etishda landshaftlarning tabiiy xususiyatlarini va ularning antropogen omillar ta'siri ostida o'zgarish sharoitlarini o'rganish asosida geoekologik kartalarini yaratib uning amaliyotga tadbiriq etish lozim. Bunday geoekologik kartalar salbiy jarayonlarni oldini olish tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Vegetatsiya davri (yoz faslida) o'simliklarning hayotiy jarayonlarida eng

katta keskinlik va shuning uchun eng yirik vaqtinchalik o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi.

Ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi tabiati bo'yicha yilning o'tish fasllari (bahor, kuz) aniq ajralib turadi. Sug'oriladigan voha landshaftlarida mavsumiy va ichki holatlarining sifat va miqdoriy to'plami asosan o'simliklar jamoasi turlarining fenologiyasi bilan belgilanadi.

Qashqadaryo havzasidagi sug'oriladigan voha landshaftlarning mavsumiy dinamikasi avvalo grunt suvlari sathining ko'tarilishi bilan birgalikda ro'y beradi. Yoz mavsumida grunt suvlari sathining yuqoriligi vegetasiya davri davomida saqlanadi (apreldan avgustgacha, ba'zan sentyabrgacha). Qashqadaryoning quyi qismida grunt suvlari sathi ham o'zgarib boradi. Avval u yer, bu yerlarda (dog'simon), keyin yoz oxirlarida yoppasiga sho'rlanish kuzatiladi. Kuzda, qaysi qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish to'xtagach, grunt suvlari sathi pasaya boshlaydi. Eng past daraja oktyabrdan dekabrgacha kuzatiladi [1; 32-b.].

Qashqadaryo vohasi sug'oriladigan yerlaridan bug'lanishning oylik ko'rsatkichlari Kitob va Shahrisabz meteorologiya stansiyalarida kuzatilgan o'rtacha oylik havo harorati va mutlaq namlik ma'lumotlari asosida hisoblangan. Qashqadaryo viloyati hududining yerdan foydalanish koeffitsienti $K_z = 0,90$ ga teng ekanligi, bug'lanish gektariga 771 mm ni tashkil yetishi aniqlangan [12; 19-20 b.].

Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan viloyat aholi soni 3560,6 ming kishi (2024-yil, 1-yanvar) yil sayin ortib borayotgan bir paytda mavjud sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini muttasil oshirib borish, sug'orishga yaroqli yerlarni ilmiy asoslangan usulda xo'jalik muomalasiga kiritish va boshqalar. Yer-suv resurslari nihoyatda chegaralangan vaziyatda hududda

sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish yerdan yuqori darajada oqilona foydalanishni taqozo etadi. Natijada sug'orma dehqonchilik bir qator salbiy ekologik oqibatlariga sabab bo'ladi. Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan dehqonchilik zonalarida qishloq xo'jaligiga suv eroziyasi, shamol eroziyasi, gravitatsion jarayonlar, sel hodisalari, loyqa bosishi, botqoqlanish, sho'r bosish, qatqaloq hosil bo'lishi kabi tabiiy geografik jarayonlari eng ko'p salbiy ta'sir ko'rsatishini bilan kuzatish mumkin. Antropogen omillarga yerlarni noto'g'ri sug'orish hamda qishloq xo'jalik yerlarining ifloslanishi, tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish, ya'ni sanoat chiqindilari, tosh, qum va minerallarni qazib olish kabilar kiradi. Qashqadaryo viloyatida uzoq tarixiy davrlar davomida ko'plab suv inshootlarining barpo etilishiga bog'liq holda sug'oriladigan yerlarning maydoni kengaya borgan. Qashqadaryo viloyatida 5157 km dan ortiq kanallar mavjud bo'lib, ushbu kanallar orqali qishloq xo'jaligi ekinlari va aholi xo'jaliklari uchun xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda viloyatdagi sug'oriladigan yerlar maydonining kengayishi meliorativ holatini yaxshilashni talab qiladigan yerlar maydoni ham kengayishiga sabab bo'ldi (1-jadval) [5;142-147.b., 11; 804-811 b.].

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha ma'lumotlar (ming gektar hisobida).

Yillar	Meliorativ nazoratdagi maydon	Sho'rlanmagan		Umumiy sho'rlangan		Shu jumladan sho'rlanganlik darajasiga ko'ra:					
		ming. ga	%	ming. ga	%	kuchli sho'rlangan		o'rtacha sho'rlangan		kam sho'rlangan	
						ming. ga	%	ming. ga	%	ming. ga	%
2020	513,97	286,31	56	227,66	44	9,22	2	36,41	8	182,03	36
2021	513,45	290,98	57	222,45	43	8,86	2	35,34	7	178,28	35

Ma'lumotlar asosida mualliflar ta'monidan tayyorlandi.


Hozirgi sug'orish texnologiyasi sharoitlarida viloyatning sug'oriladigan yerlarida sizot suvlarining sathi uzluksiz ko'tarilib, ularning minerallashuv darajasi oshib bormoqda. Sizot suvlarining ko'tarilishi mezoniy sath (yer yuzasidan

2,0-2,5 m) ga yetganda qayta sho'rlanish rivojlana boshladi. 1967-yilda turli darajada sho'rlangan yerlarning maydoni 21,8 ming ga ni tashkil etgan bo'lsa, 2-jadvaldan turibdiki, 2020 yil yanvar holati ma'lumoti bo'yicha, sho'rlangan maydon 227,66 ming ga jami maydonga nisbatan 44,0 % bo'lib, shundan kuchli sho'rlangan maydon 9,22 ming ga, kuchsiz sho'rlangan maydon 36,41 ming ga va o'rtacha sho'rlangan maydon 182,03 ming.ga ni tashkil etadi. 2021-yilda Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi 43 % (222,475 ming ga.) bo'lib, kuchli sho'rlangan maydon 8,86 ming ga. (2%), o'rtacha sho'rlangan maydon 35,34 ming ga (7%), kuchsiz sho'rlangan maydon 178,28 ming ga yoki (35 %) ga teng bo'lgan. Viloyatda meliorativ holatini yaxshilash uchun nazoratga olingan maydon 513,45 ming ga, zovur talab etiladigan maydon 216,59 ming ga, amalda zovurlar bilan ta'minlangan maydon 296,87 ming ga ni tashkil etadi. Zero, viloyatida har bir gektar sug'oriladigan maydonga 50 pog.m. zovur to'g'ri kelishi kerak, lekin bu ko'rsatkich deyarli 28,23 pog.m. dan oshmaydi. Jumladan, zovur bilan ta'minlangan maydonlarda 48,83 pog.m. ni tashkil etadi. Hozirgi kunda sug'oriladigan yerlarning 8 foiziga yaqini yoki 325 ming gektari meliorativ holati yomon yerlar hisoblanadi [11; 804-811 b. 13,15]

Zero, bu tahlililardan ko'rinib turibdiki, olib borilayotgan meliorativ tadbirlar o'z samarasini berib, sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi kamayishiga olib kelmoqda va quyidagi 1-diagramma tashkil etishi so'zimizning yaqqol isbotlaydi. Sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanish darajasi ham Qashqadaryo daryosining quyi qismi tomon qonuniy ravishda ortib boradi. Masalan, Qashqadaryo viloyatining tog'li qismida sug'oriladigan tuproqlarda sho'rlanish

deyarli uchramaydi. Lekin o'z navbatida, Qarshi cho'li tuproqlari sho'rlanish darajasining yuqoriligi hamda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi tufayli yuz berishi kuzatilmoqda. Bu hududlarda sho'rlangan maydonlarning kattaligi Qarshi cho'lida arid zonada joylashganligi va tuproq tarkibi va tuproq qoplamida bug'lanish miqdorining yuqoriligi bilan bog'liq. Binobarin, Qarshi cho'li uchun doimiy yuza oqimining yo'qligi, quruq o'zanlarning mavjudligi va tuproq – gruntlarning yuqori darajada sho'rli, tushadigan yog'inlarga nisbatan bug'lanishning ancha ko'pligi xosdir. Qarshi cho'lining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmay yerlarni o'zlashtirilishi natijasida katta maydonlarda tuproq yuvilishi, eroziya hodisalarining turli ko'rinishlari, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida sho'rtob va sho'rxoklanish kabi jarayonlar kuzatiladi. Buning oqibatida esa ko'plab buzilgan landshaftlar vujudga keldi [6; 33-35 b. 11; 804-811 b.].

Quyida berilgan 1-diagrammada Qamashi, Koson, Muborak va Nishon tumanlarining sug'oriladigan yerlarining sho'rlanish darajalari ko'rsatilgan. Sababiki, bu 4 ta tuman viloyatdagi sug'oriladigan yer maydonlarining deyarli 40 foizini tashkil etganligini inobatga olsak, bu tumanlarning sho'rlanish darjasini tahlil qilish orqali ma'lum bir ma'noda viloyat yerlarining umumiy holati haqida ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishimiz mumkin.



1-rasm. Viloyatda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi

Oxirgi 5 yilda bu tumanlarda sug'oriladigan yerlarning hajmi o'zgarishida deyarli katta farq kuzatilmaydi, ammo sho'rlanish holatida biroz ijobiy o'zgarishlarni ko'rsak bo'ladi. Masalan viloyatning o'rtacha sho'rlanmagan yerlari 2019-yilda 57,2% ni tashkil etgan bo'lsa, Qamashida 57,3 %, Koson tumanida 36,3 % ni tashkil etsa, Muborak tumanida 17,6 % bo'lsa, Nishon tumanida esa 39,5% ni tashkil etishi, 5 yil oldin viloyatda sug'oriladigan yerlarning aholi ancha yomon ekanligini ko'rsatadi. Bu jadvalda faqat Qamashi tumani viloyat o'rtacha ko'rsatkichlari bilan teng ekanligini bu yerdagi tabiiy sharoit bilan izohlash mumkindir, lekin Muborak va Koson tumanlarida holat viloyat o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha past ekanligini taqqoslash qiyin emas bu yerda.

2024-yilda viloyatning sug'oriladigan yerlaridagi meliorativ holati biroz o'zgarganligidan bilish mumkin. Bu yilda viloyat sug'oriladigan

yerlarining sho'rlanganlik holatida katta farq kuzatilmaydi 56,7 % yerlari sho'rlanishga duchor bo'lmagan bo'lsa, Qamashi tumanida 55,1 %, Nishon tumanida 42,3 %, Koson tumanida esa ancha past ko'rsatkich 39,2 % va Muborak tumanida esa bor yo'g'i 20,2% yerlarida sho'rlanish holatlari kuzatilmagan. Shuningdek, bu tumanlarning barchasi barcha toifadagi sho'rlangan yerlarning hajmi qisqarmoqda.



2-rasm. Qashqadaryo viloyatida sho'rlangan tuproqlar.

Ayniqsa, iqlim o'zgarishi jarayonida viloyatning arid tekisliklarida yog'inning juda kamligi, tuproqdan namning ko'p bug'lanishi, tuproqlarni sho'r bosishini kuchaytiradi. Viloyatda eng ko'p yog'in 1992-yilda 370 mm, 2018 yilda eng kam 140 mm yog'in tushgan (2-diagramma). Bu holat tekisliklarda yog'inning juda kamligi, tuproqdan namning ko'p bug'lanishi tuproqlarni sho'r bosishini kuchaytiradi. Havo haroratining sutka va yil davomida keskin o'zgarib turishi nurashni kuchaytirib, tog'oldi rayonlarida sel oqimining hosil bo'lishiga yordam beradi. Biogen omillar o'simlik qoplami, tuproqlar va hayvonot dunyosi tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishiga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Tuproq yuvilishi, cho'llarda shamol deflyatsiyasining intensivligi o'simlik qoplamining qalinligiga bog'liq va bu jarayonlar o'simlik qoplami yordamida boshqariladi [7].



3-rasm. Qashqadaryo viloyati yog'in miqdori, mm.hisobida (1990-2020 yillar)

Masalan, Qarshi cho'lining Qarshi, Koson, Nishon tumanlarida tarqalgan tuproqlar sho'rlanishga o'ta moyil yerlar bo'lib, ular doimo sug'orish va zax qochirish melioratsiyasiga muhtoj hudud hisoblanadi. Qarshi cho'lining markazida yer osti sizot suvlari oqmas yoki juda kam oqadigan tipga mansub bo'lib, bu suvlar tarkibidagi tuzlar konsentratsiyasi tog'li hududlarga nisbatan yuqoridir. Bundan tashqari hududda o'ziga xos bo'lgan garmisel, afg'on kabi shamollarining bo'lib turishi oqibatida tuproqning mayda zarralarini uchirib ketishi natijada tuproq hosildorligi kamayishi hamda atmosferada chang-to'zon ko'tarilib havoning ifloslanishi va changli kunlar haftalab davom etishi kuzatilmoqda [7, 11; 804-811 b.].

2-jadval

Tumanlar	Yillar	Umumiy sug'oriladigan yerlar maydoni ming.ga	Sho'rlanish darajasi						qoniqsizlik holati		
			yaxshi		qoniqarli		qoniqsiz		SSS' sababli	sho'rlanish sababli	SSS va sho'rlanish
			ming. ga	%	ming. ga	%	ming. ga	%			
G'uzor	2007 y	34,73	11,94	34,0	19,83	57,0	2,96	9,0	1,77	1,07	0,12
	2023 y	33,00	13,90	39,7	20,6	59,0	0,5	1,3	0	0,5	0,0
	farqi (+/-)		-1,73	-5,0	-0,93	-2,6	-2,46	-0,7	-1,77	-1,07	-0,12
Qarshi	2007 y	48,35	21,63	45,0	22,94	47,0	4,93	9,0	3,21	1,89	0,13
	2023 y	50,30	28,50	56,0	21,30	42,2	0,50	1,10	0,10	0,40	-
	farqi (+/-)		11,65	24,0	-1,64	-4,8	-4,43	-0,9	-3,11	-1,49	-0,13
Koson	2007 y	73,57	25,15	34,0	43,39	59,0	5,03	7,0	3,12	0,21	0,21
	2023 y	73,60	39,5	41,6	56,4	3,0	4,1	0,1	2,5	0,04	-
	farqi (+/-)		14,35	17,6	13,01	2,6	-0,93	-1,3	-0,62	-0,19	-
Qamashi	2007 y	34,28	16,94	49,0	16,01	47,0	1,33	4,0	0,34	0,99	-
	2023 y	34,80	20,0	57,3	14,3	41,2	0,5	1,5	0,0	0,50	-
	farqi (+/-)		3,06	8,3	-1,8	-5,8	-0,83	0,5	-0,34	-0,49	-
Kitob	2007 y	19,91	19,53	98,0	-	-	0,38	2,0	0,38	-	-
	2023 y	20,30	20,2	99,7	-	-	0,10	0,3	0,1	-	-
	farqi (+/-)		0,39	0,07	0,0	0,0	-0,28	-0,7	-0,28	-	-
Mirishkor	2007 y	62,29	29,91	48	28,84	46,0	3,54	6	2,76	0,69	0,09
	2023 y	63,40	38,80	61	24,00	37,9	0,6	0,9	0,4	0,20	-
	farqi (+/-)		8,89	13,1	-4,84	-8,1	-2,94	-0,1	-0,36	-0,09	-0,09
Muborak	2007 y	33,06	18,0	22,91	67,0	5,02	15,0	1,64	3,34	0,94	-
	2023 y	35,00	23,30	21,0	25,0	71,3	2,7	7,7	0,0	0,2	-
	farqi (+/-)		5,24	12,7	7,09	4,3	1,68	2,7	-3,34	-0,04	-0,04
Nishon	2007 y	57,08	20,98	37,0	31,78	56,0	4,32	8,0	2,35	1,85	0,12
	2023 y	57,20	24,3	42,5	30,50	53,2	2,40	4,3	0,7	1,7	-
	farqi (+/-)		3,32	5,5	-1,28	-2,8	-1,92	0,0	-1,65	-0,15	-0,12
Kashi	2007 y	50,52	21,53	43,0	27,75	55,0	1,24	2,0	1,14	0,10	-
	2023 y	50,50	20,40	40,3	30,00	59,3	0,20	-	0,20	-	-
	farqi (+/-)		-0,02	-1,3	-2,7	-2,25	-0,04	-1,04	0,0	-0,10	-
Chiroqchi	2007 y	30,11	26,51	88,0	3,12	10,0	0,48	2,0	0,48	-	-
	2023 y	16,70	15,5	92,7	1,2	7,1	0,0	0,2	0,0	-	-
	farqi (+/-)		-13,41	-11,01	-4,0	-1,92	-0,48	-1,8	-0,48	-	-
Ko'kdala	2007 y	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	2023 y	13,50	12,7	94	0,8	6,0	-	-	-	-	-
	farqi (+/-)		13,50	12,7	0,8	6,0	-	-	-	-	-
Shaxrisabz	2007 y	25,46	25,03	98,0	-	-	0,43	2,0	-	-	-
	2023 y	25,50	25,50	100	-	-	-	-	-	-	-
	farqi (+/-)		0,04	0,07	2,0	-	-0,43	-2,0	-	-	-
Yakkabog'	2007 y	34,19	32,19	94,0	0,85	2,0	1,15	3,0	1,08	0,06	0,01
	2023 y	34,60	34,50	99,7	0,10	0,2	0,01	0	-	0,01	-
	farqi (+/-)		0,41	0,01	0,05	-0,75	-1,8	-1,15	-3,0	-0,05	-0,01
Dehqonobod	2007 y	2,94	2,94	100	-	-	-	-	-	-	-
	2023 y	2,94	2,94	100	-	-	-	-	-	-	-
	farqi (+/-)		0	0	-	-	-	-	-	-	-
Viloyat bo'yicha	2007 y	507,39	260,31	51,0	216,97	43,0	30,11	6,0	16,2	13,11	0,72
	2023 y	513,30	293,7	57,2	209,40	40,8	10,30	2,0	1,60	8,7	0,04
	farqi (+/-)		55,99	10,9	-6,57	-2,2	-19,81	-4,0	-14,6	-4,41	-0,68

Izoh : Yashil rang-ijobiy tomonga o'zgarish, sariq rang-salbiy tomonga o'zgarish
 *-Sizot suvlar sathi,
 **Chiroqchi va Ko'kdala tumanlari 2022-yilda alohida tumanlariga ajratildi.
 Jadval : Meliorativ ekspeditsiya ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatda 2007-yilga qaraganda, 2024-yilga kelganda sizot suvlarining ko'tarilishi sababli hamda sho'rlanish shuningdek, bu ikkala omillar natijasida viloyatning sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilanmoqda.

Xususan, sho'rlanish sababli 2007-yilga qaraganda 4,4 ming ga , sizot suvlari sababli esa 14,6 ming ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ikkala omil natijasida sho'rlangan yerlar havzaning quyi qismida joylashgan tumanlarda ya'ni 2024-yilda Koson, Muborak, Mirishkor va Nishon tumanlarida hosil bo'lgan.

Viloyatda so'nggi yillarda amalga oshirilgan meliorativ tadbirlar natijasi oxirgi 17 yilda, viloyatda qoniqarsiz yerlar o'rtacha 4% ga kamaygan bo'lsa, eng katta ko'rsatkich G'uzor, Qarshi Muborak tumanlarida 7,7 %, 7,9 va 7,3 % ga kamayganligi bu ishlarning samarasini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga, viloyatning barcha tumanlarida sho'rlanish darajasiga ko'ra yerlarning holati ijobiy tomonga o'zgarishga o'tayotganligi payqash mumkin. Masalan 2007-yilda viloyat sug'oriladigan yerlarining 260,3 ming ga yer yaxshi yerlar toifasida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 293,7 ming ga yetdi yoki bunday toifadagi yerlarning salmog'i 6,2 % ga oshdi. Bu ijobiy o'zgarishga eng katta hissa qo'shgan tumanlar Mirishkor 13 %, Qarshi tumani 11% va Qamashi tumanlari 8,3 % ko'rsatkich bilan boshqa tumanlardan keskin ajralib turgan bir paytda, Kasbi tumani bunday yerlar toifasi salbiy dinamik jarayonga o'tganligi kuzatsak bo'ladi ya'ni 1,13 ming ga yoki 2,7 % ga kamayib ketganligi ushbu jadvalda yaqqol namayon bo'lmoqda.

Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan yerlarining qoniqarli yerlari 2007-yilga qaraganda 7,57 ming ga yoki 2,2 % kamaygan bo'lsa, eng katta ko'rsatkich Mirishkor tumanida 8,1 %, Qamashi tumanida 5,8 % ga Qarshi tumanida esa bu raqam 4,8 % ni tashkil etishini bunday toifadagi yerlar boshqa toifaga ya'ni yaxshi yerlar toifasiga o'tganligi bilan izohlash mumkin.

Cho'l hududlari, xususan Muborak, Nishon va Koson tumanlarida tuproqning sho'rlanish darajasi (61 %) viloyatning

o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori. Bu hududlarda sho'rlangan maydonlarning kattaligi Qarshi cho'li arid zonada joylashganligi va tuproq tarkibi va tuproq qoplamida bug'lanish miqdorining yuqoriligi bilan bog'liq. Binobarin, Qarshi cho'li uchun doimiy yuza oqimining yo'qligi, quruq o'zanlarning mavjudligi va tuproq – gruntlarning yuqori darajada sho'rli, tushadiga yog'inlarga nisbatan bug'lanishning ancha ko'pligi xosdir. Qarshi cho'lining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmay yerlarni o'zlashtirilishi natijasida katta maydonlarda tuproq yuvilishi, eroziya hodisalarining turli ko'rinishlari, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida sho'rtob va sho'rxoklanish kabi jarayonlar kuzatiladi [8; 46-51 b.9; C. 893-899.].

Sug'orilayotgan yerlarda relyef, gidrologik, gidrogeologik va boshqa sharoitlarning o'zgarishi tuproq hosil bo'lish jarayonlarining dinamik holatini o'zgarishiga olib keladi.

Sug'orish tuzlarning kuchli erituvchisi bo'lib, tuproqda kechadigan kimyoviy jarayonlarga ta'sir etadi, tuproq eritmalarining konsentratsiyasini kamaytiradi va tuproqning yuqori gorizontlarida zararli tuzlar miqdorini kamaytiradi. Agar dalalarga sug'orish suvi ortiqcha yetkazib berilsa, ozuqa moddalari ko'p qismi tuproqdan yuvilib ketishi mumkin.

Sug'orish ta'siri natijasida tuproqlarning issiqlik sig'imi va issiqlik o'tkazuvchanligi oshadi, bu o'simliklarning ildiz tizimining o'sishi va rivojlanishiga, shuningdek, tuproqlarning mikrobiologik faolligiga foydali ta'sir ko'rsatadi, bu oxir-oqibat ularning unumdorligini oshiradi hamda qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosildorligini ta'minlaydi.

Sug'oriladigan hududardagi landshaftlardagi dinamik jarayon qishloq xo'jaligi landshaftida sodir bo'ladigan doimiy o'zgarishlar va o'zaro ta'sirlarni

anglatadi. U turli xil ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarni o'z ichiga oladi va inson faoliyati va tabiiy jarayonlar ta'sirida bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Sug'oriladigan voha landshaftlaridagi dinamik jarayonlarni tahlil etish va Qashqadaryo viloyatida olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, sug'oriladigan voha landshaftlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmay, yerlarning o'zlashtirilishi katta maydonlarda tuproq qatlamini yuvilishi, sizot suvlari sathining ko'tarilishi, sho'rtob va sho'rxoklanish kabi jarayonlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birgalikda, qurg'oqchil hududlarni o'zlashtirish, yerdan foydalanishda ilm-fan, texnikaning eng so'nggi yutuqlariga hamda inson xo'jalik faoliyatining ijobiy ta'siriga tayanish lozim. Hozirgi kunda kishilik jamiyatining asosiy oziq-ovqat maxsulotlari olinadigan yerlardagi landshaftlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy dinamik jarayonlarning oldini olish uchun asosiy tadbirlar sifatida quyidagi quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarida tuproqlarini sug'orish ta'siridagi asosiy salbiy dinamik jarayonlar inson faoliyati natijasida paydo bo'lganligi sababli, ularni har taraflama o'rganish va tahlil qilish lozim.

2. Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yerlardagi tuproqlari mexanik tarkibi qum va chang zarrachalardan iborat bo'lganligi tufayli, ular shamol eroziyasiga moyildir, shu sababli ham sug'orma dehqonchilikda bu yerlarda deflyasiyaga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

3. Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yerlardagi sug'orish natijasida, yer osti suvlarining sathi

ko'tarilib, bu jarayon tuproqlarni turli darajada sho'rlantirmoqda. Shuning uchun bu yerlarda vertikal va gorizontal zovurlar tizimini to'g'ri loyihalash, mavjud irrigatsiya va melioratsiya tizimini qayta tiklash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev.S.I., Nazarov.M.G., Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geoekologik holati. Monografiya. Q., 2020.-144 b.

2. Калесник С.В. Общие географические закономерности Земли. М.: Мысль, 1970. -283 с.

3. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. -Новосибирск: Наука, 1978. -319 с.

4. Ulug'murodov.E.U. O'rta Zarafshon vohalarida sug'orish ta'sirida ro'y berayotgan dinamik jarayonlar va agrolandshtftlarning ekologik holatini baholash / G.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss.avto.referati.-S., 2023.46-b.

5. Usmanova.R., Nazarov.M.G., Poyanov.J.Sh. Iqlim o'zgarishini ekosistemalarga ta'siri va geoekologik muammolar.(Qashqadaryo viloyati misolida). Ўзбекистонда иқлим ўзгариши муаммоларини таълимга интеграция қилиш халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2024 йил. 142-147. b;142-147.b.,

6. Usmanova R., Nazarov.M.G. Xushmurodov.M.F., Sug'oriladigan hududlarda cho'llanishning sabab va oqibatlar. O'zbekiston zamini jurnali.Toshkent. 33-35 bet. 1/2022 yil; 33-35 bet.

7. Usmanova.R., Toshboyev. S. Reasonable use of land resources of Kashkadarya region under climate change ///ИУСЕР Экономика и социум международный научно- практический журнал №3 (118) 2024 2024 г. www.iupr.ru

8. Usmanova R., Xushmurodov F. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligini optimallashtirishning ekologik-geografik jihatlari // O'zbekiston Zamini ilmiy – amaliy va innovatsion jurnal ISSN 2181-9955. 2/2021. 46-51 b.

9. Usmanova R., Xushmurodov F. Суғориладиган ерлардан фойдаланишнинг социал-иқтисодий ва экологик муаммолари. // "Экономика и социум" №3(94)-2 2022. С. 893-899.

10. Xodjimatrov.A.N. Antropogen landshaftshunoslik. Darslik.T.; 2023.-130 b.

11. Xushmurodov.F.M. Ahmedova.K. Hamroqulova.Sh. Qashqadaryo vohasi cho'l landshaftlari

tabiiy resurslaridan samarali foydalanish jihatlari. "Экономика и социум" №2 (117)-1 2024 804-811 b. www.iupr.ru

12. Yunusov G'. X. Sug'oriladigan yerlarning suv balansi tenglamasini va uning tashkil etuvchilarini miqdoriy baholash usullarini takomillashtirish (Qashqadaryo vohasi misolida) // Geog.fan.dok.avtoreferat. T: – 2022. 67 b.; 19-20 b.; 19-20 b.

13. Amu-Qarshi I.T.H.B huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyasi ma'lumotlari 2020-2024 yillar.

14. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari 2020-2024 yillar.

UO'K: 631.67:634.8.047 : 551.4(575.141)

SAMARQAND VILOYATINING TOG' YON BAG'IRLARIDAGI BOG' VA UZUMZORLARNI SUG'ORISHDA SUVDAN SAMARALI FOYDALANISH

Umarov Nurali Shermatovich - Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti, Geomatika muhandisligi kafedrasini mudiri t.f.f.d. (PhD)

Azzamov G'iyos Xudaynazarovich - Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti, Geomatika muhandisligi kafedrasini stajor o'qituvchisi

Burxonov Toshpulat Sayitvaliyevich - Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti, (PhD) doktoranti

Po'latov Shohzod Sharofiddin o'g'li - Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti, (PhD) doktoranti

Аннотация: Bog'dorchilik va Uzumchilik butun dunyoda qishloq xo'jaligining muhim qismidir. Meva aholi ratsionida ham yangi, ham turli qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi va eng muhimi, quritilgan mevalar eng mashhurdir. Shu nuqtai nazardan, mavzu qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti uchun ham, butun mamlakat iqtisodiyoti uchun ham dolzarbdir. Maqolada yashovchi fermer xo'jaliklaridagi fermer xo'jaliklari suv ta'minoti, ishlab chiqarish, har biriga qisqacha ta'riflar berilgan hamda xulosalar keltirilib o'ldirilgan. Yuqorida

keltirilib o'rganilgan aniq o'qim suvlarini yig'ish usullarini qo'llab-quvvatlagan holda ishlab chiqarilgan ishlar natijasida ham fikr yuritiladi, bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri to'g'ridan-to'g'ri foydalanishda uzumzorlarni sug'orishni amalda ishlab chiqish ishlab chiqilgan.

Калит so'zlar: noan'anaviy sug'orish usuli, sug'orish tizimi, sug'orish texnologiyasi, suv, bog', sug'orish, tuproq unumdorligi, suvlarni yig'ish va sug'orish.

Аннотация: Садоводство и виноградарство являются важной частью сельского хозяйства во всем мире. Плоды используются в рационе

населения для производства как свежих, так и различных переработанных продуктов, а главное, наибольшей популярностью пользуются сухофрукты. С этой точки зрения тема актуальна как для аграрной экономики, так и для экономики страны в целом. В статье кратко описаны и обобщены хозяйства в хозяйствах водоснабжение, производство каждое. В результате работы, проведенной в поддержку конкретных методов сбора побеговой воды, обсуждавшихся выше, также предлагается разработать практическое развитие орошения виноградников.

Ключевые слова: нетрадиционный способ орошения, оросительная система, технология орошения, вода, сад, орошение, плодородие почвы, сбор воды и орошение.

Abstract: Horticulture and Viticulture are an important part of agriculture throughout the world. Fruits are used in the diet of the population to produce both fresh and various processed products, and most importantly, dried fruits are the most popular. From this point of view, the topic is relevant both for the agricultural economy and for the economy of the country as a whole. In the article, the farms in the farms that live in the farms water supply, production, each is briefly described and summarized. As a result of the work that has been produced in support of the specific shootwater collection methods discussed above, it is also suggested that direct The practical development of vineyard irrigation was developed.

Key words: unconventional irrigation method, irrigation system, irrigation technology, water, garden, irrigation, soil fertility, water collection and irrigation.

Kirish

Jahonda aholi sonini tez sur'atda o'sishi, suvga bo'lgan talabning ortishi sababli qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orishda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida uzumzorlar maydoni 7,5 mln gektarni tashkil etib, bu maydonlarning asosiy qismi, ya'ni 85% Yevropa-Osiyo qit'alariga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda uzumchilik eng rivojlangan davlatlar: Ispaniya-1,2 mln/ga, Italiya-875 ming/ga, Fransiya-870 ming/ga, AQSH 357 ming/ga, Turkiya-560 ming/ga, Portugaliya-252 ming/ga, Argentina-353 ming/ga va Ruminiya-250 ming gektarni tashkil qilib, ushbu davlatlarda yetishtirilayotgan uzumning qariyb 65-70% qismi sharobchilik sanoati uchun xom ashyo sifatida yetkazib beriladi. Har yili Xitoy-18,9; Italiya-48,9; AQSH-22,1 va Fransiya-47,4 mln.litrgacha sharob ishlab chiqariladi. Dunyonda, sug'orish suvlarining tanqisligi sezilayotgan bir paytda jumladan, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish tartibi va texnologiyasini takomillashtirish, sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish, bir gektar dala maydonidan bir yilda ikki va undan ko'proq hosil olish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi tizimida uzumchilikni rivojlantirish va uning yuqori sifatli ko'chat beruvchi plantatsiyalarini barpo etish va kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida «...qishloq xo'jaligida ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish, ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etish hamda hosildorlikni oshirish, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni ko'paytirish...» muhim

strategik vazifalardan biri sifatida alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada tok uzumlarini morfo-biologik va xo'jalik xususiyatlarini hisobga olgan holda, sertifikatlangan ko'chatlar yetishtirishni ta'minlovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ilmiy-tadqiqot ishlar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir. Fitosanitar holati yaxshilangan ona tokzorlarni barpo etish asosida sog'lom qalamchalar tayyorlash, noyob va qimmatli tok navlarini ko'paytirishning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek Respublikamizning tog' oldi xududlarida suvdan samarali foydalanilgan holda uzum yetishtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

K.V.Smirnov, L.M.Maltabar va boshqa olimlarning ma'lumotlariga qaraganda Uzun novdalari va barglarida 71-73%, g'ujumlarida 80-85%, tanasida 30%, zangida 40% cha, ildizlarida esa 50-55% suv bo'lishi, suvning asosiy qismi transpiratsiya va nafas olish uchun sarflanishi, suvning ma'lum qismigina bevosita organik moddalarni hosil qilish uchun sarf bo'lishi aniqlangan. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston sharoitida Uzun 1 s, hosil to'plash uchun 44-50 m³ suv talab qilinishi aniqlangan. [2]

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada mustahkamlashda boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligining o'rnini beqiyosdir. Respublikamizda sug'orish suvlari taqchilligi sharoitida bog'dorchilikda yuqori va sifatli hosil yetishtirishda suv resurslarini tejovchi texnologiyalar qo'llash eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Agrar sohani yanada rivojlantirish va xalq farovonligini yaxshilashda ilg'or ilm-fan yutuqlari, bobo dehqonlarimizning necha ming yillik boy tajribasiga tayangan holda dehqonchilik qilinadigan yerlar unumdorligini oshirish, yanada mo'l va sifatli hosil yetishtirish, tog'oldi hududlarda turli xil ya'ni uzum, yong'och, bodom kabi mevalari yetishtirish muhim

ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning tog'li va tog'oldi mintaqalarida uzumzor barpo qilish uchun eng samarali bo'lib, Samarqand viloyatining Kitob, Shahrisabz, Bulung'ur, Samarqand viloyatining Urgut, Samarqand, Surxondaryo viloyatining Boysun, Denov, Toshkent viloyatining Ohangaron Parkent va Chirchiq tumanlari hisoblanadi.

Tog'li va tog'oldi xududlarida uzumzor uchun joy tanlashda quyidagilarga e'tibor etish zarur. Uzunzor barpo qilinadigan maydon 10-15 gektardan kichik bo'lmasligi lozim hamda kelgusida yanada kengaytirish imkoniyati bo'lishi kerak. Uzun ekish va uni parvarishlash ishlarini mexanizatsiyalashtirish mumkin bo'lishi uchun maydon 10 gradusdan ortiq darajada qiya bo'lmasligi, agar qiya bo'lsa, zina-zina shaklida tekislangan bo'lishi kerak. Tog'oldi xududlarining unchalik qiya bo'lmagan va yozda ham yerinisbatan nam bo'lib turadigan joylar uzumzor qilish uchun yaroqlidir. Uzun barvaqtroq pishib, g'ujumida qand moddasi ko'p bo'lishi uchun uzun balandroq zonaning janubiy qiyaliklariga ekilishi kerak. Yog'in suvlaridan (sellardan) yaxshiroq foydalanish uchun, uzun qatorlari qiyalikka ko'ndalang joylashishi lozim. Uzun ekiladigan joyning qiyaligi 5-10 gradus bo'lsa, uzun qatorlari qiyalikka ko'ndalang qilib ekiladi, agar qiyalik 10 gradusdan ortiq bo'lsa, bu joy avval zina shaklida tekislanadi. Uzunzor barpo qilinadigan maydon avval yaxshilab ishlangan bo'lishi zarur. Yer qanchalik chuqur haydalsa sernamroq bo'lib, uzun ko'chatlarining yaxshiroq tutib, kuchli o'sishini ta'minlaydi. Tog'oldi xududlarida har gektarga qancha tupdan uzun ko'chati o'tkazish uzumning naviga, tuproq va iqlim sharoitiga qarab hal etiladi. Bunda uzun qator orasini 2,5-3m, qatordagi tup orasini 1,5-3 m qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. [3]

Tajriba o'tkazish uslublari: Ilmiy izlanishlar asosida mevali bog' va uzumzorlarni sug'orishda resurstejamkor sug'orish texnologiyalarini takomillashtirish maqsadida Samarqand viloyati Bulung'ur tumani "Alisher ota" fermer xo'jaligi dalasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Tajriba dalasi Samarqand viloyati Bulung'ur tumani, B.Xudoyorov xo'jaligi hududida tog' oldi bevosita tik tog' yonbag'irlariga tutashib ketadi. "Alisher ota" fermer xo'jaligidagi uzumzor yer maydonlari 3X2,5., 3X2 sxema bo'yicha ekiladi. Shu sababli 1 ga. maydon (10000 m²) ga ekiladigan Uzum tuplarining soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{10000}{a \cdot b};$$

bu yerda: X - 1 gektar yer moydonidagi tuplar soni,

a - qatorlar oralig'i,

b - qatordagi tuplar oralig'i.

O'zbekistonning tekislik rayonlarida yog'ingarchilik hisobiga to'plangan tuproq namligi Uzumning yaxshi o'sib hosil berishi uchun yetarli hisoblanmaydi. Tuproq namligi o'suv davrining ma'lum davrlarida sug'orish orqali tartibga solinadi. Yillik yog'in miqdori 450-500 mm. dan kam bo'lmagan tog'li va tog' oldi rayonlarida uzumlarni sug'ormasdan yoki 1-2 marta sug'orib o'stirish mumkin. Tuproqning suv rejimini tartibga solishda faqat sug'orishgina emas, shuningdek, uzumzor tuprog'iga vaqtida va sifatli ishlov berish, begona o'tlarni yo'qotish, mulchalash, mahalliy oqim suvlarini to'plash, himoya daraxtlarini ekish va boshqa agrotexnika tadbirlari ham muhim ahamiyatga ega. Sug'oriladigan va lalmi dehqonchilik sharoitida tuproqlarning agrofizikaviy xossalari bilish - ularning samaradorlik qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tuproqlarning fizikaviy xossalari va ularda kechadigan fizikaviy jarayonlar tuproq umumdorligini yuzaga keltirishdagi asosiy omillardan

hisoblanadi. Shuning uchun ularni o'rganishga doimo e'tibor qaratilgan va hozirgi kunda bu masalani o'rganishga yanada jiddiy e'tibor berilmoqda.

Tuproqning suv o'tkazuvchanligi bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar vegetatsiya davri so'ngida 1-tajriba dalasida egatlab sug'orilgan nazorat variantida 6 soatda o'rtacha tuproqqa singish tezligi 0,31 mm/min tashkil qilgan bo'lsa, tomchilatib sug'orilgan tajriba variantida bu ko'rsatkich 0,42 mm/min ni tashkil qildi. 2-tajriba dalasida egatlab sug'orilgan nazorat variantida 6 soatda o'rtacha tuproqqa singish tezligi o'rtacha 0,30 mm/min ni tashkil qilgan bo'lsa tomchilatib sug'orilgan tajriba variantida bu ko'rsatkich 0,38 mm/min ni tashkil qildi.

Qabul qilingan "Временных технических указаний по проектированию, строительству и эксплуатации систем капельного орошения садов и виноградников" (Кишинев, 1981 й.) quyidagi formula orqali sug'orish o'lchamlarini aniqlandi.

$$m = \gamma \frac{\pi D^2}{4} h \cdot K \left(\frac{\beta_{\max} - \beta_{\min}}{100} \right)$$

Bu yerda: m -sug'orish normasi, m³/daraxt;

γ -quruq tuproqning massasi, t/m³

$\beta_{\max}$ - sug'orishdan oldin olinadigan tuproq namligi %

$\beta_{\min}$ - sug'orishdan keyin olinadigan tuproq namligi %

K -qabul qilinadigan ildiz tizim koeffitsiyenti $K=0,8$

D -namlanish qatlamlarini diametri

h -namlanish chuqurligi

$\frac{\pi D^2}{4}$ - daraxt tagidagi namlanadigan tuproq namligi

"O'zgi provod xozom" da foydalanilgan holda tomchilatib sug'orish formulasi orqali hisoblandi.

$$m_0 = 0,67 \cdot W \cdot \frac{\pi D^2}{4} - h \cdot \frac{\beta_1 - \beta_2}{100}$$

Bu yerda: m -sug'orish normasi, m³/daraxt;

W-tuproqning hajm og'irligi, t/m³
 β_1 -sug'orishdan oldin olinadigan
 tuproqning namligi
 β_2 -sug'orishdan keyingi olinadigan
 tuproqning namligi
 h-hisoblanadigan namlanish
 chuqurligi, m
 d-gorizontal namlanish
 hisoblanadigan uchoq diametri
 0,67-namlanadigan joyning
 aylanish koeffitsienti.

Demak, ko'rinib turibdiki, bahorgi, ya'ni vegetatsiya boshida uzum yetishtirilayotgan dala maydonining 0-50 sm qatlamini namlantirish uchun suv berilganda, tuproqdagi namlik miqdori uning og'irligiga nisbatan 17,9% atrofida, 0-100 sm qatlamda esa 18,1% atrofida bo'lishi kerak ekan. Tavsiya etilgan sug'orish rejimida sug'orish tuproq namligining pasayishi bilan 0-50 sm 80% gacha, va sug'orish vaqti Shtoiko D.A. formulasidan foydalangan holda Shaxrisabz meteostansiyasi ma'lumotlari asosida aniqlandi.

$$E_B = \sum t \left(0,1\bar{t}_c - \frac{\bar{a}}{100} \right)$$

$$E_B = \sum t \left[0,1\bar{t}_c + \left(1 - \frac{\bar{a}}{100} \right) \right]$$

Yev - davr uchun madaniyatning bug'lanishi, $\bar{t}_c$ va $\bar{a}$ - davr uchun kunlik o'rtacha harorat, namlik va namlik, $\sum t$ - davrdagi o'rtacha kunlik harorat yig'indisi. 0-50 sm qatlamda tuproqning eng kichik namlik sig'imi 25,3%, 0-100 sm qatlamda 24,4%, quyma zichligi mos ravishda 1,19 va 1,34 g / sm³ ni tashkil qiladi.

Sug'orishning aniq darajasi (mH) quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$m_H = (W_{HB} - W_{nn}) \cdot h \Delta \cdot 100$$

Bu yerda; $W_{HB} - W_{nn}$ p- eng kichik namlik sig'imi va optimal sug'orish namligi, quruq tuproq massasining %; h- hisoblangan namlash qatlami, m; Δ - hisoblangan namlash qatlaminin hajmli massasi, g/sm³. S.N.Rijovning quyidagi formulasi orqali hisoblandi:

$$M = 100 \cdot h \cdot d \cdot (W_n - W_m) + K \text{ m}^3/\text{ga}$$

Bu yerda: W_n - tuproq og'irligiga nisbatan cheklangan dala nam sig'imi, %;

W_m -tuproq og'irligiga nisbatan sug'orishdan oldingi absolyut namlik, %;

h-sug'orilayotgan maydonning namlanish chuqurligi, m;

d-sug'orilayotgan maydonning hisobiy qatlamdagi hajm massasi, g/sm³;

K-sug'orish davrida bug'lanishga sarflangan suv sarfi koeffitsiyenti, (hisobiy qatlamda yetishmagan namlikning 10-15%)

Tadqiqot natijalari: Uzum organizmining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy cheklovchi omillardan biri tuproqdagi namlik miqdori, shuningdek, uning mavjudligi darajasidir. Ildiz tizimining assimilyatsiya qilish kuchidan oshib ketadigan kuch bilan tuproqda saqlanadigan namlik uzumka etib bo'lmaydigan hisoblanadi. Agar uzum uchun ildiz tizimining so'rish kuchi nisbatan doimiy qiymat bo'lsa, u holda tuproqning suvni ushlab turish qobiliyati tuproq namligi, kimyoviy va mineralogik tarkibi, biologik faolligi va boshqalarga qarab juda katta farq qiladi. Tuproqning osmotik bosimi qanchalik past bo'lsa, suvning harakatchanligi (u qattiq faza bilan kamroq bog'liq) va uning uzumlar uchun mavjudligi shunchalik yuqori bo'ladi [67, 68]. Tuproqdagi namlikning har o'n yillikning oxiri va boshida hisoblangan qatlamdagi ma'lum zaxiralari (haqiqiy namlik asosida) 13, 14, 15- ilovalarda keltirilgan. Tajriba uchastkasining eng past namlik sig'imi qiymatlari. eksperimental variantlar 12- ilovada keltirilgan. Kutilganidek, 2019 yilda eng katta namlik zaxiralari tajribaning uchinchi, eng namlangan variantida kuzatildi va sug'orish davrida o'rtacha 973 m³/ga (0-30 sm qatlamda) ni tashkil etdi. Tajribaning birinchi va ikkinchi variantida tuproqning namlik zaxirasi mos ravishda 906 m³/ga va 844 m³/ga teng bo'lgan. Namlik zaxirasining eng past qiymati sug'orish davrida

(maydan avgust oyining o'rtalarigacha) to'rtinchi (nazorat) variantida kuzatildi - 720 m³/ga. Namlik zahirasi minimal qiymatlari iyul oyining birinchi va uchinchi o'n kunligida tajribaning nazorat variantida qayd etilgan: 402 m³/ga va mos ravishda 432 m³/ga. 2019 yilda nafaqat namlangan tuproq qatlamining 10 sm ga ko'payishi (taxminiy sug'oriladigan qatlam 0-40 sm edi), balki ko'proq nam meteorologik sharoitlar fonida ko'rib chiqilayotgan gorizontning o'rtacha zichligining oshishi ham kuzatildi. , buning natijasida tuproqdagi namlik zahiralar ko'proq edi. Hisoblangan qatlamning namlik zaxirasi sug'orish davrida o'rtacha I variantda (NV 70%) - 1216 m³/ga, II variantda (60% NV) - 1091 m³/ga, III variantda (NV 80%). – 1299 m³/ga va IV variantda (sug'orishsiz) – 1040 m³/ga. Nazorat variantida (IV) namlik zahiralarining minimal qiymatlari bo'lgan uchta cho'qqi bor edi, ular may oyining uchinchi o'n kunligida (883 m³ / ga), iyun oyining ikkinchi o'n kunligida (852 m³/ga) va avgust oyining birinchi o'n kunligida (803 m³/ga). Avgust oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab kuchli va uzoq davom etgan yog'ingarchiliklar natijasida tuproq namlik zaxiralari o'rtacha 1274 m³/ga ga teng bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, 2013 yilda sug'oriladigan qatlam 50 sm ni tashkil etdi. I variantda (70% IC) davr 1469 m³/ga, II variantda (60% NV) – 1373 m³/ga, 3-variantda (80% NV) – 1588 m³/ga va IV variantda (siz sug'orish) – 1303 m³/ga. Namlik zahiralarining minimal qiymatlari iyun oyining uchinchi o'n kunligida (820 m³ / ga) nazorat variantida (sug'orishsiz) qayd etilgan. Tuproqning namlik zahiralar bo'yicha uzumlarni etishtirish shartlarini tahlil qilish, u erishib bo'lmaydigan namlikni hisobga olgan holda suvning umumiy miqdorini ko'rsatadi. Shu sababli, mavjud namlik oralig'iga katta e'tibor qaratiladi, ular ichida eng qulay rivojlanish

sharoitlari yuzaga keladi. Har bir tajriba variantida mahsuldor namlik miqdorini aniqlash uchun uzumlar uchun yetib bo'lmaydigan namlik zahiralar aniqlandi.

Olib bo'lmaydigan namlik qiymatlarini olish uchun namlangan qatlam uchun maksimal gigroskopiklikning o'rtacha og'irligi ishlatilgan. Solgunlik koeffitsienti 1,5 deb qabul qilindi. O'simliklar yeta olmaydigan namlik zaxirasi 2019 yilda 0-30 sm qatlamda 426 m³/ga, 2020 yilda 0-40 sm qatlamda 539 m³/ga, 2013 yilda 0-50 sm qatlamda – 640 m³/ga.


2019 yil uchun sug'oriladigan davr uchun hosil namligining zaxirasi I variant bo'yicha o'rtacha 477 m³/ga, II variantda – 418 m³/ga, III variantda – 548 m³/ga, IV variantda – 291 m³/ga tashkil etdi (1-jadval.) .

1-jadval

Tajriba uchastkasi tuprog'ida 2019 yil vegetatsiya davri uchun 0-30 sm qatlamdagi unumdor namlik zaxirasi.

oylar	dekad a	O'lchoq birigi	I variant (70%)		II variant (60%)		III variant (80%)		IV variant (nazorat)	
			Boshlanish i	tugash i	Boshlanish i	tugash i	Boshlanish i	tugash i	Boshlanish i	tugash i
may	1	M ³ /ra	421	451	418	458	421	448	420	434
	2	M ³ /ra	561	493	561	498	561	493	551	492
	3	M ³ /ra	406	436	393	434	400	447	435	428
iyun	1	M ³ /ra	436	429	434	343	567	541	428	260
	2	M ³ /ra	429	502	343	423	616	568	260	253
	3	M ³ /ra	502	424	423	331	596	534	253	74
iyul	1	M ³ /ra	421	423	314	302	541	520	74	-24
	2	M ³ /ra	423	508	302	513	520	628	-24	194
	3	M ³ /ra	508	406	432	340	545	657	194	-2
avgust	1	M ³ /ra	676	566	628	487	657	626	581	421
	2	M ³ /ra	566	520	487	341	626	556	421	289
	3	M ³ /ra	520	484	341	477	556	496	289	445
sentyabr	1	M ³ /ra	484	471	477	493	496	482	445	487
	2	M ³ /ra	471	514	493	502	482	500	487	508
	3	M ³ /ra	514	491	502	481	500	469	508	479

A.F.Vadyunina va Z.A.Korchagina [13,16] tasnifiga ko'ra, 0-20 sm tuproq qatlamida 400 m³/ga dan ortiq mahsuldor namlik zahiralar yaxshi deb hisoblanadi (1-rasm). 1), II variant ham optimalga yaqin.




1-rasm 2019 yilda 0-30 sm qatlamdagi mahsuldor namlik zahiralarining o'rtacha o'n kunlik qiymatlari dinamikasi

Tajribaning IV (nazorat) variantida tuproqdagi mahsuldor namlik zahiralarning sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi, uning cho'qqilari iyul oyining 1 va 3 o'n kunligiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, ushbu o'n yilliklarning ba'zi kunlarida tuproq namligi barqaror o'simliklarning namligidan pastga tushdi. Tajriba variantlarida namlik zahiralarning ko'payishi va tenglashishiga avgust va sentyabr oylarida yog'ingarchiliklar, shuningdek, avgust oyining ikkinchi o'n kunligida sug'orish davrining to'xtab qolishi yordam berdi. Ekishdan so'ng sug'orishni yo'lga qo'yish natijasida tajribaning barcha variantlarida may oyida mahsuldor namlik zahiralari deyarli bir xil qiymatlarni oldi. 2020 yilda sug'oriladigan davr uchun 0 - 40 sm qatlamdagi mahsuldor namlik zahiralarning o'rtacha qiymatlari I variant uchun 668 m³ / ga, II variant uchun 575 m³ / ga, III variant uchun 760 m³ / ga, IV variant uchun – 490 m³/ga. Har o'n yillikning oxiri va boshidagi mahsuldor namlik zahiralarning qiymatlari 2-jadvalda ko'rsatilgan

2-jadval

**Uzum mavsumi uchun tajriba uchastkasi
tuproq'ida 0-40 sm qatlamdagi
mahsuldor namlik zahiralari. 2019 yil.**

oylar	dekada	O'lchov birligi	I variant (70%)		II variant (60%)		III variant (80%)		IV variant (nazorat)	
			Bosh- lanishi	tugashi	Bosh- lanishi	tugashi	Bosh- lanishi	tugashi	Bosh- lanishi	tugashi
may	1	m ³ /ga	701	790	699	757	704	787	693	771
	2	m ³ /ga	790	651	556	445	787	807	598	478
	3	m ³ /ga	651	587	445	413	807	710	478	400
iyun	1	m ³ /ga	587	825	413	592	710	829	400	620
	2	m ³ /ga	825	740	592	570	829	713	620	617
	3	m ³ /ga	617	584	570	414	763	706	617	534
iyul	1	m ³ /ga	558	556	422	411	715	715	534	329
	2	m ³ /ga	556	665	411	525	710	726	329	375
	3	m ³ /ga	665	601	525	449	726	746	375	338
avgust	1	m ³ /ga	587	621	433	494	774	760	338	265
	2	m ³ /ga	673	849	494	748	816	833	378	681
	3	m ³ /ga	849	715	748	777	833	726	681	740
sentyabr	1	m ³ /ga	715	729	777	745	726	743	740	776
	2	m ³ /ga	729	685	745	701	743	685	776	740
	3	m ³ /ga	685	696	701	730	685	698	740	762



2-rasm. 2019 yilda 0-30 sm qatlamdagi mahsuldor namlik zahiralarning o'rtacha o'n kunlik qiymatlari dinamikasi

Mevali bog'larni sug'orishda suv tejamkor usul – tomchilatib sug'orish tarmoqlaridan foydalanishda sarflanayotgan suv miqdorlari hamda sug'orishga ketayotgan harajatlarni hisoblab borish yil yakunida bog'dan olinayotgan sof daromadni aniqlash uchun juda muhimdir. Ushbu xudud tuproqlari sharoitida olib borilgan tajriba dalasida uzumzor tuproqning 0,3–0,5 va 0,7 m qatlamlarini namlik bilan ta'minlab tomchilatib sug'orish tizimi orqali sug'orib yetishtirildi. Bunda nazorat varianti tuproqning 0,7 m qatlamini namlik bilan ta'minlab CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibda sug'orildi. Bog' va uzumzorlarni oziqlantirish uchun xo'jalikda qo'llanilgan me'yorlar, ya'ni bir gektar maydonga 120 kg azot, 90 kg fosfor hamda 30 kg miqdorda kaliy o'g'itlari qo'llanildi. Ushbu variantda mavsumiy sug'orishlar soni 7 martani, suv sarfi esa 1925 m³ /ga ni, uzum hosildorligi 28,3 t/ga. ni tashkil etdi.


7-formula yordamida Uzumzorda joylashgan uzumlar sonini hisoblab chiqqandan so'ng, biz bitta uzumzordan evapotranspiratsiya ko'rsatkichini quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$ET_0 = k_p E_0$$

Bu yerda: K_p - bug'latgich konstruksiyasini hisobga oluvchi ko'effitsiyent bo'lib uning qiymati bug'latgichning joylashuvi holatiga muvofiq ko'effitsiyenti (past biomassa uchun 0,4; to'liq biomassa uchun 0,8); E_0 - bug'langan suv chuqurligi, mm. Bunda qishloq xo'jaligi ekini bilan qoplangan maydondan bo'ladigan evapotranspiratsiya miqdori qo'yidagicha aniqlandi:

$$ET_c = k_c ET_0$$

Bu yerda: k_c - o'simlik turi va o'sish bosqichini hisobga oluvchi ko'effitsiyent. Uzum navlarini evapotranspiratsiyasini oylar bo'yicha o'zgarishi quyidagi grafikda (3-rasm) keltirildi.



3-rasm. evapotranspiratsiya miqdori

Yuqoridagi 3-rasmdan ko‘rinadiki evapotranspiratsiya miqdori 2017-2019 yillar davomida haroratga bog‘liq ravishda o‘zgarib borgan. Ya‘ni, dekabr-fevral oylarida kamroq aksincha sentyabr-iyun oylarida ko‘proq bo‘ldi. Tuproqning namlanish chuqurligini 0,5 m. ga tushirilishi nazorat variantga nisbatan yuqori hosildorlikni ta‘minlashi mumkin, biroq 0,8 m qatlamni namlik bilan ta‘minlashga nisbatan sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ldi.

Tabiiy mahalliy oqim suvlari ta‘sirida yig‘ilgan suv yuvilishni keltirib chiqaruvchi eng muhim omil bunga asosan qiyalikning shakli, uzunligi hamda nishabligidir. Tekislikdagi qiyaliklarga nisbatan tog‘ oldi mintaqalaridagi qiyaliklarda tuproqni yemirilish jarayonlari faolroq kechadi. Qiyalik nishabligi oqim tezligini ko‘chaytiradi, uzunligi esa miqdorini ko‘paytiradi. Yana shuni aytish kerakki, tuproqning yirik, og‘ir zarrachalari va mikroagregatlari suv oqimining tubida yengil va mayda zarrachalar esa suv oqimining yuza qismida harakatlanadi. Markaziy Osiyo hududi daryolari uchun erigan qop va muzliklar suvlari hisobiga shakllangan Q_{max} ni hisoblash uchun Yu.M.Denisov quyidagi ifodani tavsiya qiladi.[5]

$$\bar{M} = \frac{0.325 * h}{2,64 * \delta h + 0.020\sqrt{h}} : \text{л/сек, км}^2$$


Bu ifodada: h-to‘lin suv davri oqimining qalinligi, mm;

δh -havza balandligining o‘rtacha kvadratik chetlanishi.km




4-rasm. Oqim suvlarini yig‘ish holati.

Rasmda Alisher ota fermer xo‘jaligida tabiiy yomg‘ir suvlari yig‘ilgan havuz maydoni. 1.Yig‘ilgan suv maydoni uzunligi 3,8 m, chuqurligi 2 m va eni 2,2 metrnlarni tashkil etadi. Fermer dalasida 3 qatorli ekilgan “Sulton navli” uzumni sug‘orish ishlari olib borildi. Tog‘ oldi mintaqalaridan bog‘ va uzumzorlarni yetishtirishda birinchi xolatda yig‘ilgan suvdan samarali foydalanishda keyingi egatlarga tushishi 2 rasmda o‘tkazish xolatlari keltirilgan.



5-rasm. Oqim suvlarini yig‘ish xolati.

Tog‘ oldi mintaqalaridan uzumzorlarni yetishtirishda birinchi xolatda yig‘ilgan suvdan samarali foydalanishda keyingi egatlarga tushishi uchun jumraklari ochilib, keyingi egatlarga o‘tkazish xolatlari keltirilgan. Yog‘ingarchilik tufayli tushayotgan yomg‘ir tomchilari tushishi natijasida tuproqning yuza yuvilish jarayonlari, jala-yomg‘irlarning tomchisi yer betiga kuch bilan tomchilanib, yonbag‘irdagi tuproq bo‘lakchalarini (agregatlarini) mayda zarrachalarga parchalab atrofga sachratadi va shu paytda qiyalikda paydo bo‘lgan kuchli suv oqimi, tuproq zarrachalarini eritib, oqim loyqalanib tuproqni suv o‘tkazuvchanlik holatini susaytiradi.



6-rasm. Dala sharoitida uzumzorni sug'orish holati.

Qashqadard viloyati Yakkabog' tumani B.Xudoyorov suv iste'molchilari uyushmasiga qarashli "Alisher ota" fermer xo'jaligini 4 sotix yer uchastkasini 6 qator bo'yicha tabiiy mahalliy oqim suvlari bilan sug'orish ishlari olib borilgan ishlarni ko'zlash mumkin.

Mahalliy oqim suvlari yig'adigan hovuzni ichki va tashqi qismlarini plyonka bilan suvni shimilishi va bug'lanishini oldini olinadi.

Xulosa

Suvga bo'lgan talabni yumshatish maqsadida sug'orishni yangi texnologiyasini tog' va tog' oldi mintaqalaridagi sug'oriladigan maydonlar nisbatan kichik konturli, murakkab relief, yuqori nishablilik bilan tavsiflanadi. An'anaviy egat olib sug'orishning eng asosiy kamchiliklari egat uzunligi bo'yicha namlikning bir tekis taqsimlanmasligi hamda tashlama va filtratsiyaga suv isrofining ulkanligidir. Shuning uchun bu yerlarda resurstejamkor, irrigatsion eroziya va tuproq suffoziyasini oldini olishni ta'minlaydigan, iqtisodiy jihatdan arzon, foydalanish darajasi oson bo'lgan sug'orish tarmoqlarini tavsiya etish zarur. Biz tavsiya etayotgan sug'orish texnikasi va texnologiyasi quvvatli tarmoqlardan iborat bo'lganligi sababli ishlab chiqarish jarayonini va hozirgi kunning dolzarb zaruriyatlaridan bo'lgan suv bo'lgan talabi aniqligi va muntazamligini ham ta'minlash imkonini beradi.

Bog' va uzumzorlarda qo'llash uchun biz tavsiya etayotgan noan'anaviy

sug'orish texnikasi "Oqim suvlari yig'ish va taqsimlab berish" tamoyiliga asoslangan. Sug'orish ko'chat qatorlari bo'ylab ochilgan egatlarning boshidan oxirigacha juda qisqa masofalarda (1,5-4,0 m.), aniqlangan bir xil miqdordagi suv sarflarini taqsimlab berish natijasida amalga oshiriladi. Biz tavsiya etgan "Oqim suvlari yig'ish va taqsimlab berish" Samarqand viloyati Bulung'ur tumani joylashgan "Alisher ota" fermer xo'jaligi 1 gektar uzumzor dalasida tajriba uchastkada olib borildi. Oqim suvlari yig'adigan suv hovuzidir. Suv yig'adigan hovuzni umumiy maydoni ya'ni eni 3 m, chuqurligi 4 m, uzunligi 2,5 metrlarni ya'ni yig'iladigan suv 30 m³ tashkil etadi. Sug'orishni yangi texnologiya bu maxalliy oqim suvlari yig'ib suv tanqis bo'lgan bir paytda uzumni sug'orishda qo'llanildi. Yig'ilgan suv orqali uzumzorlarni sug'orishda iyun va iyul oylarida issiq bo'lishi va namlik yetishmasligidan xosildorlik kamayib ketadi, shu holatda yig'ilgan suvdan sug'orishda foydalanish natijada uzum xosildorligi nisbatan o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Программа «Улучшение производства овощей, бахчевых, картофеля, фруктов и винограда и их комплексное размножение в 2015-2018 годах» Министерство сельского и водного хозяйства Республики Узбекистана. Т., 2003., 14-стр.

2. «О мерах по дальнейшему улучшению мелиоративного состояния орошаемых земель и рациональному использованию водных ресурсов на период 2013-2017 годы» Постановление Президента Республики Узбекистан от 19.04.2013 г. № ПП-1958,

3. Мирзаев М.М., Собиров М.Қ.- Садоводство-//Т.,Мехнат, 1987г.,126-б.

4. Sommer, R., Glazirina, M., Yuldashev, T., Otarov, A., Ibraeva, M., Martynova, L., Bekenov, M., Kholov, B.,

Ibragimov, N., Kobilov, R., Karaev, S., Sultonov, M., Khasanova, F., Esanbekov, M., Mavlyanov, D., Isaev S., Abdurahimov, S., Ikramov, R., Shezdyukova, L., De Pauw, E.: Impact of climate change on wheat productivity in Central Asia. *Agronomy Journal*, 78-99 (2013). DOI: doi.org/10.1016/j.agee.2013.06.011

5. Шерматов Е., Палуанов Д.Т., Якубова Х.М. Динамическая модель объема стока реки Амударья. Проблемы освоения пустынь. Международный научно-практический журнал. Ашхабад № 3-4, 2015 г. с. 16-18.

6. Шерматов Е., Исаев С.Х., Ишчанов Ж.К., Исаев Г.Х. Экспресс-метод оценки засоленности мелиорированных орошаемых почв. //East European Scientific Journal, Poland, 2019, 2(42) 2019, Рр.37-41.

7. Якубова Х.М., Шерфединов Л.З., Ишчанов Ж.К. Проблемы формирования и регулирования коллекторно-дренажного стока в бассейне Аральского моря. Improving the efficiency of common pool resources management in transition: keys study of irrigation water and pasture. /InDeCA-6/2015. /57-63 p. Tashkent, 2015.

8. Ишчанов Ж.К., Исаев С.Х., Шерматов Е. Классификация мелиорированных засоленность земель. Ирригаия ва мелиорация журнали, 2-сон. 29-32 б. Тошкент 2015.

9. Ишчанов Ж.К., Худайкулов С.И., Шерматов Ё., Якубов М.А. Математическое моделирование роста и развития сельскохозяйственных культур. Узбекский журнал «Проблемы механики» №1 2016. с. 93-98.

10. Methods of field experiments with cotton under irrigation // Publisher 5 th, Tashkent, 1981, pp. 89-134. (In Russian).

11. Mehtods of conducting field experiments. Tashkent, 2007. P. 148.

12. Dosphehov B.A. “Methods of field experience (the basics of static processing of research results)” //Moscow: Agropromizdat, 1985, 415 pp. (In Russian).

13. Rijov S.N. “Optimum soil moisture in cotton culture” // Soviet cotton, 1940. № 6. (In Russian).

14. Kovda V.A. “Fundamentals of the doctrine of soils” // Publishing Nauka, - No. 2. Moscow, 1973. - p. 29-47 (In Russian).

15. Nazarov R. “Fertilizing cotton on intensive technology” // Journal of Agriculture of Uzbekistan, ISSN 2181-502X, Tashkent, 2014. № 4, p. 9. (In Uzbek).

16. Kostyakov A.N. “Fundamentals of land reclamation” // Moscow: Selkhozgiz, 1960, - p. 621. (In Russian).

17. Bezborodov G.A. and others. “Efficient methods of feeding of water-saving technologies of cotton-and-mineral fertilizers” // PSUEAITI Collection of materials of the international scientifically-practical conference “Selection, seeding and current trends of agrotechnology”, 2016. Section II. - p. 111-115. (In Uzbek).

18. Bepalov N.F., Rijov S.N. “Water consumption and irrigation of cotton on hydromorphic soils” // Tashkent: Bulletin of agricultural science, 1973. № 2, pp. 1-8. (In Russian).

19. Мардиев Ш., Исаев С. – Influence ameliorative condition of irrigated lands of the khorezm region on cotton fertility–/INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH CULTURE SOCIETY, Monthly, Peer-Reviewed, Refereed, Indexed Journal, Accepted on: 25/06/2019.

SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH UCHUN TUPROQNING NAMLANISH CHUQURLIGINI ANIQLASH

Azzamov G‘iyos Xudaynazarovich - Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti, Geomatika muhandisligi kafedrası stajor o‘qituvchisi

Burxonov Toshpulat Sayitvaliyevich - Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti, (PhD) doktoranti

Po‘latov Shohzod Sharofiddin o‘g‘li - Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti, (PhD) doktoranti

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi fermer xo‘jaliklaridagi uzumzorlarni suv bilan ta‘minlash, suv tejash usullari, jumladan, Uzumzorlarda suv tanqis bo‘lgan davrda mahalliy oqimdan foydalanib sug‘orish (yog‘ingarchilik suvlari), tuproq unumdorligini oshirish, plyonka tushab sug‘orish, mahalliy oqim suvlarini yig‘ish haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, har biriga qisqacha ta‘riflar berilgan hamda xulosalar keltirib o‘tilgan. O‘rganilgan tajriba xo‘jaligida joylashgan kuchsiz va o‘rtacha minerallashgan, sizot suvlari 1,8-3 m. gacha joylashgan, o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida intensiv olma bog‘larni sug‘orish me‘yorlarini ishlab chiqish borasida ilmiy izlanishlar olib borildi. Bunda, tomchilatib sug‘orish tizimida tomchilagichlarning suv sarfini soatiga 2 litr qilib belgilab, har bir daraxt uchun birinchi yilda tuproqning 50 sm qatlamini namlantirish uchun 30-40 litr, ikkinchi hamda uchinchi yillarda tuproqning 1 metr qatlamini namlantirish uchun 80-120 litr suv sarflandi. O‘zbekistonning sug‘oriladigan mintaqalarida mevali bog‘ va tokzorlarni sug‘orishda o‘simliklarning biologik talabiga asoslagan sug‘orish me‘yor va muddatlarini belgilash, sug‘orish suvlaridan foydalanish samaradorligini 15-18% ga ortishiga, mehnat va boshqa harajatlarni 40% ga kamayishiga imkon yaratadi. Yuqorida

keltirib o‘tilgan mahalliy oqim suvlarini yig‘ish usullarini qo‘llash orqali bajarilgan ishlar to‘g‘risida ham fikr yuritiladi bundan tashqari tog‘oldi mintaqalarda uzumzorlarni sug‘orishni amalga oshirish bo‘yicha takliflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: suv tejamkor, mevali bog‘ va tokzor, sug‘orish me‘yori, sug‘orish muddati, sug‘orish usuli, intensiv, pakana, yarim pakana, payvandtag, tomchilatib sug‘orish, o‘simlikning biologik talabi.

Аннотация: В статье приведены сведения о водоснабжении виноградников Паркентского района Ташкентской области, методах водосбережения, в том числе орошении местными ручьями (дождевой водой) в периоды маловодия на виноградниках, повышении плодородия почвы, пленочном орошении, сборе воды из местных ручьев. приняты, даны краткие определения каждому и сделаны выводы. Слабые и умеренно минерализованные фильтрационные воды, расположенные в исследуемом опытном хозяйстве, имеют глубину 1,8-3 м. проведены научные исследования по разработке норм интенсивного орошения яблоневых садов в условиях луговых сероземов. При этом в системе капельного орошения расход воды капельниц был установлен на уровне 2 литров в час, причем на каждое дерево на

увлажнение 50-сантиметрового слоя почвы в первый год уходило 30-40 литров, а в первый год - 80. На увлажнение 1-метрового слоя почвы во второй и третий годы ушло по 120 литров. При орошении садов и виноградников в орошаемых регионах Узбекистана установление норм и сроков полива исходя из биологических потребностей растений позволяет повысить эффективность использования оросительной воды на 15-18%, сократить трудозатраты и другие стоит на 40%. Также обсуждаются работы, проделанные с использованием упомянутых выше методов локального сбора речной воды, кроме того, освещены предложения по осуществлению орошения виноградников в горных районах.

Ключевые слова: водосберегающий, плодовые сады и виноградники, поливная норма, сроки полива, способы полива, интенсив, карликовые, полукарликовые, подвой, капельное орошение, биологическая потребность растений.

Abstract: The article provides information about the water supply to vineyards in the Parkent district of the Tashkent region, water saving methods, including irrigation with local streams (rain water) during periods of low water in the vineyards, increasing soil fertility, film irrigation, and collecting water from local streams. accepted, brief definitions of each were given and conclusions were drawn. Weak and moderately mineralized filtration waters located in the experimental farm under study have a depth of 1.8-3 m. Scientific research has been carried out to develop standards for intensive irrigation of apple orchards in the conditions of meadow gray soils. At the same time, in the drip irrigation system, the water consumption of the droppers was set at 2 liters per hour, and for each tree it took 30-40 liters to moisten

a 50-centimeter layer of soil in the first year, and 80 in the first year. 120 liters of soil were used in the second and third years. When irrigating orchards and vineyards in the irrigated regions of Uzbekistan, establishing norms and timing of irrigation based on the biological needs of plants makes it possible to increase the efficiency of use of irrigation water by 15-18%, reduce labor costs and other costs by 40%. The work done using the above-mentioned methods of local collection of river water is also discussed, in addition, proposals for the implementation of irrigation of vineyards in mountainous areas are highlighted.

Key words: water saving, fruit orchards and vineyards, irrigation rate, irrigation terms, irrigation methods, intensive, dwarf, semi-dwarfish, rootstock, drip irrigation, biological plants.

Kirish


Hozirgi kunda jahonda ko'pgina olimlar qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejankor sug'orish usullari, sug'orish texnika - texnologiyalari bo'yicha bir qator ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ekinni yetishtirishda turli xil sug'orish usuli, sug'orish texnologiyalaridan foydalanish maqsadida sug'orish soni, sug'orish tartibi, sug'orish davomiyligi, sug'orish elementlari, sug'orish tizimining texnika - texnologiyasiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: xo'jalikning iqlim sharoiti; tuproq va meliorativ sharoiti; geologik va gidrogeologik sharoiti; gidrologik sharoiti; xo'jalikni iqtisodiy sharoiti; ekin turi va geografik joylashishi; ekinni sug'orish usuli, texnika texnologiyasi; ekinni etishtirishda agrotexnik tadbirlarni tatbiq qilish darajasi. Bu bo'yicha dunyoning bir qator olimlari o'z ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borganlar. Suv tejovchi texnologiyalarning sug'orishdan olingan iqtisodiy samaradorlik quyidagicha: diskrit sug'orishda 32% ni, egatlab sug'orishda

45% ni, egiluvchan quvurlar orqali sugʻorishda 50% ni, yomgʻirlatib sugʻorishda 60% ni, ayrazol sugʻorishda 80% ni, tomchilatib sugʻorishda 90% suv iqtisod qilinish imkoniyati yaraladi. Respublikamizning barcha sohalari, shu jumladan mevalilikni rivojlantirish, meva hosildorligini oshirish va sifatini yaxshilash, aholining meva maxsulotlariga boʻlgan talabini qondirish, eksport hajmini kengaytirish, sugʻoriladigan yer maydonlari va boshqa resurslardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini muntazam oshirib borish, aholi turmush tarzini yaxshilash hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida muhim oʻrin tutadi.

Bogʻdorchilikni yuqori pogʻonaga koʻtarish, tuproq iqlim sharoitlariga mos keladigan mevali daraxt turlari va uzum navlarini yaratish va joylashtirish, ularni yetishtirishda yuqori samaradorlikka ega boʻlgan, yangi va ilgʻor agrotekxnologiyalardan foydalanish, shu yoʻl bilan meva yetishtirish salmogʻini kengaytirish, mamlakat aholisining meva va uzum mahsulotlariga boʻlgan talabini toʻla qondirish hozirgi kunda muhim va dolzarb masalalardan biridir [1,2,3].

Mamlakatda bogʻdorchilikni rivojlantirish maqsadida chet el texnologiyalarini joriy etish, pakana boʻyli, tez hosilga kiruvchi (karlik va polukarlik) meva koʻchatlari va payvandtaglar keltirilib yetishtirila boshlaganiga ham qariyb 9 yildan ortdi. Ushbu koʻchatlarni respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitlarida joylashtirish va parvarishlash ishlari ham bugungi kunda oʻzining ijobiy samarasini bermoqda. Pakana boʻyli olma bogʻlari 80-yillarda Toshkent viloyatining Parkent tumani fermer xoʻjaligida yetishtirila boshlangan, lekin ayrim sabablarga koʻra meva hajmi kichik hamda hosildorligi past boʻlganligi sababli bu sohaga unchalik eʼtibor qaratilmagan. Bugungi kunda yetishtirilayotgan pakana boʻyli olma

daraxti mevalari yirik hamda serhosil boʻlganligi sababli tadbirkor fermer xoʻjaliklari tomonidan zoʻr qiziqish bilan bogʻ maydonlari koʻlami tobora kengayib bormoqda. Ushbu daraxtlarni ekish va parvarishlashda nimalarga eʼtibor qaratish zarur ekanligini oʻrganish maqsadida 2022 yilning boshida Toshkent viloyati Parkent tumani fermer xoʻjaligining 0,4 ga maydonida olma bogʻ barpo qilindi va yosh olma koʻchatlari ikki xil dalada, yaʼni ochiq va bedazor dalasida ekib yetishtirila boshlandi. Bir yillik kuzatishlar shuni koʻrsatdiki ochiq maydonda ekib parvarishlanayotgan olma koʻchatlari gurkin oʻsib rivojlangan boʻlsa, bedazor ichida yetishtirilayotgan olma koʻchatlari bir muncha nozik va boʻyi past boʻlib rivojlanayotganligi maʼlum boʻldi. Bundan koʻrinib turibdiki, koʻchatning ostini maysa bilan qoplanishi uning normal rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatar ekan, bunga sabab koʻchat ostidagi tuproqning quyosh nuridan baxra olmasligi, havo almashinuvi yaxshi boʻlmaganligi deb xulosa qilish mumkin. Aksincha ochiq maydonda parvarishlanayotgan olma koʻchatlari yaxshi rivojlanib, ikkinchi yilda nishona mevalarini koʻrsatdi [4].



1-rasm. Oʻn kunlik yogʻingarchilik miqdori, mm

Izlanish maqsadi: Bogʻdorchilikni rivojlantirish, sara va serhosil mevali daraxt turlarini yaratish va ularni koʻpaytirish, turli tuproq-iqlim sharoitida ularni joylashtirish va parvarishlash boʻyicha olimlar hamda mutaxassislar tomonidan koʻplab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Biz olib borgan ilmiy

izlanishlardan asosiy maqsad, hozirgi suv taqchil bo'lgan sharoitda suvdan samarali foydalanish, sug'orishni to'g'ri tashkil etish, mamlakatimizda izchillik bilan rivojlanib yil sayin kengayib borayotgan intensiv bog'dorchilikda xududning tuproq-iqlim sharoitiga mos sug'orish texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etishdan iboratdir.

Izlanish uslublari: Tajribalarda Toshkent viloyati, Parkent tumani tog' oldi mintaqalari joylashgan, o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida intensiv olma bog'larni sug'orish me'yorlarini ishlab chiqish borasida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Bunda: yosh mevali bog'larni sug'orishda o'rta va og'ir qumoq, sizot suvlari 1,8 metrgacha chuqurlikda joylashgan, mineralizatsiyasi 1 g/l dan kam bo'lgan xududlarda tomchilatib sug'orish tomizgichlarining suv sarfini soatiga 1,5-2 litr qilib belgilab, sug'orish me'yorlarini tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq holtirish uchun 75-130 litr suv sarflab, sug'orishlar soni hamda mavsumiy sug'orish me'yorlari belgilandi.

Yangi mevali bog'larni parvarishlashda tuproqning asosiy ildiz qismi joylashgan qatlamni doimiy ravishda namlik bilan ta'minlab turish ko'chatlarning gurkun rivojlanishi hamda tuproq sharoitiga tezroq moslashib, ildiz tizimini yaxshi shakllanishiga sharoit yaratadi, shuningdek tuproqda oziqa va havo almashinuv jarayoni muqobillashadi. Intensiv bog'larda daraxtlarni o'z holatida biologik tana tuzilishini saqlab qolish uchun uning ildiz qismini tuproqning yuza, 50-70 sm qatlamida oziqlanish sharoitini ta'minlash zarur. Buning uchun esa tuproqni kam me'yorlarda tez-tez namlab turish talab etiladi. Bu borada birinchi navbatda tuproqning mexanik tarkibi, sizot suvlarining joylashish chuqurligi va ularning mineralizatsiya darajasini, shuningdek, joyning reliefini

inobatga olish zarur. Mevali bog'larni sug'orishda sug'orish me'yor va muddatlarini belgilash bo'yicha quyidagi olimlarning ilmiy ishlari ahamiyatga egadir.

Yu.M.Djavakyans (2006), R.M.Abdullayev, A.U.Aripovlar (2011) o'z tadqiqotlarida, olma bog'larida nihollarni parvarishlash, tuproqqa ishlov berish, sug'orish, oziqlantirish va boshqa tadbirlar haqida to'xtalib, mevali bog'larni parvarishlash bo'yicha bir qator tavsiyalar berganlar. Olimlarning fikriga ko'ra hosil beruvchi keksa bog'larda sug'orish me'yorini bo'z tuproqlarda gektariga 800-1000 m³ atrofida belgilab 4-6 marotaba, qumloq va shag'alli yerlarda gektariga 300-500 m³ dan 10-12 marta o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Bu albatta an'anaviy yer ustidan sug'orilganda shu me'yorlarga rioya qilinadi, tomchilatib yoki boshqa suv tejamkor sug'orish usullaridan foydalanilganda chet ellik olimlarning fikriga ko'ra yosh intensiv olma bog'larini sug'orishda tuproqning 60-80 sm qatlamini naltirish, sug'orish me'yorlarini 250-300 m³/ga qilib belgilashni tavsiya etadilar. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan V.N.Oleksich (1991) yosh bog'larni sug'orishga katta e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlagan, shuningdek, yosh ko'chatlar ostini tez-tez 12-15 sm chuqurlikda yumshatilib, har ikki tomonidan sug'orish egatlari ochish, tuproqning mexanik tarkibi va ob-havoning kelishiga qarab tuproq namligini 70% dan kam bo'lmagan namlikda ushlab turish tavsiya etilgan [5,6].

Qor qoplami beqaror. Qish mavsumida qor qoplami bo'lgan kunlar soni o'rtacha 30-34; qor qoplami o'rtacha 2-12 sm. Tuproqlarning muzlash chuqurligi 20-30 sm. Yil davomida keng havo oralig'ida nisbiy namlik va mart oyida u intensiv pasayish boshlanadi. Iyul oyi uchun minimal hisob. Mutlaq namlik

iyul oyida yanvarda 4,4 Mb dan 17,3 mb ga o'zgaradi.

To'yinganlikning etishmasligi issiq mavsumda (apreldan oktyabrgacha) eng yuqori ko'rsatkichlarga, iyun-iyul oylarida (18,4 mb) eng yuqori ko'rsatkichga etadi. Yuqori harorat va namlik tanqisligi katta bug'lanishni keltirib chiqaradi. Yiliga o'rtacha bug'lanish 800-900 mm ga etadi. Eng ko'p oylik o'rtacha bug'lanish 225-265 mm ga etadi (iyul-avgust). Iyuldagi bug'lanish miqdori yanvarga nisbatan 8-10 marta ko'p.

1-jadval

Tajriba tizimi

Variant	Sug'orish usullari	Namlanish chuqurligi	Sug'orish oldi tuproq namligi, CHDNS ga nisbatan % hisobida
1 (nazorat)	Tomchilatib sug'orish	1,0	70-75-65
2		0,75	
3		0,50	
4		0,30	

Tuproq hosil bo'lish jarayonlari va ularning rivojlanish yo'nalishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: iqlimiy, litologik va geomorfologik, gidro-irrigatsiya va maishiy. Ko'rib chiqilayotgan hudud iqlim sharoitiga ko'ra markaziy paxta zonasiga kiradi. Vertikal rayonlashtirish belbog'li tipik bo'z tuproq bilan chegaralangan bo'lib, kamarning yuqori sharqiy tomoniga, pastki qismi esa Sirdaryoda och bo'z tuproqlarga o'tadi. Tuproq hosil bo'lish jarayonlari va ularning rivojlanish yo'nalishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: iqlimiy, litologik va geomorfologik, gidro-irrigatsiya va maishiy. Uslubiy qoidalar bog'da tomchilatib sug'orishning amaliy tajribasini keng umumlashtirish bo'yicha nazariy va dala tadqiqotlari (ITI) natijalariga asoslangan. Ilmiy ishlar A.N. Kostyakovaning dala tadqiqotlari standart va maxsus ishlab chiqilgan usullar yordamida amalga oshirildi, natijalarning ishonchliligi tadqiqotlar natijalarini tekshirish orqali baholandi. Tajribalarda quyidagi kuzatishlar, hisoblashlar va ta'riflar o'tkazildi:

- tuproqlarning morfologik tavsiflari. Buning uchun tajribalarni o'tkazishdan oldin yer osti suvlari darajasiga qadar tuproq uchastkasi yotqizildi va tuproq profilining genetik gorizontlar bo'yicha tavsifi amalga oshirildi;

- tuproqning granulometrik tarkibi tuproq uchastkalaridan olingan namunalarda natriy geksametofosfat yordamida pipetlash yo'li bilan aniqlangan;

- tuproqning hajmli massasi 10 sm balandlikdagi po'lat tsilindrlar yordamida aniqlandi. Aniqlash sanalari - har bir tajriba yilining vegetatsiya davrining boshida, 10 sm qatlamlarda bir metr chuqurlikda;

- tuproqning eng kichik namlik sig'imi tadqiqot boshida 3x2 m2 suv bosgan joylar usuli (Rozov usuli) bilan aniqlangan;

- tuproqning suv o'tkazuvchanligi tadqiqot boshida va oxirida Nesterov usulida silindrsimon doiralar yordamida aniqlangan;

- tuproq namligi termostatik tortish usulida va VNP-1 portativ neytronli gigrometr yordamida aniqlandi. Barcha takrorlashlarning har bir variantida tuproq namunalari har 10 smda bir nuqtadan 0-100 sm chuqurlikgacha olindi. Saytning suv balansini tuzish uchun o'simlik mavsumining boshida va oxirida er osti suvlari darajasiga tuproq namunalari olindi;

- kuzatuv quduqlari o'rnatilgan tajribalarni ikkinchi takrorlashning barcha variantlari bo'yicha GW darajasining dinamikasi o'rganildi;

- tuproqdagi chirindi miqdori N.V.Tyurin usuli bo'yicha tajribalar qo'yishdan oldin aniqlangan;

- har bir sug'orishda xo'jalik ichidagi dispenserdagi sug'orish suvini hisobga olish Chipoletti va Tomson suv o'tkazgichlari yordamida amalga oshirildi;

Tomchilatib sug'orishning innovatsion usullari va egiluvchan quvurlar va polietilen plyonkalardan foydalangan holda sug'orish maydoni 2018 va 2019 yillarda mos ravishda 1880 va 2350 ga, egiluvchan quvurlar yordamida 2500 ga va 4000 ga, polietilen va plyonkalar bilan sug'orish 2018 va 2019 ga tashkil etdi. yili - 1000 ga. Sug'orish tizimlarini loyihalashda va qishloq xo'jaligi ekinlarining suv rejimini tartibga solishda ko'pincha bioklimatik yondashuv asosida umumiy suv sarfini hisoblash usullari qo'llaniladi. Ushbu usullarda namlikdan foydalanishda o'simliklarning roli bioiqlim koeffitsientlari bilan ifodalanadi, ularning qiymatlari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan eksperimental ravishda o'rnatilgan [6,7,9].

Ushbu koeffitsientlarning qiymatlari o'simlikning rivojlanish bosqichiga va vegetatsiya davrining meteorologik sharoitlariga bog'liq bo'lib, har bir o'simlik uchun individual xususiyatga ega va uzoq muddatli o'rtacha qiymatlardan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shunga qaramay, ma'lum bir agroiqlim sharoitida har bir ekin turining koeffitsientlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli ma'lumotlar bazalarini yaratish zarurati mavjud bo'lib, bu ma'lum bir yil uchun uzoq muddatli sharoitlardan farq qiladigan tuzatish qiymatlarini aniqlash imkonini beradi. muddatli o'rtacha. Bugungi kunda ma'lum sharoitlar uchun nafaqat bioiqlim koeffitsientlarini hisoblash, balki juda aniq evapotranspiratsiya ma'lumotlarini olish imkonini beruvchi bir qator dasturiy paketlar mavjud. Tajribalarda olingan bioiqlim koeffitsientlari nafaqat aniqlashtirish, balki dasturiy paketlarni hisoblash algoritmlarini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimizda eng keng tarqalgan hisoblash usullari G.K. tomonidan taklif qilingan usullardir. Lgov, I.A. Sharov va N.V. Danilchenko.

N.V.Danilchenko o'z formulasida N.N.Ivanov formulasi bo'yicha hisoblangan bug'lanish qiymati orqali bug'lanish qiymatlarini aniqladi [9,10, 11]:

$$ET = K_6 \cdot \Sigma E_0, \text{ mm}$$

bu yerda K_6 - biologik koeffitsient;
 ΣE_0 - hisob-kitob davri uchun bug'lanishning umumiy qiymati, mm.

Biofizik koeffitsientning qiymati G.K. Lgova [6, 22, 79, 104, 115] formuladan olingan:

$$ET = K_b \cdot \Sigma T_0, \text{ mm}$$

bu yerda K_b - biofizik koeffitsient;
 ΣT - hisob-kitob davri uchun o'rtacha kunlik haroratlar yig'indisi, S^0 .

I.A.Sharovning bug'lanish moduli [6,12,14] formula bo'yicha hisoblangan 1^0S da o'simliklarning suv sarfini ko'rsatadi:

$$ET = e \cdot (\Sigma T + 4B), \text{ mm}$$

bu yerda e - bug'lanish moduli, 1^0S uchun mm;

ΣT - o'rtacha kunlik haroratlar yig'indisi, S^0 ;

B - hisob-kitob davridagi kunlar soni.

Turli xil mavjud bo'lgan uch yillik tadqiqot uchun har bir eksperimental variant uchun bioiqlim koeffitsientlari qiymatlarini hisoblashning o'n kunlik natijalari 3.5.1-3.5.3-jadvallarda keltirilgan. Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, koeffitsientlarning eng yuqori qiymatlari tadqiqotning barcha yillari uchun eksperimentning III variantiga tegishli.

May oyining 3-o'n kunligidan avgust oyining 3-o'n kunligigacha bioiqlim koeffitsientlari eng katta qiymatlarni oladi, maksimal qiymatlar iyun oyining 2-o'n kunligidan 1-iyungacha bo'lgan davrda qayd etilgan. avgust oyining o'n kunlik davri. Tuproq namligining sug'orishdan oldingi

chegarasi 80% NV dan 70% NV ga tushirilganda, o'rganish yillari uchun bioiklim koeffitsientlarining qiymati o'rtacha 10-15% ga o'zgaradi va sug'orishdan oldingi chegara 70 dan tushirilganda. % NV dan 60% gacha NV - 9-17% gacha.

A.N.Kostyakov infiltratsiyani matematik tahlil qildi. Ushbu murakkab jarayonning xususiyatlari uchun quyidagi ko'rsatkichlarni taklif qildi [11; 380-b].

$$K_t = K_\phi \cdot t^a \quad \text{m/s}$$

(4)


bunda: K_t , K_1 - suvning birinchi soatdan keyingi shimilish tezligi, m/s;

K_ϕ - suvning shimilishdagi o'zgarish tezligi m/s;

t^a - infiltratsiya tugashi va shimilish barqarorlashgan vaqt, soat;

a - infiltratsiya egri chizig'i ko'rsatkichi.

Yuqoridagi (4) tenglamani logarifmlaymiz




2-rasm. Tuproq namlanishining kapillyar naychasidagi maksimal ko'tarilish tezligi.


Shu muammolarni hal etish borasida, mamlakatda suv tejamkor sug'orish texnika va texnologiyalarini qishloq yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 iyundagi "Tomchilatib sug'orish tizimini va boshqa suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi [13,16].

Bundan kelib chiqqan holda barpo etilgan mevali bog'larni sug'orishda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish va ularni takomillashtirish, har bir ekin turining biologik talabiga

asosanlangan holda sug'orishni tashkil etish, asosiy e'tiborni avtomatlashtirilgan sug'orish texnologiyalarini joriy etishga qaratish zarur.



3-rasm. Tuproqning namlanish chuqurligiga bog'liq holda mavsumiy suv sarflari, m³/ga



4-rasm. Tuproqning namlanish chuqurligiga bog'liq holda meva izlanish natijalari

Mevali bog'larni sug'orishda suv tejamkor usul - tomchilatib sug'orish tarmoqlaridan foydalanishda sarflanayotgan suv miqdorlari hamda sug'orishga ketayotgan harajatlarni hisoblab borish yil yakunida bog'dan olinayotgan sof daromadni aniqlash uchun juda muhimdir. Ushbu xudud tuproqlari sharoitida olib borilgan tajriba dalasida intensiv olma bog'i tuproqning 0,5-0,8 va 1,0 m qatlamlarini namlik bilan ta'minlab tomchilatib sug'orish tizimi orqali sug'orib yetishtirildi. Bunda nazorat varianti tuproqning 1,0 m qatlamini namlik bilan ta'minlab CHDNSga nisbatan 75-80-70% tartibda sug'orildi. Bog'larni oziqlantirish uchun xo'jalikda qo'llanilgan me'yorlar, ya'ni bir gektar maydonga 250 kg azot, 200 kg fosfor hamda 75 kg miqdorda kaliy o'g'itlari qo'llanildi. Ushbu variantda mavsumiy sug'orishlar soni 14 martani, suv sarfi esa 2925 m³/ga ni, olma hosildorligi 28,3 t/ga. ni tashkil etdi. 0,8 m tuproq qatlamini

namlik bilan ta'minlab sug'orishlar o'tkazilgan 2-variantda sug'orishlar soni 16 martani, mavsumiy suv sarfi 2784 m³/ga. ni va hosildorlik 34,7 t/ga. ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 0,5 m tuproq qatlamini namlik bilan ta'minlab sug'orilgan 3-variantga nisbatan 4,6 t/ga. ga, 1,0 metr tuproq qatlami namlik bilan ta'minlab sug'orilgan nazorat variantiga nisbatan 6,4 t/ga. ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Tuproqning 0,5 m qatlamini namlik bilan ta'minlab, 17 marta sug'orilgan 3-variantda mavsumiy suv sarfi 2658 m³/ga. ni, meva hosildorligi esa 30,1 t/ga. ni tashkil etdi (3-va 4-rasmlar). Tuproqning namlanish chuqurligini 0,5 m. ga tushirilishi nazorat variantga nisbatan yuqori hosildorlikni ta'minlashi mumkin, biroq 0,8 m qatlamni namlik bilan ta'minlashga nisbatan sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'ldi.

Xulosalar

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi tog' oldi hududidagi tajriba xo'jaligida joylashgan kuchsiz va o'rtacha minerallashtirgan, sizot suvlari 1,8-3 m. gacha joylashgan, o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida intensiv olma bog'larni sug'orish me'yorlarini ishlab chiqish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlardan xulosa:

– o'rta va og'ir qumoqli o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida intensiv olma bog'larini yetishtirishda, sug'orish oldin tuproq namligini 70-75-65 % (CHDNSga nisbatan) tartibda, tuproqning 0,5 m qatlamini namlik bilan ta'minlab, mavsum davomida 750-800 m³/ga suv sarflab 14- 16 marta tomchilatib sug'orishni amalga oshirish, 1 metr tuproq qatlamini namlik bilan ta'minlab sug'orishni tashkil etishga nisbatan 15,2% sug'orish suvini iqtisod qilish imkonini beradi;

– intensiv olma bog'larini tuproqning 0,8 m hisobiy qatlamini namlik bilan ta'minlab, 40-45 m³/ga me'yorlarda tez-tez sug'orib yetishtirilganda, 1 m

hisobiy qatlamni namlik bilan ta'minlab sug'orilganga nisbatan 6,4 s/ga yuqori olma hosili olishga erishiladi.

O'sish davri o'rtalarida tuproqqa suv shimilish darajasi va filtrlash ko'effitsiyenti boshlanishiga nisbatan biroz pasayildi. Buning sababi, sug'orish natijasida tuproqning eng kichik zarralari dalalarga kirib, kolmatatsiya bo'lib, (ular teshiklarni berkitib) filtrlashni qisman kamaytiradi, sug'orish va mexanizatsiyalashtirilgan ishlov berish natijasida tuproq zichligi paydo bo'ladi. Absorbsiya, shimilish tuzi va filtrlash ko'effitsiyentlarining vaqt ichida, vegetatsiya boshida va o'rtalarida o'zgarishining tabiati 2- rasmda ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017 yil 14 yanvar.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "2013-2017 yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. [www. gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)

3 Mirziyoyev Sh.M. //Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. "O'zbekiston" -2017. 39-43 b.

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 320-sonli qarori. 21 iyul 2003 yil.

5 Abdullayev R.M., Aripov A.U., Nabiyeu U.Ya. //Fermer xo'jaliklarida meva navlaridan yuqori hosil olish agrotexnikasi. - Toshkent, 2011 y.

6 Adriyen van Gelder, Ralf van Gelder, Gerald Gyunter. Kornelyu Eftodi, Nadirbek Kachkinbayev tahriri ostida // Mening serdaromad xo'jaligim. - Bishkek: Maksima, 2016. - 311 b.

7 Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. - Moskva: Agropromizdat, 1985. - 351 s.

8 Кирейчева Л.П. и др. Влияние капельного орошения на рост и развитие саженцев яблонь на карликовых подвоях в условиях Джамбульской области // Журнал Сельскохозяйственные науки. - Волгоград, 2017. - Выпуск №2.

9 Yu.D.Djavakyans. O'zbekistonning bog'larida tuproqqa ishlov berish bo'yicha tavsiyalar. - Toshkent, 2006. - 34 b

10 Рыбалко О.Б. //Режим орошения плодоносящего сада яблони в условиях Волго-Ахтубинской поймы. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата сельскохозяйственных наук. - Волгоград, 1999. - 164 с..

11 Respublikamiz sharoitida bog' va tokzorlardan mo'l-ko'l hosil olishda amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar bo'yicha tavsiyalar. O'zR QXII CHM. - Toshkent. 2015. 91 b.

12 M.X.Xamidov, X.I.Shukurlayev, A.B.Mamataliyev. //Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi. - Toshkent: Sharq, 2008. - 278 b.

UO'K: 528.4 : 004 : 311.12

КАДАСТР МАҚСАДЛАРИ УЧУН МАЪЛУМОТЛАРНИ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА СТАТИСТИК ГУРУҲЛАШТИРИШ

О.Р.Алланазаров – *Ислом Каримов номидаги Тошкент Давлат техника университети*

С.И.Хикматуллаев – *“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти” Миллий тадқиқот университети*

Аннотация. Ушбу мақолада турдош илмий фанлар графлари интеграциясини математик моделиштириш асосида кадастр масалаларини ечиш масалалари ёритилган. Ушбу маълумотлар кадастр карталарида объектларнинг комплекс ва интеграл тизимини ташкил этишда алоҳида аҳамиятга эга бўлади. Маълумотларни тизимли таҳлил қилиш ва статистик гуруҳлаштириш ҳамда уларни махсус базада шакллантириш ягона давлат кадастрини яратилиш билан боғлиқ бўлган лойиҳалар ва биринчи навбатда картографик тизимларига боғлиқ

ҳолда амалга оширилди. Бу жараёнда тузилиши, таркиби, мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда маълумотларни гуруҳлаш ва уларни замонавий даражада сақлаш технологияларига алоҳида аҳамият қаратиш керак.

Калит сўзлар: Кадастр, интеграция, илмий фанлар, математик моделиштириш, графлар назарияси, географик ахборот тизимлари, рақамли карта, геодезия, картография, маълумотлар базаси.

Аннотация. В этой статье рассказывается о том, как математик турдош изучает интеграцию графов

на основе моделирования кадастра масиша масалалари еритилгана. Кадастровые данные Ушбу картируют объектно-ориентированные комплексы и интегралы тизимини, образуемые отдельно по значению. В настоящее время ведутся работы по созданию единого государственного кадастра яратылык билан Баглык булган лойхалар, а также по составлению очередного картографического списка тизимларига Баглык холда амалга оширилди. В то же время особое значение придается качеству, составу, назначению и задачам сотрудников чыджкана, информации о его команде и современных технологиях.

Ключевые слова: кадастр, интеграция, научные науки, математическое моделирование, теория графов, геоинформационные системы, цифровая карта, геодезия, картография, база данных.

Annotation. This article describes how mathematician Turdosh studies graph integration based on modeling the cadastre of Masish Masalalari yeritilgan. The cadastral data of Ushbu maps object-oriented complexes and integrals of thizimines, formed separately by value. Currently, work is underway to create a unified state cadastre yaratylyk bilan Baglyk bulgan loykhalar, as well as to compile another cartographic list of tizimlarig Baglyk hold amalga oshirildi. At the same time, special importance is attached to the quality, composition, purpose and tasks of Chijkan's employees, information about his team and modern technologies.

Key words: Cadastre, integration, scientific sciences, mathematical modeling, graph theory, geographic information systems, digital map, geodesy, cartography, database

Кириш

Ушбу бўлим кадастр мақсадлари учун маълумотларни тўплаш ва уларни тизимли қайта ишлаш ва гуруҳлаштириш масалаларига бағишланади. Шунини қайд этиш лозимки, кадастр маълумотларини тизимлаштиришда давлат кадастрлари таркибидаги барча кадастр карталари, уларнинг ажралмас таркибий асоси бўлиб хизмат қилади. Ушбу маълумотлар кадастр карталарида объектларнинг комплекс ва интеграл тизимини ташкил этишда алоҳида аҳамиятга эга бўлади. Маълумотларни тизимли таҳлил қилиш ва статистик гуруҳлаштириш ҳамда уларни махсус базада шакллантириш ягона давлат кадастрини яратилиш билан боғлиқ бўлган лойхалар ва биринчи навбатда картографик тизимларига боғлиқ холда амалга оширилди.

Бу жараёнда тузилиши, таркиби, мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан холда маълумотларни гуруҳлаш ва уларни замонавий даражада сақлаш технологияларига алоҳида аҳамият қаратиш керак. Карталар серияси мазмунини ва математик асосини, уларнинг таркибини аниқлашда кадастр маълумотларининг ишончилиги ва аниқлигига алоҳида аҳамият берилди.

Республикамизда мавжуд кадастр карталари атрибутлари ҳам Давлат қонунларига, норматив ҳужжатларга, кадастр картографиясининг назарий қоидаларига таянган холда маълумотлар таҳлил қилинади ва тизимлаштирилади.

Кадастрни ишларини юритиш ва рақамли карталарни тузиш ҳамда атрибутларини шакллантиришда асосий эътибор картографик моделларга ва маълумотлар тизимига қаратилиб, қуйидаги ўзаро боғлиқ бўлган уч босқичли тизимда яратилди.

1. ДКЯТ объектлари кадастрини асослаш.

2. Кадастрларни маълумотлар билан таъминлаш.

3. ДКЯТ ни бошқариш ва юритиш амалий асослари ишлаб чиқиш.

Маълумотларни тизимли таҳлил қилиш назарияси ва ривожланиш йўллари умумийлаштириш ўзаро боғланган ва ўзаро ҳаракатдаги техник воситалар комплекси дир. Ушбу маълумотларни қуйидагича ифодалаш мумкин

- маълумотларга дастурий ишлов бериш булар процессорлар ва хотиралар, яъни ЭХМ ларнинг маълумотларини ўзгартирувчи ва ҳисобларни дастурий бошқаришни амалга оширувчи қурилмалари билан белгиланади;

- маълумотларни тайёрлаш, киритиш, кўрсатиш ва ҳужжатлаштириш воситалари, булар операторни ЭХМ билан алоқаси учун хизмат қилади;

- маълумотларни архивлаш воситалари, булар ташки эслаб қолувчи қурилмалар билан белгиланади;

- маълумотларни узатиш воситалари бунда тарқоқ ҳолда бўлган атрибутлар орасидаги алоқаларни ташкил қилишда фойдаланилади.

Маълумотларни тизимли таҳлил қилиш бу илмий йўналиш бўлиб объектларни тадқиқ қилишда кузатилиши ва аниқланиши қийин бўлган воқеа ва ҳодисаларни ўзига хос муносабатларини тадқиқ қилишнинг методикаси деб тушиниш зарур. Маълумотларни тизимли таҳлил қилиш ўрганилаётган объектларни мақсадга кўра тизимлар сифатида мақсад ва воситалар орасидаги ўзаро муносабатларни ўрганади. Маълумотларни тизимли таҳлил қилиш бир неча босқичларда амалга оширилади.

Биринчи босқичда – вазифа белгиланади, у тадқиқот объектларини

аниқлаш, мақсадларни белгилаш, шунингдек объектни ва уни бошқаришни яхшилаш учун зарур бўлган мезонларни аниқлашдан иборат.

Иккинчи босқичда - ўрганилаётган объектларнинг чегаралари белгиланади ва уни тузиш структураси аниқланади. Қуйилган мақсадга кўра объектларда содир бўлаётган ўзгаришлар мажмуи иккига ажратилади ўрганилаётган қисм тизим ва ташки муҳитга таъсири ҳамда бирламчи структуралаштириш жараёнининг якуни, алоҳида ташкилий қисмларни ҳамда ўрганилаётган тизимнинг ташки таъсирларни шрганишда ажратилади.

Учинчи муҳим босқич - ўрганилаётган объект маълумотларини математик моделини тузиш. Бу йўналишдаги биринчи қадам маълумотлар параметрлари бўйича аниқланади унда тизимнинг ажратилган элементларини ва уларга таъсир қилувчи омиллар ўрганилади ва улар маълум кўрсаткичлар ёрдамида ифодаланади.

Иккинчи қадам эса – бунда турли кўрсаткичлар орасидаги боғлиқликлар ўрганилади. Бу боғлиқликларнинг характери турлича бўлиши мумкин: биринчи миқдор кўрсаткичлар бунда боғланишлар одатда тенгламалар кўринишида ўз аксини топади; иккинчи сифат кўрсаткичлар учун эса боғлиқликлар жадвал кўринишида тасвирланади, бунда жадвалда берилган маълумотлар турли комбинацияларга асосланилади. Маълумотларни тизимли таҳлил қилишда функционал боғланишлар билан бир қаторда турли кўринишдаги эҳтимол кўрсаткичлардан ҳам фойдаланиш мумкин.

Объектлар элементлари орасидаги боғланишлар одатда жуда мураккаб кўринишда бўлади. Бу барча боғланишларни таърифлаш ҳам жуда

мураккаб ва кўп вақтни талаб қилади. Шунинг учун, маълумотларни тизимли таҳлил қилишда бу кўрсаткичлар қисқартирилади.

Бундай ишларни амалга оширишда ўрганилаётган тизимни қисм тизимларга бўлиш, типик қисм тизимларни ажратиш, тизимларнинг иерархиясини ўрганиш ва бир даражадаги ҳамда бир турдаги қисм тизимларни боғланишларини стандартлаштирилади. Қисм тизимларни ажратиш ва уларни иерархиясини ўрнатиш тамаълумотларни соддалаштириш бошқа мақсадларда ҳам амалга оширилади. Тадқиқот жараёнида бирламчи тузилиш (структура) ва тизимнинг кўрсаткичлари, мақсад ва мезонлари аниқланади. Бу босқичнинг натижасида формал математик тилда ифодаланган тугалланган математик модел пайдо бўлади.

Шунинг учун тадқиқотларда ўрганилаётган объект маълумотлари махсус дастурлар ёрдамида тўғридан-тўғри моделлаштирилади. Бундай моделлаштиришда синаб кўриш ва хатолик усулидан фойдаланилади. Ушбу усул классик усулдан фаркли равишда маълумотларни тизимли таҳлил қилишда асосий усулдир. Чунки маълум бўлган аналитик усулларни мураккаб тизимлар учун қўллаб бўлмайди. Кадастр мақсадлари учун тўпланган маълумотларни тизимли таҳлил қилиш асосида жойда содир бўлган ўзгаришлар мониторинг қилинади ва зарур бўлганда прогноз ишлари олиб борилади.

Ушбу маълумотларни тизимли таҳлил қилишда карта ва геоиконикаларни яратишда ушбу маълумотлардан зарур бўлганлари фойдаланилади. Албатта ушбу маълумотларни карталарда ифодалашда улар статистик гуруҳланади.

Бугунги кунда ахборот тизимлари бутун Ўзбекистон Республикасида муваффақиятли ривожланмоқда ва ишламоқда. Ушбу тизимлар кўчмас мулк объектлари ҳақида турли хил маълумотларни сақлаш учун мўлжалланган [1, 3, 7].

Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги 560-II-сонли (2021 йил 30 мартдаги таҳрирда) “Ахборотлаштириш тўғрисида” ги Давлат қонунига мувофиқ Давлат, минтақавий ва муниципал даражадаги ГАТ тақдим этилган. 2-расмда ҳозирда шаҳарсозлик ва ҳудудий режалаштириш ва бошқа тегишли соҳаларда ишлаб чиқилмоқда [1, 2, 3, 5].

ДКЯТнинг миллий географик ахборот тизими (ДКЯТ МГАТ) Кадастр агентлиги оммавий геопортали, у Кўчмас мулкнинг ягона давлат реестридаги маълумотларга, шу жумладан Интернет орқали онлайн

сўровлар юбориш орқали киришни таъминлайди [8].

Кадастр ишларини бажариш орқали ДКЯТ кўчмас мулк объектлари, шу жумладан чизиқли муҳандислик иншоотлари тўғрисидаги маълумотлар билан тўлдирилади. “Кўчмас мулк кадастри” бўлимида бундай тузилмалар учун техник лойиҳаларни тайёрлаш орқали чизиқли муҳандислик иншоотлари ҳақида асосий ва қўшимча маълумотлар мавжуд, лекин тизимлаштирилмаган.

Ҳозирги вақтда давлат кўчмас мулк кадастри тизими доимий равишда янгиланиб, ривожлантирилмоқда: фазовий маълумотларни тақдим этиш ва кўрсатиш усуллари такомиллаштирилмоқда, давлат хизматларини кўрсатиш усуллари автоматлаштирилмоқда, инновацион технологиялар жорий этилмоқда. геодезия, кадастр, картография, шу билан бирга, кўчмас мулк объектлари уларнинг конфигурацияси янада мураккаблашади ва замонавий икки ўлчовли проекцияда кўрсатиб бўлмайдиган ҳажмга эга [1, 3, 8, 9, 10, 11, 12]. 2 – расмда Чизиқли муҳандислик иншоотларининг фазовий маълумотларининг базасини яратишда географик ахборот тизимларидан фойдаланишнинг таснифи берилган.



2 – расм. Муҳандислик иншоотларининг фазовий маълумотлар

базасини яратишда ГАТдан фойдаланишнинг таснифи

Ўзбекистон Республикасида кўчмас мулк кадастр тизимини ривожлантиришнинг жорий тенденциялари ва истиқболларини таҳлил қилиш кадастр хизматининг кадастр навбатчи харитасининг 3D моделини яратиш зарурлигини кўрсатади [1, 2, 3, 5, 8, 9, 11, 12].

Бугунги кунда кўчмас мулк объектларининг уч ўлчовли (3D) модели тавсифи аста-секин норматив ҳужжатларга киритилмоқда[13]. Масалан, агар бино, иншоот ёки қурилиши тугалланмаган объектнинг жойлашуви кадастр ишлари буюртмачисининг талабига биноан бино, иншоот ёки қурилиши тугалланмаган объектнинг конструктив элементларининг фазовий 3D модели тавсифи орқали қўшимча равишда белгиланса, бундай бино, иншоот, тугалланмаган қурилиш объектнинг 3D модели унинг конструктив элементларининг фазовий тавсифини ўз ичига олган техник лойиҳанинг иловасига киритилган, яъни мулкнинг 3D моделини тузилади [7].


Бу ҳолат кўчмас мулкнинг уч ўлчовли кадастр тизимини ишлаб чиқишни тақозо этади.

Бу Ўзбекистон Республикаси ва хорижий мамлакатларда кўчмас мулк кадастрининг уч ўлчовли тизимларини ишлаб чиқиш бўйича фазовий техник лойиҳаларни амалга ошириш билан таъкидланади [9, 10, 13]. Чунки бу Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг эҳтиёжларини қондириш, алоҳида тармоқларнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, ҳудудларнинг инвестицион жозибадорлигини ошириш, давлат хизматларини ривожлантириш, бизнесни ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш ва давлатлараро лойиҳаларни амалга оширишга

қаратилган замонавий технологиялардан фойдаланишни тақозо этади.

Ушбу ёндашув турли даражадаги (ер усти ва ер ости), шу жумладан чизиқли муҳандислик иншоотлари ва бошқа объектларда жойлашган кўчмас мулкни давлат кадастрида рўйхатга олишда мавжуд муаммоларни ҳал қилишга қаратилган. Бу ахборотни бошқариш жараёнини сезиларли даражада соддалаштиради ва кўчмас мулк объектлари тўғрисида долзарб маълумотларни олиш ва уларнинг ўзгаришларини назорат қилиш имконини беради [5, 13, 16].

Матн кўринишидаги (семантик маълумотлар) ва график шаклдаги (график маълумотлар) ишончли, тизимлаштирилган тематик қатлам маълумотлар тўплами бўлган ДКЯТдан ташқари, бошқа тегишли ахборот тизимлари мавжуд (2-расм). Бундай ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда давлат хизматларини сифатли кўрсатишни таъминлайди ва қулай инвестиция муҳитини яратади [1, 3, 5, 8, 14] (3-расм).



3-расм. Давлат шаҳарсозлик кадастри оммавий геопортали

ДКЯТ МГАТ билан бир қаторда, давлат ахборот ресурслари, давлат ва муниципал ахборот тизимлари, шу жумладан шаҳарсозликни таъминлаш учун давлат ахборот тизимларида мавжуд бўлган маълумотларга киришни таъминлайдиган ҳудудий режалаштириш бўйича миллий географик ахборот тизимини (МГАТ ҳудудий лойиҳалаштириш) ҳам ўз

ичига олади [3]. Шаҳарсозликни ҳудудий режалаштириш тизимида транспорт инфратузилмаси ва муҳандислик инфратузилмаси шакл ва схемалари, ҳудуддан фойдаланиш учун алоҳида шартлар мавжуд бўлган зоналар хариталари ва маҳаллий аҳамиятга эга объектларнинг лойиҳалаштирилган жойлашуви харитасини ўз ичига олган ҳудудий лойиҳалаштириш ҳужжатлари, бош планлар акс эттирилади [15]. Шунингдек, ҳудудни режалаштириш лойиҳалари ва ҳудудларни ер тузиш лойиҳалари тузилади.

Шунингдек, Давлат ахборот ресурсларига манзилларни белгилаш, ўзгартириш ва бекор қилиш тўғрисидаги ҳужжатларнинг тафсилотлари тўғрисида ишончли, ягона ва оммага очиқ маълумотларни ўз ичига олган давлат ахборот манзил тизими (ДАМТ) қиради.

ДКЯТнинг ҳудудий ахборот тизимларига шаҳарсозлик фаолиятини таъминлаш бўйича давлат ахборот тизимлари қиради [3, 15, 16]. Улар ҳудудларни ривожлантириш, мавжуд ва режалаштирилган капитал қурилиш лойиҳалари тўғрисидаги маълумотлар, ҳужжатлар, материаллар ва шаҳарсозликни амалга ошириш учун зарур бўлган бошқа маълумотларни ўз ичига олади. Шу жумладан Давлат, минтақавий ва маҳаллий объектларнинг лойиҳалаштирилган жойлашуви хариталари, ҳудудни режалаштириш лойиҳасининг асосий қисми ва ҳудудни ўрганиш лойиҳаси, алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар зоналар чегаралари (АМЭТХЗЧ) тўғрисидаги маълумотлар қиради [5]. Шунингдек, мавжуд ва лойиҳалаштирилган муҳандислик-техник таъминот тармоқлари, электр тармоқлари, шу жумладан ДКЯТдаги маълумотларга асосланиб, жойлашуви тўғрисидаги маълумотларни акс эттирувчи ер усти

ва ер ости коммуникациялари учун муҳандислик тадқиқотлари ва лойиҳалари материаллари ва натижалари сифатини назорат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги 560-П-сонли (2021 йил 30 мартдаги таҳрирда) “Ахборотлаштириш тўғрисида” ги Давлат қонуни

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги №ПФ-60 фармони 1-илоvasи

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2013 йил 25 сентябрда «Миллий географик ахборот тизимини ташкил этиш» инвестиция лойиҳасини амалга ошириш чоратadbирлари тўғрисидаги ПҚ-2045-сонли Қарори

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.02.2021 йилдаги 66-сонли “Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги кадастр агентлиги тўғрисидаги ҳамда кадастр агентлигининг Давлат кадастрлари палатаси тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори

5. Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитасининг 2014 йил 12 сентябрдаги 12-сонли қарорига илова “Давлат кадастрлари ягона тизимига тегишли давлат кадастрлари маълумотларининг таркиби ва уларни тақдим этиш тартиби тўғрисидаги” НИЗОМ

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 07 январдаги 1-сон “Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш

тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарори – URL: <http://www.lex.uz>.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 июндаги “Давлат кадастрларини юритиш соҳасини тартибга солувчи айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 389-сон қарори Тошкент ш.

8. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Кадастр агентлиги оммавий геопортали. – URL: <https://open.ngis.uz/>.

9. Берлянт А. М. Картография. - М.: Аспект-Пресс, 2001. - 336 с.

10. Кадничанский С.А. ГИС-технологии создания карт земельных ресурсов – М.: ГУЗ, 2005. - 104 с.

11. Т.Х.Болтаев ва бошалар. Геоахборот тизимининг илмий асослари. Ўқув қўлланма. Ташкент. “Иқтисод-Молия”. 2016 й.

12. Сафаров Э.Ю., Мусаев И.М., Абдурахимов Х.А. Географик ахборот тизимлари ва технологиялари. – Тошкент., ТИМИ, 2009 й.

13. Аврунев Е.И., Гатина Н.В., Козина М.В. Разработка принципов для 3D-моделирования линейных сооружений и инженерной инфраструктуры территориального образования // Вестник СГУГиТ. – 2022. – Т. 27, № 1. – С. 107–115.

14. Д.О.Журакулов. Давлат кадастрлари ягона тизими. Дарслик / Самарқанд – 2020 й. 120 б.

15. Ўзбекистон Республикаси Давлат шаҳарсозлик кадастри оммавий геопортали. – URL: <https://dshk.uz/ru/>.

16. Викторова Л.А. Инженерные сооружения как элементы архитектурной среды // Архитектура и современные информационные технологии. – 2011. – № 1 (14). – С. 1–5

КЎЧМАС МУЛК КАДАСТРИНИ ЧИЗИҚЛИ МУҲАНДИСЛИК ИНШООТЛАРИ БЎЙИЧА ФАЗОВИЙ МАЪЛУМОТЛАР БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МУАММОСИ

Ниязов Воҳиджон Рўзиевич, - Самарқанд давлат архитектура – қурилиш университети, “Геоматика муҳандислиги” кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д. (PhD), Ўзбекистон Республикаси, Самарқанд шаҳри, Лолазор кўчаси, 70-уй, тел. (97) 923-16-08

Рахимов Улугбек Абдуллаевич, - Самарқанд давлат архитектура – қурилиш университети, “Геоматика муҳандислиги” кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д. (PhD), Ўзбекистон Республикаси, Самарқанд шаҳри, Лолазор кўчаси, 70-уй, тел. (93) 994-08-04

Ҳамдамов Маруф Сайфуллаевич - Самарқанд давлат архитектура – қурилиш университети, “Геоматика муҳандислиги” кафедраси (PhD) таянч докторант, 630108, Ўзбекистон Республикаси, Самарқанд вилояти, Самарқанд шаҳри, Лолазор кўчаси, 70-уй, тел. (97) 393-77-60

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси давлат шаҳарсозлик кадастрига қарашли кўчмас мулк объектларига бўйича кадастр хизматини кўрсатиш методологиясининг замонавий ҳолатини тадқиқ қилиш, чизиқли муҳандислик иншоотларининг 3D моделини яратиш учун кадастр маълумотлар баъзасини яратишда ГАТдан фойдаланиш ва давлат шаҳарсозлик кадастрининг узоқ муддатли ривожланиши ва маълум хусусиятлари, ер участкалари ва улар билан мустаҳкам боғланган кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқлар тўғрисидаги ҳужжатларни рўйхатдан ўтказиш ва расмийлаштириш тўғрисида таъкидланган.

Калим сўзлар: миллий географик ахборот тизими, ДКЯТ, ер ва кўчмас мулк муносабатлари, кўчмас мулк, ер ости муҳандислик иншооти, геопортал, давлат шаҳарсозлик кадастри

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется изучению современного состояния методологии кадастрового обслуживания объектов

недвижимости в рамках государственного градостроительного кадастра Республики Узбекистан, использованию ГИС при создании некоторых кадастровых данных для создания 3D-модели линейных инженерных сооружений и долгосрочному развитию государственного градостроительного кадастра и регистрации.

Ключевые слова: Национальная геоинформационная система, ЕКГС, земельно-риэлторские отношения, недвижимость, подземный инженерный сооружения, геопортал, государственный градостроительный кадастр

Annotation: This article pays special attention to the study of the current state of the methodology for cadastral maintenance of real estate within the framework of the state urban planning cadastre of the Republic of Uzbekistan, the use of GIS in the creation of some cadastral data to create a 3D model of linear engineering structures and the long-term development of the state urban cadastre and registration.

Key words: *National geographic information system, EKGS, land-real estate relations, real estate, underground engineering structures, geoportal, state urban planning cadastre*

Кириш

ДКЯТнинг маълумотлар базасида матн кўринишидаги (семантик маълумотлар) ва график шаклдаги (график маълумотлар) ишончли, тизимлаштирилган маълумотлар тизими бўлганлиги сабабли, кадастр ишларини ахборот билан таъминлаш сифати, бунинг натижасида тегишли маълумотлар киритилади. ДКЯТга киритилиши Ўзбекистон Республикасида ер мулки муносабатлари тўғрисидаги билимлар соҳасининг тегишли бўлимини ривожлантиришда муҳим йўналиш ҳисобланади [1].

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 ноябрдаги 803-ЎРҚ-сонли «Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида» Қонунинг 1-моддасига асосан кўчмас мулкнинг қуйидаги турларига бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказишга нисбатан татбиқ этилади [2]:

- ер участкаларига;
- биноларга, иншоотларга, шу жумладан қурилиши тугалланмаган объектларга;
- кўп йиллик дов-дарахтларга;
- мулккий мажмуа сифатидаги корхонага. Шунингдек, ер участкалари, бинолар, иншоотлар, автотураргоҳлар, қурилиши тугалланмаган объектлар тўғрисида, ягона кўчмас мулк мажмуалари тўғрисидаги маълумотлар, Давлат қонунларда белгиланган ҳолларда, шу жумладан, ерга мустаҳкам боғланган бошқа объектлар тўғрисида, яъни мақсадига мутаносиб равишда зарар этказмасдан ҳаракатланиши мумкин бўлмаган, бундай кўчмас мулк объектининг мавжудлигини тасдиқловчи

хусусиятларга эга бўлган, уни алоҳида белгиланган нарса сифатида аниқлашга имкон берадиган ёки унинг мавжудлигини тугатишни тасдиқловчи ва бошқа объектлар киради. Ушбу Давлат қонунда назарда тутилган кўчмас мулк объектлари тўғрисидаги маълумотлар.

Ўзбекистон Республикаси «Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида» Қонунда, капитал қурилиш объектлари – қурилиши тугалланмаган бинолар, иншоотлар, объектлар (тугалланмаган қурилиш объектлари), доимий бўлмаган бинолар, иншоотлар ва ажралмас ободонлаштиришлар бундан мустасно, ер участкаси (йўл қопламаси, қопламаси ва бошқалар) кадастр рўйхатига олинади. Шунингдек, ушбу қонунда чизиқли объектлар - электр узатиш линиялари, алоқа линиялари (шу жумладан чизиқли кабел иншоотлари), қувурлар, автомобил йўллари, темир йўл линиялари ва шунга ўхшаш бошқа иншоотлар, конструкция тупроқли, текислик ёки чизиқли қурилиш иншооти бўлган қурилиш натижасидир, юк кўтарувчи ва баъзи ҳолларда ўраб турган қурилиш иншоотларидан ташкил топган ва ҳар хил турдаги ишлаб чиқариш жараёнларини амалга ошириш, маҳсулотларни сақлаш, одамларнинг вақтинча бўлиши, одамлар ва товарларни кўчириш учун мўлжалланган ер усти ва (ёки) ер ости қисмлари ҳам кадастр рўйхатига олинади [2].

Шундай қилиб, чизиқли муҳандислик иншоотлари кўчмас мулк объектлари бўлиб, улар ҳақидаги маълумотлар ДКЯТ га киритилиши керак.

Муаллиф томонидан олиб борилган илмий изланишларда чизиқли муҳандислик иншоотлари ва уларнинг таснифига бағишланган бир қанча


илмий нашрлар таҳлил қилинди. Шу жумладан, муҳандислик иншоотлари таснифини ишлаб чиқиш бўйича О.С.Семенова [9], Б.А.Картозива [8] томонидан амалга оширилган бўлиб, улар ер усти иншоотларини ривожлантириш бўйича жаҳон тажрибасига асосланиб, бундай тузилмаларнинг функционал мақсадларига бўлинган умумий таснифини таклиф қилганлар ва ер ости майдони эътиборга олмаганлар. Баъзи тадқиқотчилар [12] муҳандислик иншоотларининг таснифини таклиф қилдилар: функционал мақсадларига кўра, уларни фуқаролик, гидротехника, кишлоқ хўжалиги, саноат ва транспорт иншоотларига бўлиш, шунингдек, улар қурилган материалларга қараб, уларнинг хизмат қилиш муддати, уларнинг лойиҳадаги геометрик шакли ва бошқа параметрлари бўйича тадқиқ қилган. Викторова Л.А. [5] муҳандислик иншоотларини меъморий муҳитнинг элементлари сифатида ажратишни таклиф қилади, шунингдек, таснифни ҳажмли хусусиятлар ва тузилмаларнинг бинога композицион таъсирини тадқиқ қилган [1].

Юқоридаги илмий-техникавий нашрларни таҳлил қилиб, мавжуд таснифларни кадастр рўйхатидан ўтказилиши лозим бўлган ҳамда фазодаги, ер усти ва ер ости иншоотларнинг фазовий жойлашувига эга бўлган Самарқанд шаҳрида мавжуд чизиқли муҳандислик иншоотлари таснифи 1-расмда кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикаси «Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида» Қонунида, кўчмас мулкни давлат кадастр рўйхатига олиш ДКЯТ га кириш ҳисобланади. Шунингдек, ер участкалари, бинолар, иншоотлар, автомобил тўхташ жойлари, автотураргоҳлар, қурилиши тугалланмаган объектлар тўғрисидаги,

ягона кўчмас мулк мажмуалари тўғрисидаги маълумотлар, Давлат қонунларда белгиланган ҳолларда, шунингдек ер билан мустақкам боғланган бошқа объектлар кўп йиллик дов-дарахтлар тўғрисидаги маълумотларнинг кўчмас мулк реестри. мақсадига мутаносиб равишда зарар етказмасдан ҳаракатланиши мумкин бўлмаган, бундай кўчмас мулк объектининг мавжудлигини, уни алоҳида белгиланган нарса сифатида белгилашга ёки унинг мавжудлигини тугатишни тасдиқловчи хусусиятларга эга эканлигини тасдиқловчи, шунингдек ушбу Давлат қонунда назарда тутилган кўчмас мулк объектлари тўғрисидаги бошқа маълумотлар кадастр рўйхатига олинади [1, 2].


Кадастр ишларини бажариш орқали ДКЯТ кўчмас мулк, шу жумладан чизиқли муҳандислик иншоотлари тўғрисидаги долзарб ва ишончли маълумотлар билан тўлдирилади [7].



1 – расм. Самарқанд шаҳрида жойлашган муҳандислик иншоотларининг мақсади, асосий параметрлари ва жойлашув ҳолати бўйича таснифи [5, 8, 9, 12]

Ўзбекистон Республикаси «Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида»

Муҳандислик иншоотлари тўғрисидаги асосий ва кўшимча маълумотлар кўчмас мулк кадастрига кўчмас мулк учун тайёрланган кадастр йиғма жилди асосида киритилади. Ушбу конунга биноан қурилиш тўғрисидаги маълумотлар, бундай кўчмас мулк объектларининг ер участкасида жойлашган жойи ва уларнинг майдони, қурилиш майдони тўғрисидаги маълумотлар бундан мустасно, лойиҳа асосида техник шартларда кўрсатилган, кадастр ишининг буюртмачиси томонидан тақдим этилган бундай кўчмас мулк объектларининг ҳужжатлари [2].



– кўчмас мулкка бўлган
хукукларни давлат рўйхатидан ўтказиш
тўғрисидаги ариза;
- Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22
июндаги 389-сон «Давлат
кадастрларини юритиш соҳасини
тартибга солувчи айрим норматив-

Чизиқли муҳандислик
иншоотларининг хавфсизлигини
таъминлаш ва зарур иш шароитларини
яратиш учун ушбу объектларнинг
хавфсиз ишлаши ва эксплуатациясини
таъминлайдиган ҳудуддан фойдаланиш
учун махсус шарт-шароитларга эга
зоналар ташкил этилади [10]. Бундай
зоналарни ташкил этишнинг ҳуқуқий
режими шаҳарсозлик ва ер
қонунчилиги [3, 6], электр
энергетикаси соҳасидаги қонун
ҳужжатлари (электр тармоқлари
объектларининг ҳимоя зоналари ва
электр энергияси ишлаб чиқариш
объектларининг ҳимоя зоналари),
Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги
билан тартибга солинади. саноат
хавфсизлиги соҳаси (магистрал
қувурларнинг хавфсизлик ҳимоя
зоналари ва газ тақсимлаш
тармоқларининг хавфсизлик зоналари),
темир йўл транспорти тўғрисидаги
қонун ҳужжатлари (темир йўлларнинг
ҳимоя зоналари), аҳолининг санитария-
эпидемиология фаровонлиги
тўғрисидаги қонун ҳужжатлари
(санитария муҳофазаси зоналари) ва
Ўзбекистон қонунчилигининг бошқа
соҳаларида белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати кадастр маълумотларини ДҚЯТга киритишнинг устувор йўналишини белгилади, шу жумладан АМЭТХЗ чегараларини белгилаш ва Чизиқли муҳандислик иншоотларининг хавфсизлик ҳимоя зоналари тўғрисидаги маълумотлар ДҚЯТга - чегаралар реестрига матн ва кадастр муҳандиси томонидан тайёрланган АМЭТХЗ чегараларининг жойлашувининг матнли ва график тавсифи асосида киритилади. график тавсиф [11].

Чизиқли муҳандислик иншоотлари ва улар жойлашган ер участкасидан фойдаланишнинг махсус режими тўғрисидаги кадастр маълумотларини киритиш натижаси навбатчи кадастр хариталарида график ва матн шаклларида маълумотларни кўрсатишдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги N 171-II-сонли “Давлат кадастрлари тўғрисида” ги Қонуни

2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 ноябрдаги 803-ЎРҚ-сонли «Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида» Қонуни

3. «Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси» ЎРҚ-676-сон Қонун – URL: <https://lex.uz/docs/5307951>.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 июндаги 389-сон «Давлат кадастрларини юритиш соҳасини тартибга солувчи айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори

5. Викторова Л.А. Инженерные сооружения как элементы архитектурной среды // Архитектура и современные информационные

технологии. – 2011. – № 1 (14). – С. 1–5.

6. Епифанова Е.А. Определение деформаций стального вертикального цилиндрического резервуара объемом $v = 10\ 000\ \text{м}^3$ для нефти с применением наземного лазерного сканирования // Известия Томского политехнического университета. Инжиниринг георесурсов. – 2020. – Т. 331. – № 11. – С. 78–87. – DOI 10.18799/24131830/2020/11/2887.

7. Журакулов Д.О., Бобобеков И., Бурхонов Т. “Кўчмас мулк кадастри” фанидан маърузалар матни. Самарқанд. СамҚХИ 2015 й.

8. Картозия Б.А. Освоение подземного пространства крупных городов. Новые тенденции // Горный информационно-аналитический бюллетень. – 2015. – № S1. – С. 615–630.

9. Семенова О.С., Коломасова С.А., Овчинников С.В. Типология подземных объектов транспортной инфраструктуры в контексте мирового опыта освоения подземного пространства // Наука и образование в современном обществе: вектор развития сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции: в 7 частях. – 2014. – С. 136–142.

10. Журакулов Д.О., Пирназаров И.М., Ниязов В.Р., Ураков О.А. Кадастр хизматидаги геодезик ишлар. Ўқув қўлланма. Тошкент. “Фан ва технология” нашриёти. 2016 й. -292 б.

11. Чилингер Л.Н. Методический подход к установлению границ зон с особым водным режимом: обоснование и технологическая схема реализации // Вестник СГУГиТ. – 2019. – Вып. 3 (24). – С. 222–237.

12. Журакулов Д.О., Пирназаров И.М., Ниязов В.Р., Ураков О.А. Кадастр хизматидаги геодезик ишлар. Ўқув

УО‘К: 631.1.017.3 : 346.2 : 332 : 004 (575.1)

ЕР ҲИСОБИНИ ЮРИТИШ УСЛУБЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

М.О.Абдурахимова – т.ф.ф.д., катта ўқитувчи, Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти, 100000, Тошкент шаҳри, Қори-Низий кўчаси, 39. e-mail:mohigul_9429@mail.ru

З.И.Рахимова – мустақил тадқиқотчи

Аннотация. Мақолада ер ҳисобини юритиш турлари, услублари ва улардан фойдаланишда рақамлаштиришнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Шунингдек, ер ҳисобини шакллантиришда замонавий ахборот технологиялари ва электрон дастурлардан фойдаланиш кўлами ва афзалликлари таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: ер ахборот тизими, ер ҳисоби, ер кадастри, ер фонди, ер участкаси.

Abstract. The article analyzes the types and methods of land accounting and the importance of digitalization in their use. The scope and advantages of using modern information technologies and electronic programs in the formation of land records are also analyzed.

Key words: land information system, land registration, land cadastre, land fund, land plot.

Аннотация. В статье анализируются виды и методы учета земель и значение цифровизации в их использовании. Также анализируются масштабы и преимущества использования современных информационных технологий и электронных программ при формировании поземельных книг.

Ключевые слова: земельная информационная система, регистрация земель, земельный кадастр, земельный фонд, земельный участок.

Кириш

Ер ҳисоби самарали юритиш иқтисодий ривожлантириш режасини тузишда, биринчи навбатда қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш ва унга бўлган эҳтиёжни аниқлашда катта аҳамият касб этади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 сентябрдаги “Ер ҳисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6061-сон Фармони, 2021 йил 8 июндаги “Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6243-сон Фармони ва 2021 йил 24 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-5006-сон Қарорида ерга оид ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, ҳужжатлар тўпламини шакллантириш, уларни кўриб чиқиш ва мониторингини юритиш бўйича ахборот тизимига интеграция қилиш каби бир қатор вазифалар келтириб ўтилган [1-3].

Ер ҳисоби қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ихтисослаштиришда жуда катта аҳамиятга эга. Биринчи навбатда ер ҳисоби юқори аниқликда бўлиши

зарур. Бунда ерга оид ахборотларни назорат қилиш учун рақамли технологияларни қўллаган ҳолда ер ҳисобини юритиш талаб қилинади. Маълумки, республикамиз вилоятларининг табиий ва иқтисодий шароитларини хилма-хиллигини ҳисобга олиниб, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини давлат томонидан харид қилишда ер ҳисобига қуйидаги талаблар қўйилади. Жумладан, хўжаликнинг йирик шаҳар, саноат маркази ва қайта ишлаш корхоналарига нисбатан жойлашиши; қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ер майдонларининг миқдори, сифати ва табиий шароити; чорвачиликда иқтисодий фойда келтирадиган у ёки бу экин турларини танлаш; қишлоқ хўжалигини ихтисослаштириш [5].

Ерни давлат ёки жамоат эҳтиёжлари учун олиб берилишида хўжалик ерларининг миқдори, сифати, ер турлари ва улардан фойдаланиш даражаси, ўзлаштириладиган янги ер майдонларининг ҳисоб-китоблари ер ҳисобига асосланади. Булардан ташқари, ер ҳисоби ҳамда қиймати ҳақидаги маълумотлар ердан фойдаланганлик учун тўланадиган солиққа асос бўлади. Ер ҳисоби давлат ер кадастрининг асосий таркибий қисми бўлгани ҳолда хўжалик ҳисобининг бир тури ҳисобланади. Уни олиб боришнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Бу хусусиятлар ер майдонларининг ишлаб чиқариш воситаси сифатидаги хусусиятлари билан боғлиқдир. Ер ҳисобида ерларнинг миқдор жиҳатидан ҳисобини юритиш ҳамда сифат тавсифини бериш учун одатда натурал ўлчовлар қўлланилади. Қўйилган аниқ вазифаларига ва асосий мақсадларига қараб ер ҳисоби турлича аҳамиятга эга бўлиши мумкин. Ерларнинг мавжуд ҳолати ва фойдаланиш бўйича ҳисоб – китоб ишлари юқори сифатли план -

харита материаллари асосида олиб борилади. Ерларни ҳисоб қилиш мамлакат бўйича ягона услубият асосида ўтказилади. Бу эса ўз навбатида ҳисобга олинадиган ер тоифалари ва республиканинг алоҳида минтақалари бўйича маълумотларни бир – бирлари билан таққослашни таъминлайди. Ер ҳисобининг объекти ягона давлат ер фонди бўлганлиги сабабли кимнинг ихтиёрида бўлишидан, ушбу ер майдонлари маълум мақсадларда фойдаланилаяптими ёки йўқми, булардан қатъий назар, ер фондига кирувчи барча ер участкалари ҳисоб қилинади. Бу эса ўз навбатида, умумий майдонни, уни ер тоифалари ва ер турлари бўйича тақсимланишини тўғри аниқлаш имконини беради. Ер ҳисобини тўғри ташкил этишнинг муҳим шарти уни ўз вақтида ва узлуксиз юритишдир. Бу эса ер ҳисоби маълумотларини давр талаби даражасида тутишга имкон беради. Бу тамойил ер майдонларининг ҳолати ва фойдаланишида рўй берадиган миқдорий ва сифат ўзгаришларни тизимли тарзда ҳисоб қилиб боришга зарурият туғдиради. Ер майдонларини ҳисоб қилишда барча ўзгаришлар жойида қайд қилинганидан сўнггина ер ҳисоби ҳужжатларига қайд қилиш зарур. Миқдорий маълумотларни турли графиклар, диаграммалар тарзида курсатиш мақсадга мувофиқдир. Ер ҳисоби ва ер ҳисоботи ҳужжатлари ўртасида мантиқий жиҳатдан доимий равишда боғлиқлик бўлиши керак. Чунки ер ҳисоби натижалари ер балансини тузишга бирламчи асос бўлади. Ер ҳисобини ўтказишда кам харажат талаб қиладиган маълумотларни олиш ва қайта ишлаш усуллари ҳамда техник воситалардан фойдаланиш зарур. Замонавий компьютерларни ва тасвирга олиш ҳамда кузатувнинг такомиллашган

усулларини қўллаш мамлакат ягона ер фонди ҳисобини тўғри, ўз вақтида юқори сифатда амалга оширишга имкон беради.

Ер ҳисоби ишлари ўз вазифасига, мазмунига ва ўтказиш хусусиятига қараб давлат ер кадастри каби асосий бирламчи ва жорий (кундалик) турларга бўлинади. Бу ҳисоб турлари ўзаро боғлиқдир ҳамда ягона ер ҳисоби жараёнининг маълум босқичларини ўзларида намоён қилади. Асосий ер ҳисобининг вазифаларига қуйидагилар киради:

- ҳисоб қилинадиган ҳудуд учун барча мавжуд план-харита материалларини олиш, бир тизимга келтириш ва таҳлил қилиш;

- зарур бўлган бирламчи маълумотлар ва план-харита материалларини олиш мақсадида тасвирга олиш ҳамда кузатув бўйича дала қидирув ишларини ўтказиш;

- ҳисоб қилинадиган барча ерлар ўлчамларини, сифат ҳолатини, тақсимланиш ва фойдаланиш ҳолатини аниқлаш;

- махсус ер ҳисоби хариталарини тайёрлаш ва матн ҳужжатларига бирламчи ёзувларни киритиш;

- ер фонди таркибини ер тоифалари, ердан фойдаланувчилар, мулкдорлар ва ер турлари бўйича аниқлаш, ерларни маъмурий birlikлар (туман, шаҳар, вилоят, республика) бўйича сифат жиҳатидан тавсифлаш [5].

Асосий ер ҳисоби - майдонларини тасвирга олиш ва кузатув, план -хариталар тузиш, майдонларнинг юзаларини ҳисоблаш билан боғлиқ. Ҳисоб қилинаётган ерларнинг миқдори ва сифати тўғрисида тўлиқ маълумотлар олиш юқори малакали мутахассислар томонидан ўтказилади.

Жорий ҳисобнинг вазифасига қуйидагилар киради: биринчидан,

ерларнинг миқдори, сифати ва тақсимланишида юз берадиган ўзгаришлар тўғрисидаги маълумотларни аниқлаш ва ер ҳисоби ҳужжатларида қайд қилиш; иккинчидан, бирламчи ҳисобда йўл қўйилган хато ва камчиликларни аниқлаш ҳамда ер ҳисоби ҳужжатларига аниқликлар киритишдир.

Бугунги кунда рақамлаштириш ва рақамли технологиялар ёрдамида маълумотлар оқимини бошқариш, шунингдек, уларни керакли тармоқларга интеграция қилиш барча соҳаларда долзарб аҳамият касб этмоқда. Ер ҳисобини юритиш ва мониторинг қилиш ҳам шу каби жараёнлардан ўтмоқда. Республикамизда ер ҳисобини юритиш ва такомиллаштириш хусусида сўз юритилар экан, сўнгги йилларда давлат раҳбари томонидан қабул қилинаётган тегишли фармон ва қонунлар бевосита шу жараёни рақамлаштириш сиёсатига қаратилган. Жумладан, “Ер ҳисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6061 сонли фармонига мувофиқ ер умуммиллий бойлик, Ўзбекистон халқининг ҳаёти, фаолияти ва фаровонлиги асоси, энг муҳим табиий ресурс ҳисоблангани ҳолда ундан оқилона, самарали ва белгиланган мақсадда фойдаланишни таъминлаш, ерларни муҳофаза қилиш, ер билан узвий боғланган Давлат кадастрлари ягона тизимини тўлақонли юритиш давлатнинг энг муҳим вазифаларидандир”. Ушбу фармонга асосан, 2021 йил 1 январдан бошлаб, ер тури, контури, чегараси ва ҳуқуқ эгалари ҳақидаги барча маълумотлар Кадастр агентлигининг онлайн геопорталига киритилиши, онлайн геопортал Миллий геоахборот тизимига интеграция қилиниши, ер баланси ва унинг ҳисоботи, туман

(шаҳар) ер кадастри дафтари фақат Миллий геоахборот тизимида юритилиши, Давлат кадастрлари ягона тизими Миллий геоахборот тизимида шакллантирилиши ва тегишли давлат кадастрлари маълумотлари Миллий геоахборот тизимига фақат телекоммуникация тармоқлари орқали тўғридан-тўғри тақдим этиб борилиши белгиланган. Кўчмас мулклар тўғрисидаги маълумотлар бугунги Давреестр рақамлаштирилган тизими, Кўчмас мулк рақамлаштирилган тизими каби ахборот тизимларида жамланиб келинмоқда. Мазкур маълумотлар ўз навбатида географик кўринишлар билан бирга умумлаштирилиб, геоахборот тизимларида шартли белгилар орқали расмийлаштирилиб, омма учун бўлган геопорталга жойланади. Агентлик томонидан ушбу маълумотларни бир жойда жамлаш ҳамда омма учун очик тарзда фойдаланиш имконини берадиган платформа, яъни <http://map.geoport.uz/> геопортали ишлаб келмоқда. Мазкур геопорталда кўчмас мулк объектлари ер чегараси, кадастр рақами, объект тури, манзили, ер майдони каби маълумотлар мавжуд.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-5006 сонли қарорининг 10-бандида ерга оид ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, ҳужжатлар тўпламини шакллантириш ва уларни кўриб чиқиш мониторингини юритиш бўйича «E-YER NAZORAT» автоматлаштирилган ахборот тизимини яратиш; ерга оид ҳуқуқбузарликларни ўз ваколатлари доирасида кўриб чиқиш ва натижалари тўғрисидаги маълумотларни «E-YER NAZORAT» тизимига киритиб бориш мақсадида

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси, Бош прокуратура, Ички ишлар вазирлиги ва Бош прокуратура ҳузуридаги Мажбурий ижро бюросининг ҳудудий бўлинмалари, судлар ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ахборот тизимига интеграция қилиш каби бир қатор вазифалар келтириб ўтилган. Бугунги кунда ер ҳисобини юритиш тизимини такомиллаштиришда қуйидаги электрон тизимлардан кенг фойдаланиб келинмоқда (1-расм).

Электрон дастур янни	Мақсади	Қандай ҳужжат асосла яритилди	вак	Маскул ташкилот
геопортал	кўчмас мулк объектлари ер чегараси, кадастр рақами, объект тури, манзил, ер майдони каби маълумотларни жамлаш	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 сентябрдаги “Ер ҳисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тўдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-6061 сонли қарорига мувофиқ	2021 йил 1 январ	Кадастр агентлиги
«E-YER NAZORAT»	Мақсус ваколати давлат органлари томонидан ерга оид ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, ҳужжатлар тўпламини шакллантириш, уларни ўз вақтида ва объектив кўриб чиқиш мақсадида электрон ҳужжатлар алмашинуни амалга ошириш	2021 йил 24 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-5006 сонли қарори	2021 йилдан	Кадастр агентлиги
«E-qrator»	Электрон онлайн-хўжалик ва оғиш тизимига кўйиш учун ер участкаларини танлаш, келишиш, аққон ва тизимда ишроқ этиш учун мурокабларни қабул қилиш, аққон ва тизимда ўтказиш, унинг натижаларини расмийлаштириш билан боғлиқ бача жаройлар, истисноларсон факат электрон аборот тизимлардан фойдаланиш билан электрон ҳужжат алмашинуни йўли билан амалга оширилади	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 июлдаги “Ер мурокабларида тендик ва шифофотини таъминлаш, ерга бўғиш ҳуқуқларини амалга ошириш ҳақини ва уларни бозор аққонига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-6243 сонли қарорига мувофиқ	2021 йилдан	Кадастр агентлиги
“Ukad”	қишлоқ хўжалиги ерларини ҳисобга олиш	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 3 августдаги Жалон банк ишторига “Кўчмас мулкни рўйқатдан ўтказиш ва кадастр тизимларини модернизация қилиш” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2571-сон қарорига асосан Жалон банкнинг лойиҳасига бўйича “Кадастр ва рўйқатдан ўтказишнинг интеграциялашган аборот хазинаси тизими” да “Ukad” дастурда электрон хазина яратилиб, кадастр аборот тизимига киритилди.	2021 йилдан	Кадастр агентлиги

1-расм. Ер ҳисобини юритишда республикада мавжуд электрон дастурлар

Юқоридаги электрон дастурлардан фойдаланиш орқали ер ҳисобини юритишда маълумотлар оқимини назорат қилиш, самарали ер ҳисобини маълумотлар тизимини шакллантириш, ер ресурсларидан ўзбошимчалик билан фойдаланиш ҳолатларига чек қўйиш ва албатта инсон омилини камайтиришга эришилади.

Хулоса

Тизимдаги бу каби рақамлаштириш жараёнига оид маълумотларнинг ишончли ва тезкор тартибда фойдаланувчига етказишда ҳудудлардаги маҳалла фуқаролар йиғинларига оид маълумотларни рақамлаштириш ҳам катта аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ер ҳисоби

ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6061 сонли. 07.09.2020

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6243 сонли. 08.06.2021

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-5006-сонли. 24.02.2021

4. Чертовичский А.С., Свайнов А.А. 2016 Ер ахборот тизими, Тошкент: ТИМИ. 151 б.

5. Бабажанов А.Р., Қ.Рахмонов Қ., Гофуров А. Ер кадастри. Дарслик. Т:ТИМИ, 208 б.

6. Варламова А.А. Теоретические и методические положения управления земельными ресурсами и формирования системы государственного земельного кадастра: Монография, М.: ГУЗ, 2001, 175 стр.

7. Ярмазова Д.С., Бобожонов А.Р. Давлат кадастри асослари. ЎЗР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Т.: Чўлпон номидаги НМИУ 2014.

8. А.С.Чертовичский, А.К. Бозоров. Земельный кадастр. Учебное пособие. –Т.: “Фан ва технология”, 2013, - 296 стр.

9. Толипов Г.А., Гуломов Х.Ғ., Максудов Ж.М., Акрамов И.А. Ўзбекистон Республикаси ер кадастри. Т.: МСХРУЗ, 1994. -244 б.

10. Варламов А.А., Гальченко С.А. Земельный кадастр. Географические и земельные информационные системы Том-6. Учебник. “КолосС”. М.: 2005 й.

UO‘K: 347.235.11:379.816

BINO VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTRINI UCH O‘LCHAMDA (3D) YURITISHNING AVZALLIKLARI

Ў.Мухторов – “ТИҚХММИ” МТУ доценти
Н.Юлдашева - “ТИҚХММИ” МТУ талабаси

Annotatsiya. Ushbu maqolada 3D formatida davlat kadastrini yuritish vazifalar va tuzilmalarning muammolari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Bino va inshootlar davlat kadastrini, uch o‘lchamli kadastr, geoaxborot tizimlari, zamonaviy texnologiya, lazerli skanerlar

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы ведения государственного кадастра объектов и сооружений в формате 3D.

Ключевые слова: Кадастр зданий и сооружений, трёхмерный кадастр, геоинформационные системы, инновационные технологии, лазерные сканеры

Abstract. This article discusses the problems of maintaining the state cadastre of tasks and structures in the format of 3 D.

Keywords: Cadastre of buildings and structures, three dimensional cadastre, geoinformation systems, innovative technology, laser scanner

Кириш


Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda shu jumladan, O'zbekistonda ham bino va inshootlar kadastri ikki o'lchamda yuritiladi. Yer uchastkalarining joylashuvi ularning chegara nuqtalari to'g'ri burchakli koordinata tizimida aniqlanadi. Bu esa joydagi qo'shni uchastka chegaralariga nisbatan uchastka shakli, maydolarini yuqori darajada bog'lash imkonini beradi. Ammo, bino va inshootlar kadastrini bunday tarzda, ya'ni ikki o'lchamda yuritilishida bir qancha muammo va kamchiliklar yuzaga keladi. Bunday usulda ko'p tarmoqli ob'yektlar: ko'p qavatli yo'llar, ko'prik va tunellar, osma qavatli nostandart shaklli binolar va boshqalarni hisobga olish imkoninni bermaydi. Bulardan tashqari kadastr qiymatiga ta'sir etuvchi relefning shakli hisobga olinmaydi. Bunday masalalarni hal etish uchun Respublikamizda uch o'lchamli kadastrni yuritishni taqazo etmoqda. Yer yuzini uch o'lchamda tasvirlash yer ustida joylashgan ob'yektlarni ro'yxatga olish va rejalash, loyihalash, mulk huquqlari mexanizmlari tartibga solish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Tadqiqotlar jarayonida hozirgi kunda 24 ta Yevropa Ittifoqi davlatlarida 3D kadastri keng qo'llanilayotgani aniqlandi. Bu metod quyidagilarni qamrab oladi: yer va mulk munosabatlari sohasida qarorlarning tezkor qabul qilish; ob'yektlar tizimini majmuali boshqarishni takomillashtirish; ko'chmas mulk soliqlar stavkasini haqqoniy belgilash; yer kadastri munosabatlarini rivojlantirish; ko'chmas mulkka nisbatan mulkiy huquqni ishonchli boshqarish; ma'lumotlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish.

3D kadastrini yuritishda 2D ga nisbatan quyidagi imkoniyatlar vujudga keladi deb xisoblaymiz: yer uchastkalar yuzasidan ko'p maqsadli foydalanish; yer ustki uchastkalardan ko'p maqsadli

foydalanish; yer ostki uchastkalaridan ko'p maqsadli foydalanish.

Yevropa mamlakatlarining tajribasidan kelib chiqqan holda uch o'lchamli kadastrni hozirgi kunda bino va inshootlarni uch o'lchamli loyihalashda avtomatlashgan tizimni keng qo'llash GAT tizmlaridan foydalanishni tavsiya etish mumkin. Uni shakllantirishda birinchi navbatda joyning uch o'lchamli modelini yaratish kerak (1-rasm).



1-rasm. Joyning 3 D modeli

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bunday ishlarni maksimal tezkor darajada bajarish imkonini beradi. Ob'yektlarni modellashtirishda fazoviy ma'lumotlarni olish uchun eng maqbul innovasion texnologiyalar aero va uch o'lchamli skaner hisoblanadi.

Uch o'lchamli modelni qo'llashda aerofototasvir uchun ma'lumotlar-planli aerofoto tasvir asosida keyinchalik ortofotoplan yaratiladi. Uch o'lchamli modelni sterioskopik qayta ishlash orqali olinadi, bunda osonlik bilan obe'ktning real balandligini olish mumkin.


Bino devori va uning tiklama yuzasi to'g'risidagi yer ustki fototasvir ma'lumotlardan an'anaviy ravishda foydalaniladi. Ammo, amaliyotda ma'lumki bunday uslubda ma'lumotlar yig'ish ko'p mehnat talab qiladi, chunki binoning barcha old ko'rinishlarini rasmga olish murakkab ish hisoblanadi. Bunday masalalarni hal qilishda aeros'yomka apparatlari ishlab chiqaruvchilari yangi qaror taklif etishadi. Bunda planli va perespektivali (qiya) aeros'yomka mujassamlashtiriladi va takomillashtiriladi. Bu o'z o'rnida sezilarli

darajada buyurtmachi vaqti va resursi sarfini kamaytiradi.



2-rasm. Joyning raqamli modelini planli aerofotosurat orqali tuzish.

O'ch o'lchamli lazerli skanerlash-yuqori tezlikda o'lchovchi (bir sekunda mingdan million nuqtaga) skanerdan ob'yekt yuzigacha bo'lgan masofa s'yomkalovchi tizim bo'lib nuqtalar buluti ko'rinishida uch o'lchamli tasvir hosil qiladi. Bunday o'lchashni yuqori aniqlikda bajarishning yangi va innovatsion yo'nalishi hisoblanadi.



3-rasm. Lazerli tasvir "Nuqtalar buluti"

Har ikkala texnologiya uch o'lchamli ko'rinishni yaratishga yaroqli. Birinchi metod katta maydonli ob'ektlarni yuqori aniqlikda modellashirishda qulay, ikkinchi metodda esa qurilish zichligi yuqori darajada bo'lsa, uch o'lchamli aniq modelni olish zaruriyati tug'lsa 2 sm gacha xatolikda o'lchanadi. Olingan uch o'lchamli model va zamonaviy GAT asosida geoinformatsion loyihalarni yaratish mumkin. Bu bilan nafaqat ob'yekt to'g'risidagi har xil ma'lumotlarni (nomlanishi, maqsadi, kadastr yoki shartli raqami, adresi, tashqi o'lchami, qavati, qurilish material, mulkchilik shakli) ko'rish mumkin, balki to'laqonli vizualizatsiyani olish va fazoviy tahlil qilish imkoniyati tug'iladi.

Tadqiqot davomida Rossiya davlatining kadastr va kartografiya davlat ro'yxatidan o'tkazish xizmati va Niderlandiyaning "Yer va kartografiya ro'yxatga olish kadastr agentligi" hamkorligida "Rossiyada ko'chmas mulk kadastrining uch o'lchamli modelini yaratish" pilotli loyihasidabajarilgan ishlar tahlil qilindi.

Loyiha xajmli va 3D parsell asosida yuridik 3D kadastr masalasiga e'tibor qaratilgan. 3D-parsell – bu fazoviy qismni ko'rsatuvchi "yuridik ob'yekt", ya'ni bir yoki bir necha yagona huquq (masalan, mulk huquqi yoki foydalanish huquqi) ga ega fazoviy birlik. Bunday xajmli ob'ektlarini ro'yxatga olish O'zbekiston kadastrida amaliyotida keng qo'llanilmayapdi.

3D kadastr qo'llanilishi DKYAT takomillashtirilishi bilan birgalikda olib boriladi. Shu sababli tizimni boshlang'ich takomillashtirish qo'shimcha sarf xarajat talab qilmaydi va mulkni kadastr ro'yxatidan o'tkazish jarayoniga ta'sir qilmaydi. Shu jumladan, yangi ob'ektlarni kadastr ro'yxatidan o'tkazishdan oldin arxitekturaviy loyihasi 3D formatda loyihalanishini ham e'tiborga olish kerak. Bu esa o'z navbatida yaratilgan 3D ob'ektlarini osonlik bilan tartib asosida kadastr ro'yxatga olishda ishlatish mumkin bo'ladi.

3D kadastrni keyinchalik yanada rivojlantirishda ko'p funksional imkoniyatli ishlab chiqarish muhitini yaratish, shu jumladan ekspert tizimi, ma'lumotlar bazasini saqlash uchun boshqaruv tizimi, 3D da qo'shni birlikni tasvirlash uchun 3D vizualizatsiani kengaytirish kerak deb hisoblaymiz.

Yangi ob'ektlarni ma'lumotlar bazasiga saqlashdan oldin tekshiruv tizimi avtomatik ravishda 3D ob'ektlarni o'rnatilgan qoida asosida tekshirish kerak. DKYAT uchun eng asosiy mammlardan biri - uch o'lchamli ob'ektlar ma'lumotlarini tekshirishni

avtomatlashtirish masalasini yechish bo'lishi mumkin. Agar bu masala muvofaqiyatli hal etilsa, takomillashtirishga ketadigan sarf xarajat ham unchalik katta bo'lmaydi. Sarf xarajatni kamaytirish maqsadida yangi qurilayotgan bino va inshootlarning 3D aniq loyihalardan olish maqbul bo'ladi.

3D o'lchamda ob'yektlarni ro'yxatga olishni 2 varianti mavjud bo'ladi: qavatlar aro rejasiga asosan yoki qayta o'lchash, masalan lazerli skanerni qo'llab modelni yaratish. Eng katta o'zgarish kadastr muxandislari ishida bo'ladi, ular o'lchash metodlarini 3D ob'yektlariga moslashga to'g'ri keladi. Muxandislarning yangi metodda ishlashi maxsulotga moslashishi uchun dasturiy ta'minot talab qilinishi mumkin.

O'zbekistonda yuritilayotgan kadastr tizimi 3D jihatlarini qo'llashdan oldin bir qancha muammolarni hal qilishi kerak. 3D kadastrda eng asosiy masalalardan biri uning huquqiy jihatdan tan olinishida. O'zbekiston qonunchiligida ko'chmas mulklarni davlat ro'yxatidan uch o'lchamli o'tkazish to'g'risida hech qanday asos yo'q lekin shu o'rinda 3 o'lchamli kadastrni yuritishga qarshi hech qanday to'siq ham yo'qligini e'tirof etamiz.

O'zbekiston Respublikasining hududida uch o'lchamli kadastrga o'tishda iqtisodiy jihat muhim hisoblanadi. Lekin 3D kadastrni zamonaviy axborot texnologiyalarni GAT dasturida yuritish mumkin va bu iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi.

Zamon talabiga qarab ko'chmas mulklarni davlat ro'yxatiga olishni takomillashtirish kerak. Har xil toifadagi iste'molchilarga xizmatlarni elektron shaklda yetkazib berishni kengaytirish kerak, shuning uchun 3D kadastrni yuritilishi bir qancha qulayliklarni yaratadi. Bu kadastr tizimida davlat, tadbirkorlar va fuqarolar uchun qarorlarni tezkor va sifatli qabul qilishda samarali bo'ladi. 3D

kadastrni yuritish keyinchalik 4D kadastrga o'tishda asos bo'ladi, bunda ob'yekt va mulkiy huquq o'zgarishini vaqt davomida ko'rish imkoniyati tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Agapiou A. (2017): Remote sensing heritage in a petabyte-scale - Satellite data and heritage Earth Engine applications. International Journal of Digital Earth. Vol 10, pp. 85-102

2. Federal Ministry of Food and Agriculture BMEL (2014): The Forests in Germany – Selected Results of the Third National Forest Inventory.

3. Gorelick N., Hancher M., Dixon M., Ilyushchenko S., Thaub D., Moore R. (2017): GoogleEarth Engine - Planetary-scale geospatial analysis for everyone. Remote Sensing of Environment. in press: 10.1016/j.rse.2017.06.031

4. Hansen M.C., Potapov P.V., Moore R., Hancher M., Turubanova S.A., Tyukavina A., Thau D., Stehman S.V., Goetz S.J., Loveland T.R., Kommareddy A., Egorov A., Chini L., Justice C.O., Townshend J.R.G. (2013): High-Resolution Global Maps of 21st-Century Forest Cover Change. Science. Vol 342 (6160), pp. 850-853

5. Huang S., Krysanova V., Hattermann F. (2015): Projections of climate change impacts on floods and droughts in Germany using an ensemble of climate change scenarios. Regional Environmental Change. Vol 15 (3), pp. 461-473

6. Kim D.-H., Sexton J.O., Noojipady P., Huang C., Anand A., Channan S., Feng M., Townshend J.R. (2014): Global, Landsat-based forest-cover change from 1990 to 2000. Remote Sensing of Environment. Vol 155, pp. 178-193

